

“VATANPARVARLAR” harbiy-sport musobaqasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

“Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqalari (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) umumiyligi o‘rtalim maktablarining 10-11-sinflarida tahlil olayotgan “Vatan tayanchi” otryadlari a’zosi bo‘lgan o‘quvchilar (bundan buyon matnda umumta’lim maktablari deb yuritiladi) bilan tashkil etiladi.

I-bob. Umumiyligi qoidalar

1. Musobaqalar jamoaviy tartibda umumta’lim maktablarda tashkil etilgan “Vatan tayanchi” otryad a’zolari o‘rtasida har yili mart-may oylari davomida o‘tkaziladi.

2. Musobaqa ishtirokchilari Nizomda belgilangan talabnomada asosida musobaqada ishtirok etadi.

3. Musobaqani tashkil etishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni harbiy-amaliy sport musobaqalariga keng jalb etish orqali ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, o‘zaro madaniy-sport aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda yoshlarni sport o‘yinlariga ommaviy tarzda jalb qilish, sog‘lom turmush tarziga rioya qiladigan, dastlabki harbiy va psixologik tayyorgarlikka ega, buyuk ajdodlarimiz kabi mard, halol, jismonan baquvvat, bilimli, keng dunyoqarashli, vatanparvar, mas’uliyatli, qiyin va ekstremal vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini egallagan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

II-bob. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish

4. Musobaqa quyidagi bosqichlarda umumta’lim maktablari o‘rtasida jamoaviy tartibda:

Birinchi bosqich – umumta’lim (saralash) bosqichi: umumta’lim maktablarda sportga qiziquvchi, epchil va harakatchan, harbiylik kasbiga qiziqishi bo‘lgan yoshlarni saralab olib, maktabning terma jamoasini shakllantirish – har yili 1 martgacha “Vatan tayanchi” otryadi rahbarligida amalga oshiriladi.

Ikkinci bosqich – tuman (shahar) birinchiligi bosqichi umumta’lim muassasalari o‘rtasida – har yili 10 martgacha – tuman (shahar) mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, tuman (shahar) Madaniyat bo‘limlari, MK “Vatanparvar” tashkiloti bo‘limlari, umumta’lim muassasasi direktorlarining rahbarligi va tashkilotchiligidagi;

Uchinchi bosqich – hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) birinchiligi bosqichi – har yili 10 aprelgacha – harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi, viloyat mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi, Maktabgacha va maktab ta’limi, Madaniyat boshqarmalari, MK “Vatanparvar” tashkiloti viloyat kengashlari, hududiy tashkiliy qo‘mitalari tomonidan;

To‘rtinchi bosqich – respublika bosqichi – har yili 15 maygacha – Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, MK “Vatanparvar” tashkiloti Markaziy kengashlari tomonidan Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi, ChGBT va yoshlar bilan ishlash departamenti hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bosh boshqarmasi – respublika tashkiliy qo‘mitasi rahbarligida o‘tkaziladi.

5. Musobaqa belgilangan tartibda quyidagi joylarda o‘tkaziladi.
Jumladan:

birinchi bosqich – umumta’lim mакtablардаги sport obe’klarida o’tkaziladi.

ikkinsi bosqich – hududdagi sport maktabida yoki harbiy qism sport bazasida tuman (shahar) ta’lim muassasалари birinchiligi bosqichi;

uchinchi bosqich – hududdagi sport majmuasida yoki harbiy qism (dala-o’quv maydoni) bazasida viloyat birinchiligi bosqichi;

to’rtinchsi bosqich – tashkiliy qo’mita qaroriga asosan Mudofaa vazirligi tomonidan belgilangan joyda (harbiy qism, dala-o’quv maydoni va boshqa) respublika birinchiligi bosqichi o’tkaziladi.

6. Musobaqada jamoaviy 1, 2 va 3-o’rin g’oliblari faqat 10-11-sinflarda tahsil olayotgan “Vatan tayanchi” otryadlari a’zosi bo’lgan o’quvchi-ishtirokchilari o’rtasida aniqlanadi.

7. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar o’z harbiylashtrilgan kiyimi, emblemasi, jamoa bayrog’iga ega bo’ladi.

8. Musobaqani tayyorlash va o’tkazishda jangovar tayyorgarlik ofitserlari, hamda ChGBT va yoshlар bilan ishslash departamenti, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, harbiy tibbiy shifokorlar, O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansamblining mutaxassislari, MK “Vatanparvar” tashkiloti malakali mutaxassislari hamda 10-11-sinflarda o’qiyotgan “Vatan tayanchi” otryadlari a’zosi bo’lgan o’quvchilar ishtirok etadi.

9. Musobaqa davomida yuzaga kelgan muammolar tegishli tashkiliy qo’mita tomonidan hal etiladi.

Musobaqa jarayoni

20. Musobaqalar quyidagi yo’nalishlarda o’tkaziladi:

“Bilimdonlar” konkursi:

“Bilimdonlar” konkursi (Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahriddin Muhammad Bobur harbiy faoliyati, Markaziy Osiyo davlatchilik tarixi, O’zbekiston tarixi) kompyuterda «MY test» dasturi orqali 15 tadan 30 tagacha bo’lgan test savollarini topshirishadi.

Tanlovda har bir jamoadan 3 nafardan ishtirokchi qatnashadi (2 nafar o’g’il bola va 1 nafar qiz bola).

Ishtirokchilarning savollariga javob berish vaqtini va baholanishi «MY test» dasturi orqali amalga oshiriladi.

To’g’ri javob uchun «1» ball, noto’g’ri javob uchun «0» ball qo’yiladi. Bunda yuqori ball oлган jamoa g’olib bo’ladi.

“Vatan madhi” badiiy-havaskorlik tanlovi:

“Vatan madhi” tanlovi jamoalarning san’atkorlik mahoratlarini aniqlash bo’yicha o’tkaziladi. Bu tanlov asosiy musobaqalardan tashqari, kechki tadbirlar vaqtida o’tkaziladi. Bir vaqtning o’zida “Vatanparvarlar” yig’ini ishtirokchilari uchun madaniy-xordiq tadbiri sifatida tashkillashtiriladi.

Tanlovda jamoalar 5 nafardan kam bo’lmagan yoki to’liq tarkibda ishtirok etadilar.

Shartga ko’ra har bir jamoa o’zлari tug’ilib o’sgan qishloq, shahar, tuman, viloyat haqida qo’shiq tayyorlaydilar. Badiiy jamoadan 1-2 nafar ijrochi va 4 nafardan kam bo’lmagan jo’r bo’luvchi tarkib tuziladi.

Jamoalar qo'shiqni ijro etayotgan vaqtida monitorda qo'shiqqa mos video rolik namoyish etiladi. Videorolikda qo'shiqda madh etilayotgan qishloq, shahar, tuman, viloyatning tabiyati, ijtimoiy manzarasi, urf-odalari va qadriyatlar ko'rsatib berilishi zarur.

Tanlov ijrochilik, mahorat va video rolikning mantiqiy sifati bo'yicha baholanadi.

Tanlov alohida, harbiy-sport yo'nalişlaridagi natijalardan tashqari konkurs sifatidan o'tkaziladi.

"Smart sardor" ixtirochilik tanlovi:

Ushbu har bir jamoadan bir yoki uch nafardan iborat o'smir ishtirok etadi. Ishtirokchilar hakamlar hay'atiga o'zлari ixtiro qilgan robototexnika yoki loyihani nomoyish qiladi.

Tanlovnинг асосиј мақсади: yosh avlodda yuqori texnologiyalar sohasiga qiziqish uyg'otish, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish.

"Smart sardor" o'quvchi yoshlarni tajribaga ilhomlantiradi, amaliy o'rganish va jamoada ishslash ko'nikmalari orqali o'ziga ishonch, tanqidiy fikrlash, dizayn ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tanlov robototexnika sohasida ishtirokchilar tomonidan yaratilgan ishlanmalarni o'z ichiga oladi — jangovar vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolish yoki inson imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan sharoitlarda ishlaydigan, insonning yashash joyi bo'lмаган havo va suv muhitida ishlaydigan robotlar va robot qurilmalari modellari (masofadan boshqariladigan uchuvchisiz samolyotlar, suv osti kemalari, harbiy kemalar, kemalarni demontaj qilish); yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish va hokazo.

Robototexnika tanlovi qoidalari va shartlari

Jamoada "Vatan tayanchi" otryad a'zolari ishtirok etadi.

Loyihani himoya qilish jarayonida jamoa muammo, u uchun topilgan innovatsion yechim, muammoni qanday va kim bilan o'rtoqlashganligi haqida gapirishi va muammoni hal qilishda foydalaniladigan muhandislik yechimini ko'rsatishi kerak.

Himoyaga tayyorgarlik ko'rayotganda vaqtini quyidagicha taqsimlash tavsiya etiladi:

Salomlashish uchun 1 daqiqa (jamoat qadimotga tayyorgarlik ko'rayotganda, hakam jamoa haqida ko'proq ma'lumot olish uchun savollar beradi va yigitlar tanlovda ishtirok etishda qanday tajribaga ega);

Ischingizni (loyihangizni) himoya qilish va uning funksionalligini namoyish qilish uchun 5 daqiqa;

Hakamlarga loyiha bo'yicha savollar berish uchun 3 daqiqa (hakamlar o'z loyihasida jamoa taklif qilgan yechim, shuningdek, taqdimot davomida jamoa aniqlab bera olmagani fikrlar haqida ko'proq bilish uchun savollar berishadi).

III. Baholash mezonlari

Jamoat tanlovi loyihalari quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

Yaratish va foydalanish maqsadi;

Yangilik, o'ziga xosligi va dolzarbligi;

Samarali foydalanish algoritmi;

Ishtirokchilarda mustaqil ishlanganligi, tadqiqot faoliyati, samarali muloqot va tengdoshlar bilan hamkorlik qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratish;

Umumiy dizayn;

Model harakatchanligi;

Namoyishning etikasi va estetikasi;

Individuallik, jamoaviy uslub (tashqi ko‘rinish, forma).

Robototexnika tanloving hakamlar hay’ati 3 kishidan iborat bo‘lib, ulardan biri hakamlar hay’ati raisi hisoblanadi.

Har bir tanlov topshirig‘i ishlab chiqilgan mezonlar bo‘yicha hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Bu yo‘nalishda o‘rnlarni belgilash “Smart sardor” tanlovi nizomiga muvofiq baholanadi.

“Smart sardor” ixtirochilik tanlovi ishtirokchilari musobaqalarning umumiyligi natijalaridan tashqari, alohida o‘rin uchun bellashadilar.

“Turnikda tortilish” musobaqasi:

Bu shartda 5 nafar o‘g‘il bolalar ishtirok etadi.

Turnikda tortilish dastlabki holatdan – yuqoriga osilgan, qo‘llar, oyoqlar va gavda vertikal tekislikda to‘g‘rilangan, qo‘llar yelka kengligida, to‘piqlar birlashgan holatdan boshlanadi.

Ushbu mashqni bajarish uchun umumiyligi 4 daqiqa vaqt beriladi.

Tortilish vaqtida ishtirokchi quyidagilarga majbur:

- dastlabki holatdan to‘xtovsiz, iyakni turnikda o‘tkazib, gavdani to‘g‘ri holatida tortilish;

- qo‘llar to‘g‘ri holatga kelguncha osilib tushish;
- tebranishni o‘zi harakati bilan to‘xtatish;
- hakamlarga aniq ko‘rinishi uchun 0,5 soniyaga dastlabki holatni qayd etish;
- hakamni sanog‘ini eshitganidan so‘ng tortilish mashqini amalga oshirish.

Tortilish vaqtida ishtirokchi quyidagilar taqiqilanadi:

- mashq davomida kaftiga yopishadigan moddalar yoki ilgichlardan fodalanish;
- tortilish vaqtida yerdan, turnik ustunlaridan tayanch sifatida foydalanish;
- tortilishdan tebranish, tanani siltab harakat qilish, tanani to‘lqinsimon harakatlantirish usullarini qo‘llash;

- tirsaklarni navbat bilan bukish;
- bir qo‘lda osilib turish;
- kaftni bog‘lambilan bog‘lash yoki maxsus barmoqsiz qo‘lqoplardan foydalanish;
- kaftni ochgan holatda bo‘g‘imda osilib turish;
- mashqni bajarish vaqtida o‘zboshimchalik bilan to‘xtash, qo‘llarni dam oldirish.

Yakka tartibdagisi ko‘rsatkichlar hakam tomonidan, ishtirokchilarni tortilish bo‘yicha eng ko‘p miqdori orqali belgilanadi. Bir va undan ortiq ishtirokchilarning natijalari tenglashib qolgan taqdirda, hakam tomonidan qo‘sishimcha imkoniyat berish orqali aniqlanadi.

Jamoaviy natija jamoadagi ishtirokchilarning umumiyligi natijalarini qo‘silishi bilan hisoblanadi. Bir va undan ortiq jamoalar natijalari teng bo‘lib qolgan hollarda, hakam tomonidan qo‘sishimcha tortilish uchun imkoniyat beriladi.

Orqa bilan yotgan holatdan tanani ko‘tarish (press):

Musobaqaning bu yo‘nalishidagi bellashuv jamoalardagi qizbola ishtirokchilar uchun tashkil etiladi.

Mashq 1 (bir) daqiqa davomida bajariladi.

Mashq dastlabki holatdan boshlanadi: gimnastik gilamchada osmonga qaragan holda, qo‘l kaftlari bir-biriga “qulf holda” bosh orqasida, tizzalar to‘g‘ri burchak ostida egilgan, oyoq uchi va tovoni yerga tekkan holda, yelka kuraklari yerga tekkan holda.

“Boshla!” komandasidan so‘ng tanani ko‘tarib, tirsaklarni tizzaga tekkazish va dastlabki holatga qaytish, yelka kuraklarini yerga to‘liq tekkazishni maksimal darajada, tez va ko‘p takrorlash amalaga oshiriladi.

Hakam sekundomer orqali vaqtini belgilaydi va mashqni bajarilishini sanaydi. Mashqni sanog‘i yelka kuraklari yerga tekkanda hisobga olinadi.

Mashq noto‘g‘ri bajarilganida hakam **“Hisoblanmaydi”** deb xatoni aytadi, yelka dastlabki holatga kelganidan so‘ng sanoqni boshqatdan, hisobga olingan raqamdan boshlaydi.

Bir sanoq uch marotaba takrorlanib, natija hisobga olinmagan holda **“To‘xta!”** komandasi beriladi va mashq to‘xtatiladi.

Mashq davomida yo‘l qo‘yiladigan xatolar va ularning nomlanishi:

“Tegmadi” – ishtirokchini tirsagi tizzasiga yoki beli yerga tegmasligi;

“Fiksatsiya yo‘q” – ishtirokchi dastlabki holatda yelka kuragi yerga to‘liq tegmasligi;

“Qo‘l ochiq” – ishtirokchining kafti qulf holatida emasligi.

Natija 1 (daqiqa) davomida eng ko‘p marotaba natijaga qarab belgilanadi.

Natijalar ikki va undan ortiq qatnashchilarda teng bo‘lib qolganda, qo‘shimcha imkonyat berish orqali aniqlanadi.

“Merganlar bellashuvi”

Musobaqada ishtirokchilar TOZ-8 rusumli yoki pnevmatik quroldan maxsus belgilangan nazorat otish mashqini bajaradi.

Har bir jamaa musobaqaga mezbonlik qilayotgan harbiy okrug tomonidan qurollar bilan ta‘minlanadi. Jamoalarga o‘zлari bilan quroл va o‘q-dori olib kelish **taqiqilanadi**.

Musobaqada har bir jamoadan 2 nafardan ishtirokchi qatnashadi (1 nafar o‘g‘il bola va 1 nafar qiz bola).

Musobaqa quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

har bir ishtirokchi mashqni navbat bilan yotgan holda bajariladi;

dastlab ishtirokchilar 3 dona o‘q-dori bilan nazorat otishni amalga oshiradi;

keyingi navbatda ishtirokchilar 10 dona o‘q-dori bilan sinov otishni bajaradi. Sinov otish natijalari asosiy hisoblanadi.

Ishtirokchilar 50 metr masofadagi 2-raqamli sport nishonga o‘q otadi. Otish vaqtin cheklanmagan. Sinov sharti bo‘yicha 10 dona o‘q-dori bilan bajarilgan mashq ballariga ko‘ra ishtirokchilar o‘rnini aniqlanadi.

Mashq faqat kunduzi, jihozlangan tirda bajariladi.

Otish jarayonida otuvchining aybi bo‘lmagan to‘xtalishlardagi va texnik sabablarga ko‘ra otilmagan o‘q-dorilar hakamning ruxsat bilan boshqasiga almashtiriladi. Otish natijalarini ko‘rish uchun musobaqa hakami va o‘q otishni bajargan ishtirokchilarga ruxsat beriladi.

“Harbiylashtirilgan estafeta”

Harbiylashtirilgan estafeta bahslarida ishtirokchilar AK-74 rusumli qurolni to‘liqsiz yoyish va yig‘ish, gazga qarshi niqobni kiyish va o‘q-dorilar qutisini yelkaga ko‘targan holda yugurish.

Har bir shart oralig‘ida 25 metrga yugurish sharti bajariladi.

Ushbu shartda 4 nafar ishtirokchi qatnashadi.

Musobaqa shartlari dala kiyimida, yuqori qo‘njli botinkada bajariladi.

Musobaqa futbol maydoni yugurish yo‘lagi yoki boshqa bir tekis hududda o‘tkaziladi.

Shart quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

start berilgach hakam tomonidan sekundomer bosiladi, har bir jamoa ishtirokchilarining dastlabki vakillari AK-74 rusumli qurolni «Qurol orqaga» holatiga oladi va mashq uchun ajratilgan boshqa AK-74 rusumli qurolni noto‘liq qismlarga yoyishadi (o‘qdon yechilib qurol saqlagichdan olinadi, zatvor orqaga tortilib o‘qsizlantirish uchun otish tepkisi bosiladi; stvol qutisi qopqog‘i yechiladi;

qaytaruvchi mexanizm yechiladi; zatvor ramasi yechiladi; zatvor zatvor ramasidan ajratiladi; gaz trubkasi yechiladi; shompol olinadi; penal qundoqdan chiqariladi) va 25 metr masofaga yuguradi hamda orqasiga ilingan AK-74 qurolini keyingi nuqtadagi jamoasining navbatdagi a’zosiga topshiradi.

Navbatdagi ishtirokchi bahslarga qurolni qo‘liga olganidan so‘ng qo‘shiladi va gazga qarshi niqobni kiyishga kirishadi.

Hakam gazga qarshi niqobni to‘g‘ri va to‘liq kiyilganini tasdiqlagach, ishtirokchi qurolni orqasiga holatiga oladi va 25 metrga gaz niqobini kiygan holda yuguradi, masofa bosib o‘tilgach qurolni keyingi ishtirokchiga topshiradi.

Qurolni olgan navbatdagi ishtirokchi qurolni orqasiga olib, 10 kg og‘irlikdagi o‘qdori qutisini ko‘krak qafasi balandligiga ko‘targan holda 25 metrga yuguradi va belgilangan chiziqqa yetib kelgach qurolni keyingi ishtirokchiga beradi.

Mazkur ishtirokchi qurolni orqaga holatiga olib, mashq uchun ajratilgan noto‘liq yoyilgan AK-74 rusumli qurolni to‘liq yig‘adi (gaz trubkasi o‘rnataladi; zatvor zatvor ramasiga joylanadi; zatvor ramasi qurol qutisiga o‘rnataladi; qaytaruvchi mexanizm o‘rnataladi; stvol qutisi qopqog‘i qo‘yiladi; shompol joylashtiriladi; penal qundoqga joylanadi; otish tepkisi bosilib, qurol saqlagichga qo‘yiladi; o‘qdon qurolga o‘rnataladi) va oqasidagi qurolni qo‘liga olgan holatda 25 metr masofaga yuguradi va marra chizig‘ini kesib o‘tadi.

Ishtirokchilar musobaqa shartlarini to‘liq bajarib marraga yetib kelgach hakam tomonidan sekundomer to‘xtatiladi. Jamoa natijasi barcha ishtirokchilarning ko‘rsatgan vaqt bilan hisoblanadi.

Musobaqani o‘tkazish tartibiga ko‘ra futbol maydoni yugurish yo‘lagi (yoki boshqa tekis hudud)ning har 25 metrida estafeta shartini bajarish bo‘yicha quyidagi nuqtalar jihozlanadi: birinchi nuqtada - AK-74 rusumli qurolni noto‘liq qismlarga yoyish joyi; ikkinchi nuqtada - gazga qarshi niqobni kiyish joyi; uchinchi nuqtada – o‘q-dori qutisi bilan yugurish joyi; to‘rtinchi nuqtada - AK-74 rusumli qurolni to‘liq yig‘ish joyi.

AK-74 rusumli qurolni noto‘liq qismlarga yoyish yoki yig‘ishni bajarish vaqtida ketma-ketlik tartibi o‘zgartirilishiga **ruxsat beriladi**.

Natijasi bo‘yicha musobaqa shartlarini to‘liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan jamoa estafeta g‘olibi hisoblanadi.

“Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish”

Bosh hakamning «Olg‘a» buyrug‘iga ko‘ra jamoaning 1 (bir) nafar ishtirokchi yelkasida tibbiyot sumkasi bilan 50 (ellik) metr masofaga yugurib boradi. U yerda yotgan jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam, ya’ni «O‘ng oyog‘ining son qismida tashqi qon ketishi.

Jabrlanuvchining o‘ng oyoq son sohasi jgut (turniket) bog‘lanadi va bog‘langan vaqtin, sanasi yozib qo‘yiladi». Jabrlanuvchini orqasi bilan yotqizib, 25 (yigirma besh) metr masofaga yotgancha sudrab olib keladi. Barcha jarayonlar tibbiyot xodimlari tomonidan nazorat qilinadi.

Shart sifatlari va to‘g‘ri bajarilmagunga qadar hakamlar shart bajarilayotgan nuqtada ishtirokchilarni ushlab turadi.

Natijasi bo‘yicha musobaqa shartlarini to‘liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan jamoa ushbu shart g‘olibi hisoblanadi.

“Safda qo‘sishq aytish”

Jamoa (muxlislar bilan bиргаликда) a’zolari safda, shaxdam qadamlar bilan yurgan holda harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi qo‘sishqlarni ijro etadilar. Ushbu shartda chiroqli yurishlar bilan mazmunli va jarangdor ovozda qo‘sishq aytgan jamoa 8-10 ball, saf yurishlar bir xil bo‘lмаган va jarngdor ohangda qo‘sishq aytмаган jamoa 5-7 ball, saf yurishida pala-partish harakat qilgan va past ovozda, jo‘r bo‘lib aytмаган jamoa 4 ballgacha baholanadi. Belgilanmagan va tasdiqlanmagan namunadagi saf qo‘sishqlarini aytgan jamoaga 0 ball qo‘yiladi. Yuqori ball olgan jamoa g‘olib bo‘ladi.

Arqon tortish musobaqasi

Arqon tortish musobaqasida jamoadan 7 (yetti) nafar o‘smir ishtirok etadi. Musobaqa ishtirokchilarining oyoq kiyimlarining tag qismiga temir tishli qo‘sishimcha jihozlar o‘rnatish taqiqlanadi.

Musobaqaning dastlabki holatida jamoalar arqondagi belgini maydondagi markaziy chiziqqa to‘g‘rilangan holatida ushlab turadilar. Arqonda markaziy va ikkita chegaralovchi belgi qo‘yiladi. Musobaqa hakamning komandasi bilan boshlanadi.

G‘olib jamoa qaysi tomondagi chegaralovchi belgi maydonning markaziy chizig‘idan o‘z tomoniga tortib o‘tkazib olishi bilan aniqlanadi.

Bellashuv uch marotaba o‘tkaziladi, ikki marta g‘olib bo‘lgan jamoa musobaqa g‘olibi hisoblanadi.

Jamoalarning ishtiroki qur‘a tashlash orqali belgilanadi.

VII-bob. Musobaqada jamolarning joylashuvi va ovqatlanishi

21. Jamoalarning joylashuvi harbiy qism va muassasa bazasida joylashtiriladi. Mazkur ishlar «Yoshlar daftari» jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan, harbiy okrug qo‘mondonlari va harbiy-ma’muriy sektor rahbarlari bilan bиргаликда amalga oshiriladi.

22. Jamoalarning ovqatlanishi «Yoshlar daftari» jamg‘armalari mablag‘lari va hududiy harbiy-ma’muriy sektorlarning rahbarlari bilan kelishuv asosida qoplab beriladi hamda harbiy qism, muassasa (dala o‘quv maydoni) hududida amalga oshiriladi.

23. «Yoshlar daftari» jamg‘armalari mablag‘lari va hududiy harbiy-ma’muriy sektorlarning rahbarlari bilan kelishuv asosida ishtirokchilarning jamoat transportlarida harakatlanishi ta’milnadi.

24. Musobaqalarni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar (yotoqxona, oziq-ovqat, kiyim-kechak, transport, kommunal, sovrindorlarni taqdirlash va boshqalar)

«Yoshlar daftari» jamg‘armalari mablag‘lari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

IX-bob. Yakuniy qoidalar

27. Mazkur nizomga musobaqaning tegishli bosqichiga tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

28. Davlat va nodavlat tashkilotlar musobaqada homiylik qilishlari mumkin.

29. Mazkur musobaqaning birinchi va ikkinchi bosqichlari bilan bog‘liq barcha hujjatlar (materiallar) harbiy okruglarda (mudofaa ishlar boshqarmalarida), yakuniy (respublika) bosqichi bo‘yicha hujjatlar (materiallar) Mudofaa vazirligi jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasida saqlanadi.

30. Musobaqa yakunida kotib tomonidan bayonnomma rasmiylashtiriladi va bayonnomani hay’at a’zolari imzolaydi, hay’at raisi tasdiqlaydi. Har bir sport turining natijalar qaydnomasi hakamlar tomonidan imzolanadi.

31. Musobaqa hay’ati a’zolariga (hakamlariga) jamoalarning kattalari va ishtirokchilar tomonidan yozma yoki og‘zaki ravishda apellyatsiya berilishi mumkin. Ushbu apellyatsiya asoslangan va musobaqaning mazkur Nizom shartlari doirasida bo‘lishi hamda musobaqa sharti yakunlanganidan so‘ng, bir soatgacha berilishi lozim.

32. Musobaqada ishtirok etuvchi umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 10-11-sinflarida tahsil olayotgan «Vatan tayanchi» otryadlari o‘quvchilari (har bir jamoadan 7 nafar o‘g‘il bolalar va 3 nafar qiz bolalar), har bir mакtab jamoasiga 1 nafar katta (jamoा kattasi) va 2 nafargacha murabbiylardan tashqari, ya’ni agar jamoa tarkibida belgilangan tarkib sonidan ortiqcha ishtirokchilar kelganligi aniqlansa musobaqada ishtirok etishga **ruxsat etilmaydi**.

33. Hay’at a’zolari (hakamlar) olingan apellyatsiyani qisqa vaqt ichida ko‘rib chiqib, zudlik bilan yoki 1 soatgacha vaqt mobaynida apellyatsiya beruvchiga javob berishi lozim. Hay’at raisi apellyatsiya bo‘yicha yakuniy qaror chiqaruvchi organ hisoblanadi.

**“Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqasini
o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom chegaraoldi shahar va tumanlardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida (keyingi o‘rinlarda — maktab) tahsil olayotgan, “Yosh chegarachilar” klublarining (keyingi o‘rinlarda — klub) chaqiriqqacha tayyorgarlik yoshidagi (10-11-sinf) a’zolari o‘rtasida uch bosqichli musobaqani o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Musobaqa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, davlat manfaatlari va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyorlash, jismonan sog‘lom va ma’nан yetuk yosh avlodni kamol toptirish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, o‘z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik hissini shakllantirish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Musobaqa o‘quvchilarni harbiy kasbga va oliv harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga yo‘naltirish hamda bosqichma-bosqich tayyorlab borish uchun xizmat qiladi.

4. Musobaqa quyidagi uch bosqichda o‘tkaziladi:

tuman (shahar) bosqichi (keyingi o‘rinlarda — tuman bosqichi) — musobaqani o‘tkazish bo‘yicha tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitasi tomonidan;

viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) bosqichi (keyingi o‘rinlarda — viloyat bosqichi) — viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) tashkiliy qo‘mitasi tomonidan;

respublika bosqichi — respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan.

Tuman (shahar), viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) tashkiliy qo‘mitalari tarkiblari tegishlicha tuman (shahar) va viloyat hokimlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi) tomonidan musobaqa o‘tkaziladigan yil 1-fevralga qadar tasdiqlanadi.

5. Quyidagilar tashkiliy qo‘mitalarning vazifalari hisoblanadi:

musobaqa o‘tkaziladigan joy va sanani belgilash;

hakamlar hay’ati tarkibi va appellatsiya komissiyasi a’zolari ro‘yxatini tasdiqlash;

musobaqaning mazkur Nizom talablari asosida o‘tkazilishini ta’minalash;

musobaqa natijalari va g‘olib bo‘lgan jamoa a’zolari ro‘yxatini yuqori turuvchi tashkiliy qo‘mitaga taqdim etish;

musobaqa jarayonlarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.

6. Musobaqa ushbu Nizomga ilovadagi sxemaga muvofiq tashkil etiladi.

2-bob. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalarni shakllantirish va musobaqada qatnashish uchun ariza taqdim etish

7. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoa o‘quv yilining boshida klubning musobaqa shartlari bo‘yicha yuqori natija ko‘rsatayotgan, chaqiriqqacha tayyorgarlik yoshidagi (10-11-sinf) 10 nafar a’zosidan (8 nafar o‘g‘il, 2 nafar qiz) iborat tarkibda tuziladi.

Klub sardori jamoa sardori etib, klub rahbari jamoa murabbiysi etib belgilanadi.

8. Maktab direktori tomonidan jamoaning musabaqada ishtirok etishi uchun tashkiliy qo‘mitaga musobaqa o‘tkazish sanasidan o‘n kun avval quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

jamoa a’zolarining ro‘yxati (muhrlangan fotosuratlari bilan);

jamoa a’zolari va murabbiysining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari nusxalari (biometrik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta yoki tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma nusxasi);

hududiy oilaviy poliklinika yoki qishloq vrachlik punktlaridagi maktablarga biriktirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan berilgan F-086-u shakldagi tibbiy ma’lumotnomasi;

o‘qotar quroldan foydalanish vaqtida xavfsizlik qoidalalariga rioya etish haqidagi yo‘riqnomasi bilan tanishganligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi.

9. Hujjatlari belgilangan tartibda va muddatda taqdim qilinmagan yoki hujjatlarda noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatilgan jamoaning musobaqada ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Musobaqaning o‘tgan yilgi respublika bosqichida 1, 2 va 3-o‘rinlarni egallagan, shuningdek joriy yilda boshqa harbiy-vatanparvarlik musobaqalarida qatnashgan jamoalarning musobaqada ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

10. Tegishli tashkiliy qo‘mitaga taqdim etilgan ro‘yxatdagi jamoa a’zolarining almashtirilishiga faqat tashkiliy qo‘mitaning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

3-bob. Musobaqani tashkil qilish va o‘tkazish tartibi

11. Musobaqa quyidagi vaqtida o‘tkaziladi:

tuman bosqichi — mart-aprel oyalarida;
viloyat bosqichi — aprel oyining uchinchi o‘n kunligida;
respublika bosqichi — may oyining ikkinchi o‘n kunligida.

12. Musobaqa bosqichlarini o‘tkazishning aniq sanasi va joylari tegishli tashkiliy qo‘mitalar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Tashkiliy qo‘mitasi a’zolarining taklifiga muvofiq musobaqani o‘tkazish muddati va joyiga o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

13. Musobaqalarni o‘tkazish jarayoniga DXX ChQ harbiy qismlari qo‘mondonligi umumiy rahbarlik qiladi.

14. Musobaqada jamoalar quyidagi shartlar bo‘yicha ishtirok etadi:
jamoalarning saf tayyorgarligi ko‘rigi;
harbiy varaqalar, albom, vimpel, jamoaning ramziy bayrog‘i va nomi yozilgan taxtacha ko‘rigi;

jamoalarning maxsus formasi ko‘rigi;
umumta’lim fanlari bo‘yicha test sinovi;
Kalashnikov avtomatini noto‘liq qismlarga ajratish;
Kalashnikov avtomatini yig‘ish;
o‘g‘il bolalar 1000 metrga, qizlar 100 metrga yugurish;
turnikda tortilish;
azimut bo‘yicha harakatlanish;
granata uloqtirish;
zaharlangan hududdan o‘tish;
to‘sqliar yo‘lagidan o‘tish;
tibbiy yordam ko‘rsatish;
o‘q-dorilarni tashish;
Kalashnikov avtomatidan o‘q otish;
Kalashnikov avtomatining maketi ko‘rigi.

15. Musobaqa shartlarini bajarish tartibi va baholash mezonlari DXX ChQ, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining qo‘shma qarori bilan tasdiqlanadi.

16. Hakamlar hay’ati musobaqaning har bir bosqichida DXX ChQ, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda ushbu tashkilotlarning tegishli hududiy bo‘linmalari vakillaridan iborat tarkibda tegishli tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.

17. Hakamlar tomonidan musobaqani o‘tkazish vaqtida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘rganib chiqiladi va bartaraf etiladi.

18. Musobaqaga o‘z vaqtida yetib kelmagan jamoaning musobaqada ishtirok etishmasligi hakamlar hay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi.

19. Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etilgan jamoa a’zolari ro‘yxatiga kiritilmagan mifik o‘quvchisi musobaqada ishtirok etayotganligi aniqlangan taqdirda, ushbu jamoa musobaqadan chetlashtiriladi. Bunday holat musobaqa tugallangandan so‘ng aniqlangan taqdirda, jamoaning natijasi bekor qilinadi hamda sovrinli o‘rin ushbu jamoa natijasidan keyingi natijani qayd etgan jamoaga beriladi.

20. Jamoa murabbiysi yoki a’zolari tomonidan mazkur Nizom talablari buzilgan hollarda tashkiliy qo‘mita qaroriga asosan ushbu jamoa musobaqadan chetlashtiriladi.

21. Musobaqaning natjalari va keyingi bosqichga o‘tgan jamoalar to‘g‘risida tashkiliy qo‘mitalar o‘zidan yuqori turuvchi tashkiliy qo‘mitaga uch kun muddat ichida axborot beradi.

22. Viloyat bosqichida 1-o‘rinni egallagan jamoa joylashgan hududdagi DXX ChQ harbiy qismidan bir nafar harbiy xizmatchi respublika bosqichida hamrohlik qiladi.

23. Musobaqa har bir bosqichining 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan jamoalar musobaqaning tantanali yopilish marosimida tashkiliy qo‘mita tomonidan diplom, kubok va sovg‘alar bilan mukofotlanadilar.

24. Musobaqa har bir bosqichining “Eng ilg‘or” nominatsiyasi g‘oliblari tashkiliy qo‘mita tomonidan alohida sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

4-bob. Jamoa murabbiysi, musobaqa ishtirokchilari va hakamlarning majburiyatları

25. Jamoalar murabbiylari, musobaqa ishtirokchilari va hakamlar ushbu Nizom talablari va odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilishlari shart.

26. Jamoalar murabbiylari hakamlar faoliyatiga aralashishga haqli emas. Ular ishtirokchilarning musobaqa o‘tkaziladigan hududda hamda uning tashqarisida bo‘lgan vaqtdagi xatti-harakatlari uchun javobgardirlar.

27. Musobaqa ishtirokchilari musobaqa jarayonida xavfsizlik qoidalariga hamda musobaqa o‘tkaziladigan hududda belgilangan tartib-qoidalarga qat’iy rioya qilishi, shuningdek, u erdag‘i jihozlarga ziyon yetkazmasligi shart.

28. Jamoalar murabbiylari va DXX ChQ harbiy qismlarining vakillari jamoa a’zolarining xavfsizligini ta’minlashga mas’uldirlar.

5-bob. Tashkiliy qo‘mitalar a’zolarining vazifalari

29. Quyidagilar DXX ChQ Qo‘mondonligi va harbiy qismlarning vazifalari hisoblanadi:

klublarda mashg‘ulotlar o‘tkazilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga har tomonlama ko‘maklashish (faqat harbiy qismlar);

klub a’zolari bilan sifatli mashg‘ulotlar o‘tkazish va musobaqalarga jiddiy tayyoragarlik ko‘rish (faqat harbiy qismlar);

musobaqa o‘tkazish joylarini tanlash, tayyorlash va barcha zarur moddiy-texnik vositalar bilan ta’minlash;

musobaqaning respublika bosqichi ishtirokchilarini dala o‘quv maydoni uchun dala kiyimi bilan ta’minlash (faqat DXX ChQ Qo‘mondonligi);

musobaqaning respublika bosqichi ishtirokchilarini yotoqxona va oziq-ovqat bilan ta’minlash;

musobaqaning viloyat bosqichi ishtirokchilari uchun tushlik tashkil etish (faqat harbiy qismlar);

musobaqaada 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan jamoalar uchun sovg‘alar ajratish;

Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda musobaqaning viloyat va respublika bosqichi o‘tkaziladigan obyektlarni bayramona bezatish hamda musobaqaga mos ko‘rgazmali materiallar bilan ta’minlash;

musobaqaning respublika bosqichida g‘oliblarni taqdirlash marosimining tantanali o‘tkazilishini ta’minlash (faqat DXX ChQ Qo‘mondonligi);

musobaqaada hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalb qilish;

musobaqa jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish.

30. Quyidagilar Yoshlar ishlari agentligi hamda uning hududiy bo‘linmalarining vazifalari hisoblanadi:

klublarda mashg‘ulotlar o‘tkazilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga ko‘maklashish (faqat hududiy bo‘linmalar);

musobaqaning barcha bosqichlarini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish choralarini ko‘rish;

musobaqaning respublika bosqichiga yetib kelgan ishtirokchilar harbiy qismiga joylashtirilishidan avval bir marta tushlik tashkil qilish (faqat Agentlik markaziy apparati);

musobaqaning respublika bosqichiga yetib kelgan ishtirokchilarni musobaqa o‘tkaziladigan joyga olib borish va musobaqa tugagandan so‘ng olib ketish, shuningdek,

ishtirokchilar uchun diqqatga sazovor joylarga sayohatlar tashkil etishga avtotransport vositalarini ajratish (faqt Agentlik markaziy apparati);

musobaqaning viloyat va respublika bosqichi o'tkaziladigan obyektlarni bayramona bezatish hamda musobaqaqaga mos ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlashga DXX ChQga har tomonlama ko'maklashish;

musobaqaning viloyat va respublika bosqichlariga sport turlari bo'yicha xalqaro musobaqalar g'oliblarini jalg etib, ular ishtirokida davra suhbatlari hamda uchrashuvlar tashkil etish;

musobaqaning respublika bosqichida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalar uchun sovg'alar ajratish;

musobaqada hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalg qilish.

31. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va mакtab ta'limi vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalarining vazifalari hisoblanadi:

klublarda mashg'ulotlar o'tkazilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga har tomonlama ko'maklashish (faqt hududiy bo'linmalar);

club a'zolari bilan sifatli mashg'ulotlar o'tkazilishi hamda musobaqalarga jiddiy tayyorgarlik ko'rilishini ta'minlash (faqt hududiy bo'linmalar);

hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o'quvchilarni ommaviy ravishda musobaqalarga jalg etish;

musobaqaning barcha bosqichlari uchun umumta'lim fanlari (tarix, ona tili va adabiyot, matematika, fizika, ingliz tili, geografiya, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari) bo'yicha test savollarini tayyorlash;

musobaqada hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalg qilish;

Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda musobaqaning respublika bosqichi ishtirokchilarini kutib olish va kuzatish (faqt vazirlik markaziy apparati);

musobaqaning respublika bosqichida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalar hamda ushbu jamoalarning murabbiylari uchun sovg'alar ajratish (faqt vazirlik markaziy apparati).

32. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalarining vazifalari hisoblanadi:

musobaqa o'tkaziladigan joylarda kerakli dori-darmon va tibbiy uskunalar bilan jihozlangan tez tibbiy yordam brigadalarining navbatchiligini tashkil etish;

musobaqada hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalg qilish.

Oldingi tahrirga qarang.

33. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalarining vazifalari hisoblanadi:

(33-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-yanvardagi 25-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 09/24/25/0036-son)

musobaqaning viloyat va respublika bosqichining tantanali ochilish hamda yopilish tadbirlarida foydalanish uchun zarur bo'ladigan ovoz kuchaytirgich va boshqa asbob-uskunalarini qonunchilikda belgilangan tartibda musobaqa o'tkaziladigan joyga olib borib o'rnatish;

musobaqaning viloyat bosqichi tantanali yopilish marosimiga qonunchilikda belgilangan tartibda badiiy havaskorlik jamoalari va san'atkorlarni jalg etish (faqt hududiy bo'linmalar).

34. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalarining vazifalari hisoblanadi:

musobaqaning barcha bosqichlari g'oliblari ishtirokida mahallalarda uchrashuvlar tashkil etish va mahallalarda musobaqa targ'ibotini olib borish;

"Mahalla" xayriya jamoat fondi bilan hamkorlikda musobaqaning respublika bosqichida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalar uchun sovg'alar ajratish (faqt vazirlik markaziy apparati).

35. Quyidagilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tuman (shahar) hokimliklarining vazifalari hisoblanadi:

Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda musobaqaning viloyat va respublika bosqichlarida ishtirok etuvchi jamoalarni maxsus kiyimlar bilan ta'minlash;

musobaqa o'tkaziladigan obyektlarni tayyorlashda DXX ChQga har tomonlama ko'maklashish;

musobaqaning tegishli bosqichida g'olib bo'lgan jamoalarning keyingi bosqichda ishtirok etishi uchun transport xarajatlarini qoplab berish;

musobaqada 1, 2 va 3-o'rnlarni egallagan jamoalar, ularning murabbiylari hamda faol ishtirokchilar uchun sovg'alar ajratish.

36. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati va uning hududiy bo'limlari DXX ChQ va harbiy qismlar murojaatiga asosan musobaqaning barcha bosqichlarida jamoalarning musobaqani o'tkazish joyiga kelish-ketishida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashadi.

37. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ DXX ChQning buyurtmalari asosida musobaqaning respublika bosqichi ishtirokchilarini musobaqa o'tkaziladigan joylarga kelish-ketish uchun respublika ichida harakatlanuvchi tezyurar va yo'lovchi poyezdlariga bepul chiptalar bilan ta'minlashda amaliy yordam beradi, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlarning va barcha yo'lovchi poyezdlarining SV, VIP vagonlari bundan mustasno.

38. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi va hududiy kengashlari quyidagilarni amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatadi:

klublarda mashg'ulotlar o'tkazilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish (faqat hududiy kengashlari);

musobaqada 1, 2 va 3-o'rnlarni egallagan jamoalar uchun diplom, kubok va medallar tayyorlash;

musobaqaning viloyat va respublika bosqichi o'tkaziladigan obyektlarni bayramona bezatish hamda musobaqaga mos ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlashga DXX ChQga har tomonlama ko'maklashish;

musobaqaning respublika bosqichiga yetib kelgan ishtirokchilarni musobaqa o'tkaziladigan joyga olib borish va olib kelish uchun mas'ullarni biriktirish (faqat Markaziy Kengash).

39. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi musobaqaning respublika bosqichida 1, 2 va 3-o'rnlarni egallagan jamoalar uchun sovg'alar ajratishda hamda musobaqaning tantanali yopilish tadbirini tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

40. Musobaqa natijalaridan norozi bo'lgan jamoalar uch ish kunida respublika tashkiliy qo'mitasiga yozma ravishda shikoyat qilish huquqiga ega.

Bunda shikoyat respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan shikoyat muallifi (mualliflari), shuningdek hakamlar hay'ati tarkibining kamida 50 foizi ishtirokida o'n besh ish kunida ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra shikoyatni qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

41. Musobaqani o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar tegishli vazirlik va idoralarning budjet hamda budgetdan tashqari mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

42. Musobaqani o'tkazishga doir hujjatlar DXX ChQning tegishli harbiy qismlarida saqlanadi.

43. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

NIZOM

1-§. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom harbiy-vatanparvarlik spartakiadasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Yosh gvardiyachi” harbiy-sport musobaqasini (keyingi o‘rinlarda musobaqa – deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazish tartibi hamda musobaqa o‘tkazilishida hamkorlik qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy kengashlarining (keyingi o‘rinlarda – tegishli vazirlik va idoralar deb yuritiladi) vazifalarini belgilaydi.

2. Musobaqa harbiy-vatanparvarlik spartakiadasi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xislatlarni shakllantirish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Musobaqani o‘tkazish bo‘yicha Respublika tashkiliy qo‘mita mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega.

2-§. Musobaqaning vazifalari

4. Musobaqaning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘quvchi yoshlarni Vatanga muhabbat, harbiy burchga sadoqat ruhida tarbiyalash, ular orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, Milliy gvardiya bo‘linmalarida xizmat qilishga qiziqtilish va bosqichma-bosqich tayyorlab borish;

o‘quvchi yoshlarda mardlik, jasurlik, shijoat, jasorat, qat’iyat, kuch-g‘ayrat, intizom, jamoatchilikka tayanish va boshqa tuyg‘ularni shakllantirish;

vatan taqdiri, yurt tinchligi va himoyasi yo‘lida bor salohiyati bilan mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni birlashtirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish;

yoshlarda yurtga sadoqat tuyg‘ularini kamolga yetkazish, ularni o‘z xalqiga, Vataniga va Prezidentiga sadoqat ruhida, Milliy gvardiyaning shonli va jangovar an‘analarining davomchilari etib tarbiyalash.

3-§. Jamoalarni shakllantirish

5. Musobaqada ishtirok etish uchun respublikadagi umumta’lim maktablar o‘quvchilar orasidan sakkiz nafar (9-11 sinf o‘quvchilar) jismonan sog‘lom, intellektual va intizom borasida eng faol o‘quvchilar orasidan jamoa shakllantiriladi. Shulardan bir nafari jamoa sardori etib belgilanadi. Shuningdek, jamoani boshqarish va ularga yo‘riqnomaga berib turish uchun bir nafar murabbiy va bir nafar yoshlar yetakchisi tayinlanishi mumkin.

6. Musobaqada O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligiga qarashli umumta’lim maktablarining jami 8 nafar (*5 nafar o‘g‘il va 3 nafar qiz*) o‘quvchilardan tashkil topgan jamoalar ishtirok etadi.

7. Musobaqada ishtirokchi jamoa a’zolari tashkiliy qo‘mita tarkibiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

jamoa a’zolarining maktab direktori tomonidan tasdiqlangan ro‘yxati.

ishtirokchilarning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjatlaridan nusxalar;

maktab direktori tomonidan musobaqada ishtirokchilar to‘g‘risidagi—ma’lumotnomasi (ishtirokchilarning muhrlangan fotosurati bilan);

musobaqaning barcha bosqichlarida ishtirokchilar ro‘yxati o‘zgarmasligi shart;

musobaqada ishtirok etish uchun talabnomalar (har bir ishtirokchining sog‘lomligini tasdiqlovchi sog‘liqni saqlash muassasasining muhri bilan tasdiqlangan tegishli hujjati);

8. Mazkur Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etmagan yoki hujjatlarida kamchiligi mavjud jamoalar musobaqada ishtirok etmaydi.

9. Jamoalarning musobaqada qatnashish to‘g‘risidagi talabnomalarini tashkiliy qo‘mitalar belgilagan muddatda qabul qiladi. Belgilangan muddatdan kechikkan jamoalarning talabnomalari qabul qilinmaydi.

10. Jamoalar o‘z maxsus kiyim-boshi, atributiga (vimpeliga) ega bo‘lishi shart. Jamoalarni maxsus kiyim-bosh bilan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Maktabgacha va maktab ta‘lim vazirligi hududiy boshqarmalari zimmasiga yuklanadi. Musobaqada chet el davlatlarining harbiy bo‘linmalari yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarining kiyim-boshlаридан foydalanilmaydi.

4-§. Musobaqani o‘tkazish bosqichlari

11. Musobaqa o‘tkazilishini ta‘minlash tegishli vazirlik va idoralar tomonidan hamkorlikda amalga oshiriladi.

12. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan belgilanadi va har yili to‘rt bosqichda o‘tkaziladi:

birinchi bosqich (maktab bosqichi) mart oyining birinchi dekasida;

ikkinchi bosqich (tuman bosqichi) mart oyining uchinchi dekasida;

uchinchi bosqich (viloyat bosqichi) aprel oyining ikkinchi dekasida;

to‘rtinchi bosqich (respublika bosqichi) may oyining birinchi dekasida o‘tkaziladi.

birinchi bosqich (maktab bosqichi) mart oyining birinchi dekasida o‘tkaziladi, bunda umumta‘lim maktabining 9-11 sinf o‘quvchilari ishtirok etadi.

ikkinchi bosqich (tuman bosqichi) mart oyining uchinchi dekasida o‘tkaziladi, unda musobaqaning birinchi bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan har bir umumta‘lim maktabidan bir dona jamoa ishtirok etadi.

uchinchi bosqich (viloyat bosqichi) aprel oyining ikkinchi dekasida o‘tkaziladi, unda musobaqaning ikkinchi bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoalar ishtirok etadi.

uchinchi bosqich yakuni bo‘yicha hududiy komissiya tarkibining bayonnomasi va g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoalarning mazkur Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarini may oyining 5 sanasiga qadar Milliy gvardiya markaziy devoniga taqdim etadi;

to‘rtinchi bosqich (respublika bosqichi) may oyining birinchi dekasida o‘tkaziladi, unda musobaqaning uchinchi bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoalar ishtirok etadi.

5-§. Tashkiliy qo‘mitalarning vazifalari

13. Hududiy va Respublika tashkiliy qo‘mitalari musobaqalarning tegishli bosqichlarini tashkillashtirish, o‘tkazish va umumiyy rahbarlikni amalga oshirish bo‘yicha mas’ul hisoblanadi. Mazkur qo‘mitalar musobaqa o‘tkazish joylarini belgilaydi va barcha o‘quv moddiy-texnik vositalar bilan ta‘minlash choralarini ko‘radi va nazoratni amalga oshiradi.

6-§. Musobaqada ishtirok etish tartibi

14. Musobaqa o‘tkazilishidan oldin jamoa a‘zolari va ularga hamrohlik qiluvchi shaxslarning ro‘yxati maktab rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

15. Musobaqada ishtirok etish uchun mакtab direktori tomonidan tasdiqlangan sakkiz nafer ishtirokchilar musobaqaning barcha bosqichlarida ishtirok etadi. Ularning sababsiz almashtirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

16. Musobaqada ishtirok etish uchun jamoa rahbari tomonidan tashkiliy qo‘mita rahbariga mazkur Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etadi.

17. Jamoalarning musobaqada foydalaniladigan anjomlarini sinovdan o‘tkazish bo‘yicha dalolatnomaga tuziladi va mazkur musobaqa shartlarining bajarilishi va baholanishiga mas’ul bo‘lgan hakamlar hay’ati tomonidan imzolanadi. Tekshiruv jarayonida, musobaqa shartlarini bajarishga yaroqsiz deb topilgan anjomlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

7-§. Hakamlar va ularning vazifalari

18. Tashkiliy qo‘mita tomonidan musobaqani oshkorlik, shaffoflik va haqqoniylig prinsiplariga rioya etgan holda o‘tkazilishini ta’minalash maqsadida tajribali hakamlarning ishtirokini ta’minalaydi.

19. Hakamlar tarkibi tashkiliy qo‘mitalar tomonidan musobaqa shartlariga muvofiq besh nafar tarkibdan iborat tajribali mutaxassislardan shakllantiriladi.

Musobaqaning respublika bosqichining barcha shartlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan tajribali mutaxassislarning (hakamlarning) ishtiroki ta’milanadi.

20. Musobaqa shartlarini baholashda hakamlar faoliyatiga aralashgan jamoa a’zolari va murabbiylar jarima ballari bilan jazolanadi.

21. Hakamlar tomonidan musobaqa jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatolar tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘rganib chiqilib, bu bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi.

8-§. Tartib - intizom choralar

22. Tanlangan jamoalar musobaqaga o‘z vaqtida yetib kelishlari shart. O‘z vaqtida yetib kelmagan jamoalarga hakamlar tomonidan jarima ballari beriladi, hatto musobaqadan chetlashtirish choralar ko‘rilishi mumkin.

23. Musobaqa qaydnomasiga kiritilganlardan tashqari musobaqada boshqa maktab va sinf o‘quvchilari ishtirok etayotganligi aniqlansa, mazkur jamoa mag‘lub deb topiladi va natijasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar o‘rin berilmaydi.

24. Musobaqa ishtirokchilari tomonidan belgilangan tartib-qoidalar, ya’ni kun tartibi hamda musobaqa tartiblarini buzganida mazkur jamoalarga nisbatan jarima ballari qo‘llaniladi. Ishtirokchilar tomonidan musobaqa o‘tkazish hududidagi mulk yoki foydalanishga berilgan jihozlarga moddiy ziyon yetkazilgan hollarda moddiy ziyonni qoplash tegishli tartibda amalga oshiriladi.

25. Jamoa a’zolari tomonidan mazkur Nizom talablari buzilgan hollarda ushbu jamoa to‘g‘risida Respublika tashkiliy qo‘mitasiga axborot beriladi va jamoani musobaqadan chetlatish masalasi ko‘rib chiqiladi.

9-§. Musobaqa shartlari va baholash mezonlari

26. Musobaqa shartlari quyidagilardan iborat:

bilimdonlar bellashuvi;

saf tayyorgarligi;

ko‘rgazmali qo‘l jangi chiqishi;

zaharlangan hududdan o‘tish;

o‘q-dorilarni belgilangan joyga yetkazish va o‘qdonga joylash;

kamondan otish;

suvali to‘sinq ustidan o‘tish;

kalashnikov avtomatini noto‘liq qismlarga ajratish va yig‘ish;

birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish;

turnikda tortilish.

27. Musobaqaning **birinchi sharti** - bilimdonlar bellashuvi.

Ushbu shartda jamoaning besh nafar a’zosi ishtirok etadi. Jamoa sardori tashkiliy qo‘mita tomonidan jamoalar ishtirokchilari uchun tayyorlangan maxsus konvertlar ichidan bittasini tanlaydi. Konvertlarda uchta savoldan iborat bilet bo‘ladi. Jamoaning istalgan ishtirokchisi savollarga javob berishi mumkin. Bu shartda qo‘sishma javoblar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi hamda har bir jamoadan faqat besh nafar ishtirokchi qatnashadi. Tayyorgarlik ko‘rish uchun 2 daqiqa va javob berish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi. Mazkur shart 10 balli tizimda baholanadi.

Savollar O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi, uning joylardagi boshqarmalari (bo‘limmalari) hamda Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy va hududiy Kengashlari hamkorligida (“Temur tuzuklari” – “O‘zbekiston” nashriyoti, 2018-yil; “Boburnoma” – “Fan” nashriyoti, 2018-yil;

“Jaloliddin Manguberdi” – “Yangiasr” nashriyoti, 2018-yil) mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyatini o‘zida mujassam etgan savollardan tuziladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savollar berilishi mumkin.

Musobaqa o‘tkaziladigan kundan bir kun avval bilet maxsus konvertga solinib, tashkiliy qo‘mitada muhrlangan holda saqlanadi. Savollarni tayyorlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar va tashkiliy qo‘mita a’zolari musobaqadan oldin savollarning oshkor bo‘lmasligi uchun javobgardir.

28. Musobaqaning **ikkinci sharti** - Saf tayyorgarligi.

1) Jamoalarning maxsus kiyim bosh ko‘rigi hisoblanadi.

Ushbu shartda jamoaning barcha a’zolari ishtirok etadi. Jamoaning formasi (shu jumladan, bosh kiyimi) ushbu musobaqa uchun maxsus tiktirilgan va barcha guruh a’zolari bir xil libosda bo‘lishlari shart.

Ustki kiyimdagagi shaxsini tasdiqlovchi 10 x 6 sm. hajmli namlikdan himoyalangan beydik ko‘krakning chap tomoniga taqiladi. Beydikda musobaqa qatnashchisining ism-sharifi to‘liq yozilgan 4 x 6 sm hajmli fotosurati yopishtirilgan va ta’lim muassasasining muhri bilan muhrlangan bo‘lishi lozim.

Baholar quyidagi hollarda bir ballga kamaytirilishi mumkin:

jamoa a’zolari bir xil kiyim-boshda bo‘lmasa;

jamoa belgilari mazkur nizomda belgilangan hajmda bo‘lmasa;

jamoa a’zolari sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilmagan bo‘lsa.

2) Jamoalarning safda turish va yurish usullaridan foydalangan holda, saf qo‘sinqilarini kuylab harakat qilishlari kerak.

Ushbu shartda jamoaning barcha a’zolari ishtirok etadi. Jamoa a’zolarining safda turishi va harakat qilishlari belgilangan qoidalarga muvofiq ekanligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, jamoa a’zolarining safda qo‘sinq aytib harakat qilishlari baholanadi. Mazkur harakatlar hakamlar hay’ati tomonidan kelishilgan holda 10 balli tizimda baholanadi.

Asosiy e’tibor, safda turish va yurish usullaridan to‘g‘ri foydalanim, jamoa bo‘lib harakatlanishlari hamda safda qo‘sinq aytib yurishiga qaratiladi. Bunda safdagagi qo‘sinq mazmuniga ko‘ra, harbiy-vatanparvarlik ruhi, tarbiyaviy jihat, jozibasi va safda ijro etish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

Qo‘ylgan ballar quyidagi hollarda bir ballga kamaytirilishi mumkin:

jamoanining tashqi ko‘rinishi hamda kiyim-boshlarida to‘g‘rilab bo‘lmaydigan kamchiliklar mavjud bo‘lsa;

safda turish va yurish usullarini noto‘g‘ri bajargan hollarda;

jamoa qo‘sinq aytib yurishda qo‘sinq aytib yurishga qo‘ylgan talablar buzilganda.

Mazkur shart O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi bilan belgilab qo‘ylgan talablar asosida o‘tkaziladi.

29. Musobaqaning **uchinchchi sharti** – jamoanining ko‘rgazmali qo‘l jangi chiqishi.

1) Jamoa tarkibida qo‘l jangi usullarini bajarish, shart ikki yo‘nalishda quroldan hamda qurolsiz holda namoyish etiladi. Jangovar chiqish vaqtida ishtirokchilarning hayoti hamda sog‘ligi uchun xavfli bo‘lgan chiqishlarni namoyish etish ta’qilanganadi.

Shartni baholashda jamoa usullarni bir xil uyg‘unlikda, jangovar ruh bilan bajarishlari, usullarni mushkulligi, xavfsizlik qoidalariiga rioya etgan holda xatosiz bajarganliklari hamda vaqt reglamentiga rioya etilganiga qarab hakamlar hay’ati tomonidan 10 balli tizimda baholanadi. Shartni bajarish uchun har bir jamoaga 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ko‘rgazmali chiqishlar jarayonida o‘quv qurol-yarog‘lardan (rezina va yog‘ochdan tayyorlangan qurol-yarog‘lardan) foydalanimishi shart.

30. Musobaqaning **to‘rtinchchi sharti** – Zaharlangan hududdan o‘tish.

O‘tkazish maydoni – uzunligi 40 metr, kengligi 30 metr (shartli ravishda).

Mazkur shartda har bir jamoadan 1 nafardan ishtirokchi qatnashadi, ishtirokchi qisqa vaqt ichida gazniqob, umumqo‘sishin himoya to‘plamini belgilangan tartibda to‘g‘ri kiyib, zaharlangan hududdan o‘tish va o‘tgandan so‘ng gazniqob va umumqo‘sishin himoya to‘plamini to‘g‘ri

belgilangan tartibda yechish lozim. Ishtirokchi zaharlangan hududdan o‘tgandan so‘ng, topshiriq bajarilgan deb hisoblanadi.

Topshiriqni hammadan tez bajargan ishtirokchi g‘olib deb topiladi. Shart hakamlar hay’ati tomonidan 10 balli tizimda baholanadi.

Shartni bajarishdagi xatolikning har biri uchun shartni 2 soniyadan jarima qo‘llaniladi.

Hakamlar hay’ati tomonidan shartni bajarish uchun lozim bo‘lgan gazniqob va umumqo‘sishimoya to‘plamini bir xil rusumda bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi. Shartni bajarish uchun bo‘linmalarda mavjud bo‘lgan jangovar ommaviy qirg‘in qurollaridan himoya qilish himoya vositalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

31. Musobaqaning **beshinchishi sharti** - o‘q-dorilarni belgilangan joyga yetkazish va o‘qdonga joylash.

Shartni bajarishda jamoaning 2 nafar ishtirokchilari qatnashadi. Shart 40 metr masofaga vazni 10 kg bo‘lgan o‘q-dorilar qutilarining maketini olib borish va stolda joylashgan 2 ta o‘qdonga 10 donadan o‘q-dorini joylashtirishdan iborat bo‘ladi.

Shartni bajarish qoidalari hakamlar tomonidan belgilanadi hamda g‘oliblar shartning bajarishga ketgan vaqtidan kelib chiqib, 10 balli tizimda baholanadi. Shartni bajarishdagi xatolikning har biri uchun shartni 2 soniyadan jarima qo‘llaniladi.

32. Musobaqaning **oltinchishi sharti** – kamondan otish.

Mazkur shartda har bir jamoadan 1 nafar ishtirokchi qatnashadi. Ushbu shartda 10 metr masofaga o‘rnatilgan kamondan otish sporti maxsus nishoni o‘rnatiladi va har bir jamaa ishtirokchisi 5 marotabadan kamondan otishni amalga oshiradi. Hakamning buyrug‘iga (ishorasiga) asosan, shartni bajarishga kirishadi.

G‘oliblarni aniqlash kamondan otish shartida aniqlik bilan eng ko‘p ball qo‘lga kiritganligiga qarab belgilanadi. Shartni bajarish tartibi va elementlariga rioya qilish bo‘yicha talablarni hay’at tarkibi belgilaydi va 10 balli tizimda baholaydi. Mazkur shart harbiy kiyim rusumida bajariladi.

Mazkur shart bo‘yicha baholashda ishtirokchilarning shartni to‘g‘ri bajarishi inobatga olinadi. Shartni bajarishdagi xatolikning har biri uchun jarima qo‘llaniladi.

33. Musobaqaning **yettinchishi sharti** - suvli to‘siq ustidan o‘tish.

Shart osma arqon orqali 20 metrli shartli suvli to‘siqdan o‘tib maxsus yukni (askar yuk xaltasidagi 5 kg yuk bilan) olib qaytish.

Ushbu shartda har bir jamoadan 1 nafardan ishtirokchi qatnashadi. Ishtirokchilar ketma-ketlikda kamida 15 metr uzunlikdagi shartli suvli to‘siq ustiga tortilgan arqon orqali qirg‘oqqa yetib borgandan so‘ng shart bajarilgan hisoblanadi.

Shartning bajarish qoidalari hakamlar tomonidan belgilanadi hamda g‘oliblar shartning bajarishga ketgan vaqtidan kelib chiqib 10 balli tizimda baholanadi. Shartni bajarishdagi xatoliklar hakamlar qaroriga ko‘ra 2 soniya jarima sifatida qo‘llaniladi.

Shartni bajarish vaqtida ishtirokchilarning xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tomonidan barcha choralar ko‘rilishi lozim.

Sport va jangovar tayyorgarlik shartlari bo‘yicha o‘tkaziladigan barcha harakatlardan oldin musobaqaga jalb etiladigan mutaxassislar tomonidan namuna sifatida ko‘rsatib beriladi va baholashda ushbu talablarga rioya etilishi inobatga olinadi.

34. Musobaqaning **sakkizinchishi sharti** - kalashnikov avtomatini noto‘liq qismlarga ajratish va yig‘ish.

Ushbu shart 40 metr masofadan iborat bo‘lgan yugurish yo‘lagida jamoaning 2 nafar a’zosi ishtirokida estafeta usulida bajariladi. Shartni bajarishda birinchi ishtirokchi belgilangan masofaga yugurib borib, avtomatni qismlarga ajratib qaytib dastlabki marradagi jamoadowshiga qo‘l urganidan so‘ng ikkinchi ishtirokchi yugurib borib, qismlarga ajratilgan qurolni yig‘ib dastlabki marraga yetib keladi. Shart hakamlar hay’atining barcha a’zolari tomonidan kelishilgan holda 10 balli tizimda baholanadi.

Mazkur shart bo‘yicha baholashda ishtirokchilarning shartni to‘g‘ri bajarishi va sarflagan vaqtin inobatga olinadi. Shartni bajarishdagi xatolikning har biri uchun shartni 2 soniya jarima qo‘llaniladi.

35. Musobaqaning **to‘qqizinchishi sharti** - birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

O'tkazish maydoni - uzunligi 40 metr. Mazkur shart jabrlangan shaxsga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va tibbiy punktga (shartli) olib borishdan iborat.

Jamoa a'zolaridan 3 nafari jabrlangan shaxsga (shartli ravishda harakati cheklangan 1 nafar jabrlanuvchiga) birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ya'ni shikastlangan joyini bog'lash va yaradorni ikki kishi yordamida belgilangan marraga olib borishdan iborat bo'ladi. Shartni bajarish qoidalari hakamlar tomonidan belgilanadi hamda g'oliblar shartning bajarishga ketgan vaqtidan kelib chiqib 10 balli tizimda baholanadi. Shartni bajarishdagi xatolikning har biri uchun shartni 2 soniya kechikib bajarilgan tarzida jarima qo'llaniladi.

36. Musobaqaning **o'ninchি sharti** - turnikda tortilish.

Ushbu shartda har bir jamoaning 2 nafar ishtirokchisi qatnashadi. Shart ishtirokchilarining turnikdagi jami tortilishi yozib boriladi va ularni qo'shgan holda umumiy xisob chiqariladi. Jamoaning turnikdagi jami tortilgan umumiy sonidan kelib chiqib hakamlar tomonidan 10 balli tizimda baholanadi. Shartni bajarish tartibi va qoidalariga rioya qilinishi hay'at tarkibi tomonidan nazorat qilinadi.

10-§. Yakuniy qoidalar

40. Mazkur Nizom qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi zimmasiga yuklatiladi.

**va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim, professional ta’limi muassasalari (keyingi o‘rinlarda – ta’lim muassasalari) o‘quvchilari o‘rtasida “Yosh qutqaruvchi” musobaqasini (keyingi o‘rinlarda – musobaqa) tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Musobaqa yoshlarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish, o‘zini o‘zi himoya qilish va boshqalarga ko‘mak berish borasidagi bilim hamda ko‘nikmalarini oshirish maqsadida o‘tkaziladi.

2. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish tartibi

3. Musobaqa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim, professional ta’limi muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida tashkil etiladi.

4. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat tashkiliy qo‘mita (1-ilova) zimmasiga yuklatiladi.

5. O‘quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik hususiyatlarini inobatga olgan holda musobaqalar umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim, professional ta’limi muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida alohida-alohida o‘tkaziladi.

6. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar tegishli ta’lim muassasasining “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublari (keyingi o‘rinlarda – klub) a’zolari orasidan 8 nafardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

7. Jamoalar faqatgina musobaqada qatnashayotgan ta’lim muassasasining 8 nafar (5 nafar o‘g‘il bola, 3 nafar qiz bola) o‘quvchisidan iborat tarkibida tuziladi.

Musobaqa shartlarini bajarish vaqtida jamoalar 6 nafardan (4 nafar o‘g‘il bola, 2 nafar qiz bola) iborat tartibda ishtirok etadi.

8. Musobaqada “Hayot xavfsizligi asoslari” va “Fuqaro muhofazasi” fanlari, shuningdek, yong‘in xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan klub a’zolari ishtirok etadi.

9. Musobaqada ishtirok etadigan jamoalarda quyidagi anjomlar va kiyimlar bo‘lishi shart:
qutqaruv anjomlari;
qutqaruvchi himoya kaskasi;
himoya qo‘lqopları;
karabin muftali jumrak, blok rolik (bittalik);
bir turdag‘i mavsumiy maxsus kiyim-bosh hamda sport kiyimi.

10. Musobaqa uch bosqichda, ya’ni tuman (shahar), hududiy (Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahar) hamda yakuniy (respublika) bosqichilarda o‘tkaziladi.

11. Harbiy-vatanparvarlik spartakiadasi doirasida musobaqani tashkil etish va o‘tkazish quyidagicha amalga oshiriladi:

tuman (shahar) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish fevral-mart oylarida amalga oshirilib, o‘tkazilish vaqtini va joyi 10 kun oldin tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitasi tomonidan belgilanib, hududdagi ta’lim muassasalariga ma’lum qilinadi. Tashkiliy qo‘mita tarkibiga hududdagi ta’lim muassasalarining “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klubи rahbarlari, Yoshlar ishlari agentligi Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo‘limlari mas’ul xodimlari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy kengashlari hamda boshqa mas’ul tashkilotlar vakillari kiritiladi;

hududiy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish har yili aprel oyida rejalashtirilib, o‘tkazilish vaqtini va joyi 15 kun oldin Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va muktab ta’limi vazirliklarining hududiy boshqarmalari, Yoshlar ishlari agentligi Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy kengashlari hamda boshqa mas’ul tashkilotlar vakillaridan iborat tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilanadi;

musobaqaning yakuniy bosqichi har yili may oyining yakuni yoki iyun oyining birinchi o'n kunligida tashkil etilib, o'tkazilish vaqt va joyi respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan o'zaro kelishilgan holda belgilanadi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan har yili yanvar oyida e'lon qilinadi.

12. Tashkiliy qo'mita musobaqalarni o'tkazish bo'yicha barcha tashkiliy masalalarni hal etadi, o'tkazilish vaqt va joyini belgilaydi. Hakamlar hay'ati tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi.

13. Musobaqada qatnashuvchi jamoa vakillari tashkiliy qo'mitaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

har bir ishtirokchining sog'lomligini bildiruvchi musobaqada ishtirok etish bo'yicha talabnama (har bir ishtirokchining sog'lomligini bildiruvchi tuman-shahar sog'lijni saqlash bo'limining muhri bilan);

fuqarolik pasporti, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi;

ta'lim muassasasining o'quvchisi ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomma yoki o'quvchilik guvohnomasi;

sog'lig'i to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomma (o'zi yashab turgan hududdagi oilaviy poliklinikada tibbiy ko'rikdan o'tganligini tasdiqlovchi);

3x4 hajmdagi fotosurat – 4 dona;

musobaqada foydalaniladigan anjomlarning sinovdan o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomma.

14. Musobaqada ishtirok etadigan jamoalarga qo'yiladigan talablar:

Jamoaning nomi va shiori.

Jamo a'zolari safda turgan holda o'z jamoalari nomini ayтиб tanishtiradilar va shiorlarini aytadilar. Bunda jamoa shiorining mazmun-mohiyati hamda uni ijro etish mahoratiga alohida e'tibor qaratiladi. Jamoaning shiorida insonlarning hayotini asrab qolish va qutqaruvchilarning xizmat faoliyati bilan bog'liq so'zlar aks etgan bo'lishi lozim.

Jamoa fotoalbumi.

Jamoalar o'zları bilan musobaqaning tuman va hududiy bosqichlaridagi ishtirokini hamda "Yosh qutqaruvchi" klubining faoliyatini aks ettiruvchi fotoalbumini olib kelishi kerak.

Jamoa vimpeli.

Jamoalar o'zları bilan "Yosh qutqaruvchi" klubining 40x30 sm hajmdagi vimpelini olib kelishi kerak.

Jamoaning maxsus ustki kiyimi.

Jamoaning ustki kiyimi (shu jumladan, bosh kiyimi) maxsus tiktirilgan, barcha guruh a'zolari uchun bir turda bo'lishi talab etiladi.

Ko'rgazma.

Ko'rgazmada "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klubining me'yoriy hujjatlari, klub a'zolari tomonidan erishilgan yutuqlarni o'zida aks ettirgan ("Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klub faoliyati bo'yicha diplom, faxriy yorliq, kubok va shu kabilar) ko'rgazmali vositalarni olib kelishlari talab etiladi.

Jamoa bayrog'i.

Jamoalar musobaqaning hududiy va respublika bosqichiga "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klubni bayroqlarini (o'lchami 90x120 sm, dastasi 210x5sm) olib kelishlari shart.

15. Xalqaro musobaqalarga Respublika bosqichida g'olib chiqqan jamolar g'oliblari orasidan saralanadi yoki g'olib chiqqan jamoa to'liq tarkibda yuboriladi.

3. Musobaqa shartlari va baholash mezonlari

16. Musobaqa **beshta shart** asosida o'tkaziladi:

Birinchi – "Savol-javob" shartida jamoa sardori tashkiliy qo'mita tomonidan jamoalar soniga mos ravishda tayyorlangan maxsus konvertlar ichidan bittasini tanlaydi. Konvertlarda oltita savoldan iborat bilet bo'ladi. Jamoaning har bir ishtirokchisi bittadan savolga javob berishi lozim. Bu shartda qo'shimcha javoblar berilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda har bir jamoadan faqat olti

nafar ishtirokchi qatnashadi. Tayyorgarlik ko‘rish uchun 5 daqiqa hamda javob berish uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Har bir savolga to‘liq javob berilsa 2-ball, to‘liqsiz javobga 1-ball hamda javob noto‘g‘ri bo‘lsa ishtirokchi 0-ball bilan baholanadi. Mazkur shartda barcha savollarga to‘g‘ri va to‘liq javob berilsa jamoa 12 ball bilan baholanadi.

Ikkinci – “Birinchi yordam ko‘rsatish” shartida jamoalar birinchi yordam ko‘rsatish (*oyoq, qo‘l yopiq (ochiq) singanda, jarohat oqibatida qon ketganda va yurak-o‘pka reanimatsiyasida birinchi yordam ko‘rsatish*) turlari bo‘yicha bellashadilar. Bu shartda vaziyatli topshiriqlarni bajarish uchun “shartli jabrlangan” sifatida jamoaning bir nafar ishtirokchisi va trenajyor-maneken jalg etiladi. Shart maxsus lentalar bilan chegaralangan hududda start va finish chiziqlari bilan belgilangan joyda o‘tkaziladi. Vaziyatli topshiriqlarni bajarish uchun stolda kerakli bo‘lgan birinchi yordam ko‘rsatish anjomlari joylashtirilgan bo‘ladi. Hakamlar ishtirokchilarning harakatlarini “jarimalar jadvaliga” muvofiq baholaydilar. Shart bajarilishi davomida hakamlar yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun hakamlar varag‘iga jarima ballarini belgilaydilar. Vaziyatli topshiriqlarni bajarish vaqt sekundomer bilan belgilanadi va hakamlar varag‘iga yoziladi. Barcha jarimalar vaqt bilan belgilanadi va shart yakunlanganidan so‘ng, shartga sarflangan vaqtga jarimalar vaqt qo‘shiladi. Shart yakunida umumiy vaqt eng kam bo‘lgan jamoa shart g‘olibi deb hisoblanadi.

Uchinchi – “Dor yo‘li va chodir” shartida har xil ko‘rinishda va balandlikda o‘rnatilgan dor yo‘llari orqaliy jamoalar arqonlar yordamida o‘tish hamda palatka yoyish bo‘yicha bellashadilar.

Bu shartda maxsus lentalar bilan chegaralangan hududda start va finish chiziqlari bilan belgilangan joyda o‘tkaziladi. Hakamlar ishtirokchilarning harakatlarini “jarimalar jadvaliga” muvofiq baholaydilar. Shart bajarilishi davomida hakamlar yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun hakamlar varag‘iga jarima ballarini belgilaydilar. Shartni bajarish vaqt sekundomer bilan belgilanadi va hakamlar varag‘iga yoziladi. Barcha jarimalar vaqt bilan belgilanadi va shart yakunlanganidan so‘ng, shartga sarflangan vaqtga jarimalar vaqt qo‘shiladi. Shart yakunida umumiy vaqt eng kam bo‘lgan jamoa shart g‘olibi deb hisoblanadi.

To‘rtinchi – “Yuqori qavatlarda ishlash” shartida jamoalar favqulodda vaziyatlarda harakat qilish jarayonida kerak bo‘ladigan mashqlarni (arqon bog‘lash usullari, ishg‘ol qilish narvonida o‘quv minorasiga ko‘tarilish, qutqaruv anjomlaridan maqsadli foydalanish) balandlikka ko‘tarilish, arqon bo‘ylab jumar yordamida yuqoriga ko‘tarilish va qaytib tushish) bajaradilar. Ushbu shartda jamoaning barcha ishtirokchilari qatnashadi. Bu shartda chegaralangan hududda start va finish chiziqlari bilan belgilangan joyda o‘tkaziladi. Hakamlar ishtirokchilarning harakatlarini “jarimalar jadvaliga” muvofiq baholaydilar. Shart bajarilishi davomida hakamlar yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun hakamlar varag‘iga jarima ballarini belgilaydilar. Shartni bajarish vaqt sekundomer bilan belgilanadi va hakamlar varag‘iga yoziladi. Barcha jarimalar vaqt bilan belgilanadi va shart yakunlanganidan so‘ng, shartga sarflangan vaqtga jarimalar vaqt qo‘shiladi. Shart yakunida umumiy vaqt eng kam bo‘lgan jamoa shart g‘olibi deb hisoblanadi.

Beshinchi – “Estafeta” shartida maxsus yong‘in o‘chiruvchilar va qutqaruvchilar estafetasi (4x100) bo‘yicha o‘tkaziladi. Ushbu shartda har bir jamoadan uch nafar o‘g‘il bola va bir nafar qiz bola ishtirokchilar qatnashadi. Mazkur shart “Yong‘in o‘chirish amaliy sporti bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish” qoidalari asosida o‘tkaziladi va baholanadi, shuningdek, ushbu shart o‘tkazilganda (yonish uchun mo‘ljallangan qorishma miqdori me’yordan kamroq qo‘llaniladi, alanga balandligi 20-30 sm.dan oshmasligi lozim).

Estafeta shartida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va ishtirokchilar xavfsizligini ta’minalash maqsadida har bir ishtirokchi maxsus kiyim bosh va anjomlar bilan ishtirok etishi shart. Maxsus kiyim bosh va anjomlar bilan ta’milanmagan jamoa mazkur shartga qo‘yilmaydi.

Xakamlar ishtirokchilarning harakatlarini “jarimalar jadvaliga” muvofiq baholaydilar. Shart bajarilishi davomida hakamlar yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun hakamlar varag‘iga jarima ballarini belgilaydilar. Shartni bajarish vaqt sekundomer bilan belgilanadi va hakamlar varag‘iga yoziladi. Barcha jarimalar vaqt bilan belgilanadi va shart yakunlanganidan so‘ng, shartga sarflangan vaqtga jarimalar vaqt qo‘shiladi. Shart yakunida umumiy vaqt eng kam bo‘lgan jamoa shart g‘olibi deb hisoblanadi.

17. Jamoalar tomonidan bajarilgan shartlar quyidagi tartibda jarima ballari beriladi:

T/r	Jarimalar	Jarima vaqtı soniya
Birinchi yordam ko‘rsatish sharti bo‘yicha:		
1.	Kon to‘xtatish bog‘lamini (jgutni) noto‘g‘ri qo‘yish	20
2.	Oyoq singanda immobillizatsiya shinasini noto‘g‘ri qo‘yish	50
3.	Qo‘l singanda immobillizatsiya shinasini noto‘g‘ri qo‘yish	40
4.	Yurak-o‘pka reanimatsiyasini noto‘g‘ri bajarish	60
5.	Birinchi yordam ko‘rsatish ketma-ketligiga rioya qilmaslik	10
6.	Jabrlanganni tashish (evakuatsiya qilish) qoidalarini noto‘g‘ri bajarish	20
7.	Jabrlanganga nisbatan qo‘pol (g‘ayriyinsoniy) munosabatda bo‘lish (har bir harakati uchun)	10
8.	Jabrlanganga birinchi yordam ko‘rsatmaslik	120
Dor yo‘li va chodir sharti bo‘yicha:		
1.	Har bir muftalanmagan karabin uchun	10
2.	Belgilagan chegara chizig‘idan o‘tib ketgani yoki chiziqni bosgan har bir holat uchun	5
3.	Qutqaruvchi anjomini tushirib yuborsa	20
4.	Chodir yig‘ishda har bir bajarilmagan element uchun	10
5.	Birinchi ishtirokchi dor yo‘lidan tushmasdan ikkinchi ishtirokchi dor yo‘liga chiqsa	10
6.	Ishtirokchining xavfsizlik arqonida osilib qolishi (sryiv)	20
Yuqori qavatlarda ishlash sharti bo‘yicha:		
1.	Har bir muftalanmagan karabin uchun	10
2.	Qutqaruvchi anjomini tushirib yuborsa	20
3.	Har bir noto‘g‘ri boylangan (yoki boylanmgagan) bog‘lam uchun	15
4.	Ishtirokchining xavfsizlik arqonida osilib qolishi (sryiv)	20
“Estafeta” sharti bo‘yicha:		
1.	Uychadan o‘tayoganda tushib ketib qaytadan o‘tmasdan shartni davom ettirsa	15
2.	Har bir etap ishtirokchisi o‘zini yugurish yo‘lagidan chiqsa	10
3.	To‘sqidan o‘ta olmasa yoki aylanib o‘tsa	10
4.	To‘siqni yiqitib yuborsa	10
5.	Bumdan o‘tayotganda tushib ketib qaytadan o‘tmasdan shartni davom ettirsa	15
6.	Yong‘in o‘chirish yenglari bir-biriga qotirlmasa	10
7.	Yong‘in o‘chirish yenglari uch yoqlama ayirgichga ulanmagan bo‘lsa	10
8.	Yong‘in o‘chirish yengiga suv berish dastagi ulanmasa	10
9.	Estafeta dastagi tushirib qoldirilsa (finishga yetkazilmasa)	10
10.	4-etapda maxsus idishda yondirilan yonilg‘i to‘liq o‘chirilmasa	20

Izoh: Musobaqa bosh hakami hakamlar komissiyasining ishini tashkil qiladi va jamoalarning musobaqadagi ishtirokini boshqaradi. Hakamlar ishtirokchilarning harakatlarini jarimalar jadvaliga muvofiq baholaydilar. Agar jamoa rahbari (vakillari) tomonidan izohlar, maslahatlar va sharhlar berilsa, shuningdek, vaziyatni hal qilishdan bosh tortgan hollarda hakamlar musobaqani to‘xtatishi mumkin. Bu holda shart tugallanmagan deb hisoblanadi va jamoa 180 soniya jarima bilan jazolanadi;

Shuningdek, shartlar bajarilayotgan vaqtida hakamlar ishiga jamoa rahbari yoki boshqa a’zolari tomonidan to‘sqinlik qilinsa, nomaqbul so‘zlar aytilsa mazkur shaxsning jamoasi (har bir

holat bo'yicha) 60 soniya jarima bilan jazolanadi yoki Hakamlar hay'atining qaroriga asosan musobaqadan chetlatiladi;

Jamoa rahbari hakamlik ustidan faqat jamoaning shartlarni bajargandan so'ng appellatsiya berish huquqiga ega (appellatsiya musobaqaning bosh hakamiga jamoaning chiqishlari tugaganidan keyin 30 daqiqa ichida beriladi). Musobaqada ishtirok etuvchi boshqa jamoalarning hakamlik qilish bo'yicha murojaatlari ko'rib chiqish uchun qabul qilinganmaydi. Hakamlar komissiyasi barcha murojaatlarni ko'rib chiqadi, qabul qilingan qarorlar jamoa rahbarlariga yetkaziladi.

18. Jamoalarning barcha shartlar davomida tezkorligi, epchilligi, shuningdek, mamlakatimizda aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tusdagi) harakat qilishga tayyorlash tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar va ular mohiyatini oddiy tarzda oolib berishlari, belgilangan vaqtga qat'iy roya qilishlari, kiyimi, ijodiy, badiiy hamda voqealarni xalqchil asosda tayyorlashi – baholashning asosiy mezoni hisoblanadi.

4. Jamoalarni nominatsiyalar bo'yicha baholash mezonlari.

19. Jamoaning nomi va shiori ko'rige.

Ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoa a'zolarining safda turgan holda o'z jamoalari nomini aytib tanishtiradilar va jamoa shiorini aytadilar. Bunda nafaqat jamoaning shiorining mazmun-mohiyatiga, uni ijro etish mahoratiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Jamoaning shiori insonlarni hayotini asrab qolish va qutqaruvchilarni xizmat faoliyat bilan bog'liq so'zlardan foydalangan bo'lishi kerak. Jamoaning nomi va shiori hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda aniqlanadi hamda g'olib bo'lgan jamoa "Jamoaning eng yaxshi nomi va shiori" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

20. Eng yaxshi jamoa bayrog'i.

Bu nominatsiya bo'yicha g'olibni aniqlashda jamoa bayrog'ining rangi, uning matosi hamda tayyorlanishiga, bayroqda vatanparvarlik, milliy g'urur, qutqaruvchi kasbiga mehr-iftihor va odamlarga yordam berishdek oliy tuyg'ularini o'zida aks ettirgan bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda g'olib jamoa "Eng yaxshi jamoa bayrog'i" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

21. Jamoalarning maxsus ustki kiyimi ko'rige.

Ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoaning ustki kiyimi (shu jumladan, bosh kiyimi) maxsus tiktirilgan, barcha jamoa a'zolari uchun bir turda bo'lishi talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tarkibiy tuzilmalari harbiy kiyimlari va boshqa tashkilotlarning maxsus kiyimlarida shu jumladan, bosh va oyoq kiyimlarida ishtirok etish ta'qilnadi (FVV qutqaruvchilar kiyim boshi bundan mustasno). Ustki kiyimdag'i 10x6 sm hajmdagi ko'krak nishoni (emblemasi) ko'krakning chap tomoniga taqiladi. Ko'krak nishonida musobaqa qatnashchisining ism-sharifi to'liq yozilishi, 4x6 sm hajmdagi fotosurati yopishtirilgan va ta'lim muassasasining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Jamoalarning kiyimlarida qutqaruvchilik kasbiga mehr, iftihor va harbiy vatanparvarlik shukuhi aks etib turishi hamda bosh kiyimi bir turda bo'lishi, shuningdek, maxsus ustki kiyimning ko'rinishiga, qolaversa kiyimda qutqaruvchilarning kiyimidek ajralib turuvchi maxsus yozuvlar, qutqaruvchi ekanligini bildiruvchi belgilari bilan bezatilganligiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda g'olib jamoa "Jamoaning eng yaxshi maxsus ustki kiyimi" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

22. Eng yaxshi tashkil etilgan ko'rgazma.

Ko'rgazmada "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klubining me'yoriy hujjatlari, klub a'zolari tomonidan erishilgan yutuqlarni o'zida aks ettirgan ("Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klub faoliyati bo'yicha diplom, faxriy yorliq, kubok va shu kabilalar) ko'rgazmali vositalar qo'yiladi.

Ushbu shartda jamoaning a'zolaridan biri ishtirok etadi hamda ko'rgazmadagi vositalar bo'yicha tushunchalar beradi. Bu shartda ko'rgazmadagi vositalari ta'lim muassasalari o'quvchilarining erishgan yutuqlariga, did bilan joylashtirilishiga va ko'rgazma bilan tanishtiruvchining nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Shart hakamlar hay'atining barcha

a'zolari tomonidan kelishilgan holda g'olib jamoa "Eng yaxshi tashkil etilgan ko'rgazma" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

23. Eng yaxshi qutqaruvchi (qiz bolaga).

Bu nominatsiya g'olibi "Yuqori qavatlarda ishslash" shartida ishtirok etgan qiz bolalar orasidan aniqlanib, mazkur mashqlarni bajarishdagi to'g'ri va aniq harakatlari, mohirligi hamda o'z harakatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lgan va mashqlarni bajarishda boshqalarga nisbatan eng yaxshi natijalarga erishgan qizbola "Eng yaxshi qutqaruvchi" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

24. Eng yaxshi qutqaruvchi (o'g'il bolaga).

Bu nominatsiya g'olibi "Yuqori qavatlarda ishslash" shartida ishtirok etgan o'g'il bolalar orasidan aniqlanib, mazkur shartdagi mashqlarni bajarishdagi to'g'ri va aniq harakatlari, mohirligi hamda o'z harakatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lганva mashqlarni bajarishda boshqalarga nisbatan eng yaxshi natijalarga erishgan o'g'ilbola "Eng yaxshi qutqaruvchi" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

25. Eng yaxshi jamoa fotoalbomi.

Jamoalar o'zlar bilan musobaqaning tuman va hududiy bosqichlaridagi ishtirokini hamda "Yosh qutqaruvchi" klubning faoliyatini o'zida aks ettiruvchi foto albomini (A 4 formatda, har bir betiga 2 donadan rasm joylashtirilgan bo'lishi) olib kelishi lozim. Fotoalbom "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klublari a'zolari tomonidan qo'l mehnati bilan tayyorlangan bo'lishi shart. Ushbu shartda jamoaning sardori ishtirok etadi hamda albomda joylashtirilgan lavhalar haqida so'zlab beradi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda g'olib jamoa "Eng yaxshi klub faoliyati yoritilgan fotoalbom" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

26. Eng yaxshi jamoa vimpeli.

Ushbu ko'rikda har bir jamoa o'zining 40x30 sm hajmdagi vimpelini olib kelishi lozim. Vimpellarni "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klublari a'zolari tomonidan qo'l mehnati bilan tayyorlangan bo'lishi shart. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda g'olib jamoa "Eng yaxshi vimpel" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

27. Yuqori qavatlarda ishslash bo'yicha eng yaxshi jamoa.

Ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoaning har bir ishtirokchisi tugun bog'lash, ishg'ol qilish narvoni va jumarlar yordamida minoraga ko'tarilish hamda tushish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini bajaradi. Bunda mashqni aniq, tez, xatosiz va qisqa vaqt ichida bajargan jamoa g'olib deb topiladi hamda "Yuqori qavatlarda ishslash bo'yicha eng yaxshi jamoa" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

28. Eng hamjihat jamoa.

Ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoaning har bir ishtirokchisi daryodan arqonlar yordamida o'tish va chodir yoyish mashqini bajarish davomida jamoa a'zolari mashqni bajarishdagi birdamliligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, chodirni yoyishda bir-biriga o'zaro yordam berishi va qo'yilgan vazifani bajarishda hamjihatligiga e'tibor beriladi. Bunda guruh ishtirokchilari tomonidan mashqni aniq, tez, xatosiz va qisqa vaqt ichida bajargan jamoa g'olib deb topiladi hamda "Eng hamjihat jamoa" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

29. Eng bilimdon jamoa.

Ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoaga favqulodda vaziyatlar borasida umumiy savollar beriladi va savollarga to'liq, aniq, ishonch bilan to'ldirishlarsiz belgilangan vaqt ichida hamda tayyorgarlik ko'rish uchun belgilangan vaqtidan foydalanmasdan to'g'ri javob bergen jamoa g'olib deb topiladi va "Eng bilimdon jamoa" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

30. Eng yaxshi tibbiy yordam ko'rsatgan jamoa.

Ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoaga shart bo'yicha favqulodda vaziyatlarda jabrlanuvchiga oyoq, qo'l yopiq (ochiq) singanda, jarohat oqibatida qon ketganda va yurak-o'pka reanimatsiyasida birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha mashqlarni bajaradilar. Jamoa berilgan topshiriqni to'g'ri ketma-ketlikda, to'liq, aniq, mashqlarni bajarishda birinchi yordam ko'rsatish qoidalarini xatosiz va qisqa vaqt davomida bajargan jamoa g'olib deb topiladi hamda "Eng yaxshi birinchi tibbiy yordam ko'rsatgan jamoa" faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi.

31. Musobaqadagi savollar O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen tusdagisi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Fuqaro muhofazasi

to‘g‘risida”gi hamda “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, “Hayot xavfsizligi asoslari” va “Fuqaro muhofazasi” (yoki vazirlik tomonidan ushbu yo‘nalishda joriy etilgan fanlar) fanlari hamda klub dasturi asosida o‘tilgan mavzular bo‘yicha tuziladi. Savollar tashkiliy qo‘mita tomonidan tuziladi hamda musobaqa kunidan bir kun avval maxsus konvertga solinib, a’zolari ishtirokida muhrlanadi.

32. Musobaqa shartlarini baholash hamda g‘oliblar va boshqa ishtirokchilarni taqdirlash tashkiliy qo‘mita tomonidan tuziladigan hakamlar hay’ati tomonidan amalga oshiriladi.

Hakamlar hay’ati tarkibiga mazkur Nizom ta’sischilarining mas’ul xodimlari, shuningdek, fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar (o‘qituvchilar, amaliyotchilar) kiritilishi mumkin.

33. Barcha shartlar bo‘yicha umumiy ballar qo‘sib hisoblanganda eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan jamoa musobaqaning mutloq g‘olibi deb topiladi. Yuqori ballar teng bo‘lgan holatda, g‘olib jamoani aniqlash hakamlar hay’ati raisi tomonidan hal etiladi.

5. Tashkiliy va amaliy tadbirlar

34. Favqulodda vaziyalar vazirligi tomonidan:

- klublarga mashg‘ulotlar olib borish uchun kerakli sharoitlarni yaratishda yaqindan yordam berish;

- musobaqaning barcha bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish;

- musobaqaning hududiy va respublika bosqichlarini kerakli anjomlar bilan ta’minalash;

- musobaqaning barcha bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish uchun malakali xodimlar ajratish;

- har yili tuman va shaharlar kesimida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublarining tashkil etilishida uslubiy yordam ko‘rsatish ishlari amalga oshirish;

xalqaro musobaqalarga Respublika bosqichida g‘olib chiqqan jamoalartarkibidan saralangan jamoani yoki g‘olib chiqqan jamoaning to‘liq tarkibini yuborish;

xalqaro musobaqalarga yuboriladigan ishtirokchilarni tayyorgarligini tashkil etish.

xalqaro musobaqalarga vakil ajratish ishlarni takshil etish;

- musobaqalarning yakuniy final bosqichida I o‘rinni egallagan ishtirokchilarga qimmatbaxo sovg‘alar ajratiladi.

35. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston talabalar sporti Assotsiatsiyasi Ijroiya qo‘mitasi tomonidan:

- o‘quvchilarni klublarga hamda musobaqalarga ommaviy ravishda jalg etish;

- klub a’zolari uchun ta’lim muassasalarida alohida xona ajratish;

- klublarning mashg‘ulotlar olib borishi uchun kerakli sharoitlarni yaratish;

- hududiy bosqichida g‘olib chiqqan jamoalarni Respublika bosqichida ishtirokini ta’minalash;

- ishtirokchilarni sport kiyimlari va anjomlari bilan ta’minalash, musobaqalarning yakuniy final bosqichiga keladigan ishtirokchilarning safar harajatlari (yo‘l, yotoq va oziq-ovqat)ni qoplash;

- xalqaro musobaqalarga yuboriladigan o‘quvchilarni maxsus kiyim-bosh bilan ta’minalash;

- har yili tuman va shahar kesimida o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalarida

“Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublarini tashkil etishga ko‘maklashish ishlari olib boriladi.

34. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan:

- o‘quvchilarni klublarga hamda musobaqalarga ommaviy ravishda jalg etish;

- klub a’zolari uchun ta’lim muassasalarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida xona ajratish;

- klublarning mashg‘ulotlar olib borishi uchun kerakli sharoitlarni yaratish;

- ishtirokchilarni sport kiyimlari bilan ta’minalash;

- hududiy bosqichida g‘olib chiqqan jamoalarni Respublika bosqichida ishtirokini ta’minalash;

- musobaqalarning yakuniy final bosqichiga keladigan ishtirokchilarning safar harajatlari (yo‘l, yotoq va oziq-ovqat)ni qoplash;
- xalqaro musobaqalarga yuboriladigan o‘quvchilarni maxsus kiyim-bosh bilan ta’minlash;
- har yili tuman va shahar kesimida umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublarini tashkil etishga ko‘maklashish ishlari olib boriladi.

35. Sport vazirligi tomonidan:

- musobaqalarning hududiy va respublika bosqichlarini o‘tkazish uchun sport maydonlarining ajratilishida yaqindan yordam berish;
- xalqaro musobaqalarga yuboriladigan o‘quvchilarni bir xil turdagি O‘zbekiston Repspublikasi ramzi tushirilgan sport kiyimlari (sport sumkasi, krasovka, sport kiyimi) bilan ta’minlash;
- “Yosh qutqaruvchi” musobaqalarini yillik sport kalendariga kiritish ishlari tashkillashtiriladi.

36. Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan:

- joylarda faoliyat olib borayotgan klub a’zolari ishtirokida tibbiy tayyorgarlik bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- musobaqaning barcha bosqichlariga malakali mutaxassislarini jalg etish;
- musobaqalar davomida tibbiyot xodimlari, tez tibbiy yordam mashinalari va dori-darmonlar bilan ta’minlash ishlarini amalgalashish ishlari tashkil etiladi.

37. Madaniyat vazirligi tomonidan:

- hamkor vazirlilik va idoralar bilan klub a’zolari uchun madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazishda faol ishtirok etish;
- g‘oliblarni tantanali taqdirlash marosimlarini tashkil etish uchun malakali rejissyor va estrada xonandalarining ishtirokini o‘rnatalgan tartibda tashkil etish ishlari olib boriladi.

38. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan:

- musobaqaning barcha bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazishda tashkiliy hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ko‘mak berish;
- musobaqaning barcha bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish uchun malakali xodimlar ajratish;
- tuman va shaharlar kesimida umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublariga yoshlarni jalg qilishda amaliy yordam ko‘rsatish ishlari olib boriladi.
- musobaqalarning yakuniy final bosqichida II va III o‘rinni egallagan ishtirokchilarga qimmatbaxo sovg‘alar ajratish.

39. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi tomonidan:

- musobaqaning barcha bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazishda tashkiliy hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ko‘mak berish;
- tuman va shaharlar kesimida umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublariga yoshlarni jalg qilishda amaliy yordam ko‘rsatish ishlari tashkil etiladi.

6. Foliblarni taqdirlash

40. Musobaqaning tuman (shahar), hududiy va respublika bosqichlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi hamda ularning hududiy bo‘linmalari va quyi tizimlari tomonidan I, II va III darajali diplomlar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi. Shuningdek, g‘oliblarni taqdirlashda boshqa tashkilotlar ham homiylik qilishlari mumkin.

7. Yakuniy qoidalar

41. Musobaqani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha harajatlar ta’sischi vazirlik va idoralarning mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

42. Mazkur musobaqaning hududiy bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazilishi bilan bog‘liq barcha hujjatlar Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmalarida, yakuniy bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazilishi bilan bog‘liq barcha hujjatlar Favqulodda vaziyatlar vazirligida uch yil saqlanadi.

“Yosh huquqshunos” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom mahallalardagi yoshlar o‘rtasida “Yosh huquqshunos” ko‘rik tanlovi (bundan buyon matnda tanlov deb yuritiladi)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanloving maqsadi mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish, o‘quvchilar erishayotgan natijalarni targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash, ularning shukronalik hissi bilan ulg‘ayishlarini ta’minlashdan iborat.

3. Tanlov mahalla, sektor, mahalliy, hududiy va Respublika bosqichida o‘tkaziladi.

4. Tanlovda yetti yoshdan o‘ttiz yoshgacha bo‘lganlar ishtirok etadi.

5. Tanlov “Yosh huquqshunos” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita va ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda Tashkiliy qo‘mita deb yuritiladi) tomonidan tashkil etiladi.

2-bob. Tanlovnii tashkil etish tartibi

6. Tanloving bosqichlari:

1-bosqich – mahalla bosqichi **15 may kuniga qadar**;

2-bosqich – sektor bosqichi **20 may kuniga qadar** sektorlar hududida joylashgan mahalla bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida;

3-bosqich – tuman (shahar) bosqichi sektor bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida **1 iyun kuniga qadar** tumanlar miqyosida;

4-bosqich – hududiy bosqichi tuman bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida **10 iyun kuniga qadar** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar miqyosida;

5-bosqich – respublika bosqichi **25 iyun** kuniga qadar hududiy bosqichda g‘olib bo‘lgan 1 nafar ishtirokchilar o‘rasida Toshkent shahrinda o‘tkaziladi.

7. Tanlovlar 7–13, 14–18, 18–30 yoshlilar o‘rtasida alohida guruhlarga bo‘lingan holda o‘tkaziladi.

3-bob. Tanlov shartlari va baholash mezoni

8. Tanlov ishtirokchilari belgilangan tartibda Tashkiliy qo‘mita tomonidan xalq ta’limi hamda adliya organlari bilan hamkorlikda tuzilgan test sinovlarini topshiradi.

9. Test sinovlari yosh guruqlariga mos ravishda quyidagi tartibda tuziladi:

ona-tili va adabiyot fanidan 20 ta savol;

O‘zbekiston tarixi fanidan 20 ta;

huquqshunoslik fanidan 60 ta.

10. Test sinovlari:

ona-tili va adabiyot fanidan har bir savolga to‘g‘ri javob uchun 0,7 ball;

O‘zbekiston tarixi fanidan har bir to‘g‘ri javob uchun 0,7 ball;

huquqshunoslik fanidan har bir to‘g‘ri javob uchun 1,2 ball bilan baholanadi.

4-bob. G‘oliblarni aniqlash va ularni taqdirlash

11. Tanlov g‘oliblari Tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlov ishtirokchisi topshirgan test sinovlari natijasi bo‘yicha to‘plagan balli doirasida aniqlanadi.

12. Test natijalariga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan uchta ishtirokchi Tashkiliy qo‘mitaning birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘rinni egallaganligini aniq ko‘rsatib bergan qarori bilan tasdiqlanadi.

13. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash:

birinchi bosqich g‘oliblari – fuqarolar yig‘ini raislari tomonidan bevosita mahalla aholisi o‘rtasida “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘idan ajratiladigan pul mablag‘lari hamda Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi diplom va esdalik sovg‘alari bilan;

ikkinchi bosqich g‘oliblari – sektor rahbarlarining diplom va esdalik sovg‘alari bilan;

uchinchi bosqich g‘oliblari – tuman (shahar) ichki ishlar organlari diplom va esdalik sovg‘alari bilan;

to‘rtinchi bosqich g‘oliblari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari diplom va esdalik sovg‘alari bilan;

beshinchi bosqichga chiqqan g‘oliblar quyidagicha taqdirlanadi.

3-o‘rinni olgan ishtirokchilar O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining qimmatbaxo sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

2-o‘rinni olgan ishtirokchilar Yoshlar ishlari agentligining qimmatbaxo sovg‘alari hamda tanlovda ishtirok etib, o‘rin ololmagan ishtirokchilar uchun “Ibrat” ilovasi orqali Super Start premium sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

1-o‘rinni olgan ishtirokchilar Ichki ishlar vazirligining qimmatbaxo sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

14. Tanlovda g‘olib bo‘lgan yoshlar ota-onalarining ish joyi va doimiy yashash joyidagi fuqarolar yig‘inida ichki ishlar organlari rahbariyati tomonidan tantanali tarzda taqdirlanadi va ularning ota-onalariga “Minnatdorchilik xati” yuboriladi.

15. Tanlovning barcha bosqich g‘oliblari ichki ishlar organlari veb-saytiga joylashtiriladi va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilinadi.

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom mahalla yoshlari (keyingi o‘rinlarda – yoshlar) o‘rtasida “Yoshlar va qonun” Respublika tanlovini (keyingi o‘rinlarda – tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovni yuqori saviyada o‘tkazish uchun Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, mas’ul etib belgilanadi.

3. O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat’iy nazar 14 yoshga to‘lgan (maktab o‘quvchilari 10-11-sinf) va 30 yoshdan oshmagan (Oliy ta’limda o‘qiydigan talabalar davlat va nodavlat) 1 ta mahalladan shakllangan yoshlar tanlovda ishtirok etish huquqiga ega.

Mazkur tanlovni o‘tkazishga mas’ul bo‘lgan tashkilotlar Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, “VERUM LEX FIRM” advokatlik firmasi hamkorligida tashkil etiladi.

4. Respublika ishchi guruhi kelishgan holda Tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish vakolatiga ega.

II. Tanlovnинг мақсади ва vazifalari

5. Tanlov jamiyatda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek, yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy huquq tizimiga hurmat munosabatini shakllantirish, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillariga nisbatan huquqiy immunitetini shakllantirish, qonun buzilishi holatlariga murosasizlik hissini uyg‘otish maqsadida o‘tkaziladi.

6. Tanlovni tashkil etishda quyidagi vazifalar ko‘zda tutiladi:

yoshlarning barcha qatlamlarining huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy-demokratik jamiyat barpo etishda yoshlarning rolini oshirish;

mamlakatimizda aholi, ayniqsa yoshlar orasida huquqiy savodxonlik barqaror muhit shakllantirilishiga erishish;

yoshlarimizda respublikamizda tasdiqlanayotgan qonun va qonun osti hujjatlariga nisbatan hurmat va rioxalari etish hissini shakllantirish;

yoshlarni siyosiy-huquqiy islohotlar jarayonlarida faolligini oshirilishiga erishish;

yoshlarda har qanday islohotlarga nisbatan daxildorlik kayfiyatini shakllantirish orqali demokratik davlat barpo etishda samarali yosh avlod qatlami o‘rni va rolini oshirilishiga erishish.

III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish

7. Tanlovni tashkil etish va uni o‘tkazish Respublika ishchi guruhi zimmasiga yuklatiladi. Respublika ishchi guruhi:

tanlovni o‘tkazish borasida qaror qabul qiladi;

tanlovnинг asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi; barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar yaratadi;

tanlov o‘tkazilishida oshkoraliq va shaffoflikni ta’minlaydi;

tanlov ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi.

8. Tanlovda ishtirokchilar onlayn ariza topshirish orqali qabul qilinadi.

9. Tanlovda yoshlar o‘zlari yashayotgan mahallalardan **8 kishilik** (4 nafar o‘g‘il 4 nafar qiz) jamoa shakllantirgan holda ishtirok etadi.

10. “Yoshlar va qonun” tanlovida respublika bosqichida o‘tgan yilgi bosqichida 1-o‘rinni olgan jamoalar joriy yilgi tanlovda ishtirok etishi mumkin emas.

11. Har bir jamoada huquqshunoslik bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan ishtirokchi **1 nafardan** ko‘p bo‘lishi taqiqlanadi (har bir).

12. Tanlov quyidagi ikkita yosh toifasi bo‘yicha alohida-alohida tartibda o‘tkaziladi: tanlovga hujjat topshirish vaqtigacha 14 yoshga to‘lgan hamda 18 yoshdan oshmagan faqat faqat 10-11-sinf mакtab o‘quvchilar o‘rtasida. Tanlovda ishtirok etish uchun mакtab direktoridan o‘qiyotganligi to‘g‘risida ma’lumotnomma olishi shart.

tanlovga hujjat topshirish vaqtigacha 18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan yoshlar (30 yoshdagilar ham kiradi) faqat oliy ta’lim talabalari o‘rtasida. Tanlovda ishtirok etish uchun oliy ta’lim rektorining talaba qaysi yo‘nalishda va nechanchi kursda o‘qiyotganligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi bilan ishtirok etishi shart.

13. Tanlovda ishtirok etuvchi jamoalarini shakllantirish tegishlicha Yoshlar ishlari agentligining mahallalardagi yoshlar yetakchilarini va mакtab direktorlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari hamkorligida amalga oshiriladi.

14. Tanlov to‘rt bosqichda o‘tkaziladi.

Tanloving birinchi – saralash (mahalla) bosqichi, *ikkinchisi* – tuman (shahar), *uchinchisi* – hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri), *yakuniy to‘rtinchisi* – (respublika) bosqichlari iyun oylarida o‘tkaziladi.

15. Tanlov bosqichlari quyidagicha tashkil etiladi:

saralash (mahalla) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish har bir mahalla kesimida yoshlar yetakchilarini va maktablarning ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari tomonidan 8 nafar (4 nafar o‘g‘il 4 nafar qiz) ishtirokchidan iborat, jamoa tuziladi va orasidan jamoa sardori shakllantirgan holda amalga oshiriladi;

tuman (shahar) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish sanasi 5 kun oldin tuman (shahar) tashkiliy ishchi guruhi tomonidan belgilanadi. Tuman (shahar) tashkiliy ishchi guruhi tarkibiga Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo‘limlari, tuman (shahar) adliya bo‘limlari, tuman (shahar) ichki ishlari bo‘limlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, kengashlari va boshqa mas’ul tashkilotlar xodimlari kiritiladi. Tuman (shahar) bosqichi aprel oyida juda yuqori saviyada ko‘tarinki ruhda o‘tkazilishi va ommoviy axborot vositalari jalb qilinishi va ijtimoiy tarmoqlar va televediniyada yoritilishi shart.

hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bosqichni tashkil etish va o‘tkazish joyi hamda sanasi 5 kun oldin Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari, Adliya boshqarmalari, Sud idoralari, Ichki ishlari boshqarmalari, Yoshlar ittifoqining hududiy kengashlari, maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, oliy ta’lim muassasalari va boshqa mas’ul tashkilotlar vakillaridan iborat tashkiliy ishchi guruhi tomonidan belgilanadi. Hududiy bosqich Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar markazlarida may oyida juda yuqori saviyada ko‘tarinki ruhda o‘tkazilishi va ommoviy axborot vositalari jalb qilinishi va ijtimoiy tarmoqlar va televediniyada yoritilishi shart.

tanloving yakuniy (respublika) bosqichi bo‘lib o‘tadigan joy va sanasi respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan belgilanadi va 10 kun oldin hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bosqichida g‘olib bo‘lgan (1-o‘rinni qo‘lga kiritgan) jamoalar va mas’ul tashkilotlarga ma’lum qilinadi (har bir ishtirokchi agar boshqa mahalla yoki hududdan ekanligi aniqlansa barcha natijalar bekor qilinadi va tanlovdan chetlanadi).

Respublika bosqichi iyun oyida o‘tkaziladi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

16. Tanlov **4 ta** shart asosida o‘tkaziladi.

17. Tanloving **1-sharti “Huquqiy penalti”** sharti bo‘lib, qur'a tashlash orqali 2 tadan raqib jamoalar aniqlab olinadi va ikkala jamoa bir vaqtida qatnashadi.

Jamoalarning **5 nafardan** a’zolariga **1 tadan** navbatma-navbat savollar beriladi. **5 tadan** savol to‘liq berib bo‘lganda yuqori natija ko‘rsatgan jamoa g‘olib bo‘ladi. Agarda **5 ta** savolda natija bir xil bo‘lib qolsa, **1 tadan** bir jamoa yutguncha savol beriladi (*savollar O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va xuquqshunoslik fanining umumiy asoslaridan shakllantiriladi*).

Shartdagi har bir savol uchun **1 daqiqadan** vaqt ajratiladi. Shartdagi baholashda har bir berilgan **5 tadan** savolga aniq javob uchun **1 balldan**, penaltidan yutgan jamoaga avtomatik ravishda **2 ball** taqdim qilinadi. Har bir jamoalarning faqatgina **5 tadan** savollariga ball beriladi, teng kelib qolib, davom ettirilgan savollarga ball berilmaydi.

18. Qur'a tashlash jarayonida tuman (shahar)lar toq son bo‘lib qolganda (bu holat toq sondagi mahallalari bo‘lgan tuman (shahar) hamda hududlarga tegishli), **1 ta** jamoa qolib ketsa, u jamoaga topgan savollariga beriladigan balldan tashqari, hakamlar tomonidan qo‘srimcha **2 ta** savol beriladi va har bir savol uchun **1 balldan** taqdim qilinadi.

19. Tanloving **2-sharti “Sardorlar bellashuvi”** sharti bo‘lib, ushbu shartda barcha jamoa sardorlari bir vaqtida qatnashishadi. Sardorlar mutaxassislar tomonidan tuzilgan **10 ta** (ochiq va yopiq) **test** savollariga javob topishlari kerak bo‘ladi. Xar bir to‘g‘ri javob uchun **0.5 ball** beriladi. To‘plash mumkin bo‘lgan jami ball **5 ballni** tashkil etadi.

Shartdagi 10 ta savol uchun jami **5 daqiqa** vaqt ajratiladi.

(*Test savollari: O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, jinoyat qonunchiligidan, fuqarolik qonunchiligidan, davlat va xuquqning nazariyasining umumiy asoslaridan, “O‘zbekiston 2030” strategiyasidan teng miqdorda shakllantiriladi*).

20. Tanloving birinchi yosh toifasi uchun (14-18 yosh) **3-sharti “Konstitutsiya bilimdonlari”** deb ataladi. Ushbu shartda jamoalar maxsus muxrlangan konvert tortishadi. Konvertda huquqiy kazus beriladi. Jamoalar kazusdagi muammoga Konstitutsianing qaysi moddasiga yechim bo‘lishini aniqlab, mazkur moddani sharhlab berishadi.

Mazkur shartda kazus bilan jamoaviy tanishib, tayyorlanish uchun **1 daqiqa**, javob berish uchun **3 daqiqa** vaqt ajratiladi va **5 ballik** tizimda baholanadi.

21. Tanloving ikkinchi yosh toifasi uchun (18-30 yosh) **3-sharti “Mening qonunchilik tashabbusim”** sharti bo‘lib, bunda jamoalar amaldagi qonunlarni o‘zgartirish yoki yangi normativ hujjat qabul qilish bo‘yicha takliflarini (belgilangan tartib asosida solishtirma jadvalda amaldagi taxrir, yangi taklif qilinayotgan taxrir va kutiladigan natija ko‘rinishida) shakllantirib, hakamlar hay’atiga 3 kun oldin taqdim etadi (batafsil o‘rganib chiqish uchun) hamda tanlov jarayonida taqdimot qilib, tushuntirib, izohlab beradi.*

Mazkur shartda taqdimot uchun **5 daqiqa** vaqt ajratiladi va **5 ballik** tizimda baholanadi.

22. Tanloving **4-sharti “Sud majislari modeli”** deb nomlangan bo‘lib, unda guruhlar mamlakatimizda sud huquq sohasidagi o‘zgarishlar, odil sudlov tizimini amalga oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning mazmun-mohiyatini sud majislari modeli orqali ko‘rsatib berishlari lozim bo‘ladi.

Tanloving birinchi yosh toifasi uchun (14-18 yosh) sud majlisi modeli **jinoyat ishlari bo‘yicha** (sud majlisi modelida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksi norma va talablari to‘g‘ri qo‘llanilishi kerak),

Tanloving ikkinchi yosh toifasi uchun (18-30 yosh) **fuqarolik ishlari hamda iqtisodiy ishlar bo‘yicha** (sud majlisi modelida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi va Iqtisodiy-protsessual kodeksi norma va talablari to‘g‘ri qo‘llanilishi kerak) namoyish etiladi.

Ushbu shartga birinchi yosh toifasi uchun (14-18 yosh)-**8 daqiqa**, ikkinchi yosh toifasi uchun (18-30 yosh) uchun **-10 daqiqa** vaqt ajratiladi va **5 ballik** tizimda baholanadi.

23. Tanlov shartlarida beriladigan savollar fundamental amaliy-nazariy huquqiy fanlar, shuningdek, “Taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston 2030” strategiyasi dasturidagi huquqiy masalalar doirasida huquqshunoslikka ixtisoslashgan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini jalg etgan holda tuziladi.

Tanlov savollari tuziladigan qonunchilik hujjatlari ro‘yxati Yoshlar ishlari agentligining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalariga joylashtiriladi.

Savollar tashkiliy ishchi guruh tomonidan saralanib, tanlov kunidan bir kun oldin maxsus paketlarga joylashtirilib, muhrlanadi va Yoshlar ishlari agentligida saqlanadi.

Shuningdek, guruhlar huquqiy bilimlarini yuksaltirish hamda sud jarayonlarida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida sud zallarida tanlov yuzasidan tayyorgarliklar ko‘rishi, belgilangan tartibda mashg‘ulotlar olib borishlari mumkin.

24. Tanlov shartlarini baholash, g‘oliblar va boshqa ishtirokchilarni taqdirlash tashkiliy ishchi guruh tomonidan tuziladigan hakamlar hay’ati zimmasiga yuklanadi. Hakamlarning qarori yakuniy qaror hisoblanib, bu borada apellyatsiya arizalari qabul qilinmaydi.

Hakamlar hay’ati tarkibiga Yoshlar ishlari agentligi, Sud va prokuratura idoralari, Adliya, Ichki ishlari, Maktabgacha va maktab ta’limi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari, hamda boshqa manfaatdor idoralarning mas’ul xodimlari kiritiladi. Shuningdek, hakamlar hay’ati tarkibiga qo‘shimcha ravishda ta’lim, madaniyat va san’at, huquq-tartibot sohasi vakillari ham kiritilishi mumkin.

25. Tanlovda I, II, III o‘rinlar ta’sis etilgan bo‘lib, barcha shartlar bo‘yicha umumiy ballar qo‘shib hisoblanganda, eng yuqori ball to‘plagan guruh tanlovda I o‘rinni, undan keyingisi II va III o‘rinni egallagan hisoblanadi.

Agarda guruhrular o‘rtasida umumiy to‘plangan ballar teng kelib qolsa, I, II, III o‘rirlarni belgilash sardorlar bellashuvi orqali hal etiladi.

Bunda umumiy ballari teng bo‘lgan har bir guruh sardoriga hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan 10 ta blis savoli beriladi. Javob berish uchun **1 daqqaq** vaqt ajratiladi. Savolga tayyorlanishga esa vaqt berilmaydi.

Sardorlarning bergen javoblari hakamlar hay’ati tomonidan **1 ballik** tizimda baholanadi. 10 ta savol natijasiga ko‘ra g‘olib belgilanadi.

Tanlovning barcha bosqichlarida qabul qilingan qarorlar bo‘yicha hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan sharh berilmaydi va shikoyat qilish mumkin emas.

V. G‘oliblarni taqdirlash

26. Tanlov g‘olib va ishtirokchilarini taqdirlashda barcha tashkiliy masalalar (saxna bezatish, banner, ishtirokchilar uchun suv ruchka qalam beydik tanlov logosi tushirilgan futbolka va kepka) hamda **I, II, III darajali diplomlar va qimmatbaho sovg‘alar** Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ajratiladi.

Qolgan hamkor tashkilotlar tanlovni o‘tkazishda savollar va kazuslar tuzish va har bir tashkilotdan 1 nafar malakali mutaxasislar tanlovda hakamlik qilish uchun jalg etiladi.

VI. Yakuniy qoidalar

28. Davlat va nodavlat tashkilotlari tanlovda homiylik qilishlari mumkin.

30. Mazkur tanloving mahalla, sektor, tuman (shahar) bosqichlari bilan bog‘liq barcha hujjatlar (materiallar) Agentlikning tuman (shahar) bo‘limlarida, hududiy bosqichlari bilan bog‘liq hujjatlar Agentlikning hududiy boshqarmalarida, yakuniy (respublika) bosqichi bo‘yicha hujjatlar Agentlikning markaziy apparatida saqlanadi.

**“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseylari o‘quvchilari o‘rtasida “Amir Temur avlodlari“ idoralararo harbiy-sport tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

Mazkur nizom Davlat xavsizlik xizmati va Milliy gvardiyasi (bundan buyon matnda vazirlik va idoralar deb yuritiladi) tarkibidagi “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseylari (bundan buyon matnda “Temurbeklar maktabi” deb yuritiladi) o‘quvchilari o‘rtasida “Amir Temur avlodlari“ idoralararo harbiy-sport tanlovini (bundan buyon matnda Tanlov deb yuritiladi) tashkillashtirish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiq qoidalar

1.Tanlov o‘tkazishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

xalqaro musobaqlarda O‘zbekiston Respublikasi, qolaversa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari sharafini himoya qiladigan harbiy kadr (sportchi)larni tayyorlash;

yoshlar o‘rtasida harbiy-sport turlarini keng targ‘ib qilish va ularni harbiy-sport turlari bilan muntazam ravishda shug‘ullantirishni ta’minlash;

“Temurbeklar maktablari” o‘quvchilarining sportga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish;

“Temurbeklar maktablari ” o‘rtasida o‘zaro sog‘lom raqobat va musobaqa muhitini yaratish;

yosh avlodni buyuk ajdodlarimiz kabi mard, jasur, halol, jismoniy baquvvat, bilimli, keng dunyoqarashli va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

2.Tanlov har yili aprel oyida tanlangan o‘quv muassasasida o‘tkaziladi. Sport turlari akademik litseyning imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlanadi.

3.Tanlov vazirlik va idoralar rahbarining tegishli o‘rnbosarlari raisligida Idoralararo harbiy-sport tanlovi hay’ati (bundan buyon matnda Tanlov hay’ati deb yuritiladi) tomonidan tashkillashtiriladi va o‘tkaziladi.

4.Tanlov hay’ati tarkibi besh-yetti kishidan iborat tarkibda Tanlovni o‘tkazishga mezbonlik qilayotgan vazirlik yoki idora rahbarining (rahbar birinchi o‘rnbosarining) buyrug‘i bilan tasdiqlanadi va uning tarkibiga:

vazirlik va idoranining jangovor (jismoniy) tayyorgarlik hamda “Temurbeklar maktablari”ga ma’sul ofitserlar va sport mutaxassislari;

tanlovga mezbonlik qilayotgan vazirlik yoki idoranining ma’sul xodimlari va tegishli sport tashkilotlarining sport mutaxassislari (kelishuv asosida) bosh hakam hamda hakamlar sifatida kiritiladi.

Tanlov hay’ati kotibi, navbatchi vrach (avtomobil), shuningdek, tanlovni tashkillashtirish, musobaqlarni o‘tkazish joyi, vaqt va ketma-ketligi tanlovga mezbonlik qilayotgan vazirlik yoki idora tomonidan belgilanadi (ajratiladi).

5.Tanlov hay’ati raisi:

Tanlov hay’ati tarkibining tayyorgarligi va ish faoliyati, Tanlovni tashkillashtirish hamda o‘tkazishga rahbarlik qiladi;

musobaqani o‘tkazish joylari, sport vositalari va jihozlarini Tanlovga tayyorgarligini tashkillashtiradi;

Tanlov (musobaqa) shartlarini qo‘pol ravishda buzgan ishtirokchilarni Tanlov hay’ati a’zolari bilan kelishilgan holda, musobaqadan chetlatish masalasini hal etadi;

Tanlov hay’ati a’zolari (hakamlar) tomonidan musobaqlarni to‘g‘ri o‘tkazilishini, ishtirokchilarni shaffoflik bilan baholanishini nazorat qiladi;

Tanlov hay’ati a’zolari (hakamlar) bilan har bir musobaqa oldidan va musobaqa yakunida yig‘ilish o‘tkazadi, ishtirokchilar natijalarini ko‘rib chiqadi va muhokama qiladi;

musobaqalar jarayonida noto‘g‘ri hatti-harakatlar, qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘yilsa yoki tibbiyot xodimlarining yo‘qligi aniqlansa, Tanlovning ushbu shrtini to‘xtatadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

Tanlov hay’ati a’zolari (hakamlar) ishida noxolislikni, musobaqa ishtirokchilariga yon berish kabi xolatlarni aniqlasa ularni boshqa a’zolar (hakamlar) bilan almashtiriladi;

amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida vazirlik yoki idora rahbariga kunlik hisobot beradi;

Tanlov hay’ati a’zolari bilan ishtirokchi jamoalar tomonidan berilgan appellatsiya shikoyatlarni ko‘rib chiqib, muhokama qiladi va ular yuzasidan shaxsan asoslangan qaror qabul qiladi hamda shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida murojaat etuvchilarga yozma ravishda javob beradi;

Tanlov hay’ati a’zolari (hakamlar)ning noto‘g‘ri va asossiz qarorlarini bekor qiladi;

Tanlov yakuni natijalarini (g‘olib va sovrindorlarni) buyruq bilan e’lon qiladi;

6.Tanlov hay’ati:

Tanlov davomida musobaqalarni mazkur Nizomga muvofiq o‘tkazilishi, ishtirokchilarni haqqoniy va shaffof tarzda baholanishini, erishilgan natjalarga asoslanib g‘olib va sovrindorlarni aniqlaydi;

musobaqalarni o‘tkazish joylari, sport (maxsus) jihozlar va vositalari tayyorgarligini ta’minlaydi;

ishtirokchilarga musobaqa shartlarini, xavfsizlik qoidalarini yetkazadi, tushuntirish ishlarini olib boradi va ishtirokchilardan Tanlov (musobaqa) shartlari to‘g‘ri bajarilishini talab qiladi;

ishtirokchilar tomonidan musobaqa shartlarini qo‘pol ravishda buzish xolatlarini aniqlasa, ularning musobaqalarda ishtirok etishi masalasini hal etadi;

Tanlov hay’ati raisi boshchiligidagi musobaqa oldidan va ushbu musobaqa yakunida o‘tkaziladigan yig‘ilishda ishtirokchilar ko‘rsatgan natjalarni ko‘rib chiqadi;

musobaqalar davomidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ishtirokchi va jamoalar kattalariga o‘z vaqtida ma’lumot beradi;

apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqadi.

7.Tanlov hay’ati kotibi:

musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq barcha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi, tegishli hujjatlarni (ishtirokchilarning hujjatlari va ro‘yxatlarini) tekshiradi va rasmiylashtiradi;

qur’a tashlash jarayonini tashkillashtiradi va unda ishtirok etadi;

musobaqalar jarayonida bevosita ishtirok etadi, Tanlov hay’ati tomonidan qabul qilingan qarorlarni, ishtirokchilar ko‘rsatgan natjalarni rasmiylashtiradi.

8. Navbatchi vrach:

har bir musobaqa oldidan ishtirokchilarning tibbiy ma’lumotlarini o‘rganadi va ular sog‘ligining holatiga ko‘ra musobaqalarda ishtirok etishi bo‘yicha xulosa beradi;

musobaqalar o‘kazilgan joylarda, ishtirokchilarni dam olishini, ovqatlanishini, yuvinish xonalarida sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi hamda ishtirokchilarning sog‘ligini muntazam ravishda nazorat qilib boradi, zarur hollarda ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadi;

har bir holat va amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Tanlov hay’ati raisiga ma’lumot beradi.

9. Bosh hakam musobaqalarning turlari bo‘yicha tayinlanadi va hakamlar tomonidan ishtirokchilarni to‘g‘ri baholanishi hamda tanlovni shaffoflik bilan o‘tkazilishiga javob beradi. Bosh hakam tanlov boshlanishidan oldin musobaqa o‘tkaziladigan joylarni, ularning jihozlanganligini va tayyorligini tekshiradi, muammo yoki kamchiliklar aniqlansa ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralarini ko‘radi.

10. Hakamlar musobaqalarni to‘g‘ri va odilona baholanishiga javob beradi.

Hakamlar Tanlov hay'ati raisi va bosh hakamga bo'yusunadi va ularning ko'rsatmalariga amal qiladi.

11. Hakamlar musobaqada Tanlov hay'ati raisi yoki bosh hakam tomonidan belgilab berilgan kiyim rusumida ishtirok etadi.

2-bob. Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan umumiyl talablar

12. Tanlovda faqat "Temurbeklar maktablari"da tahsil olayotgan o'quvchilar orasidan saralab olinganlar ishtirok etadi.

Tanlovda o'quvchilar faqat bitta sport turi bo'yicha musobaqada ishtirok etadi.

13. Tanlov boshlanishidan oldin, unda ishtirok etadigan vazirlik va idoralar tomonidan Tanlov hay'atiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

qatnashuvchilarni tanlovga saralab olinganligi va musobaqlarda ishtirok etishga ruxsat beruvchi tegishli buyruqlardan ko'chirma;

ishtirokchi jamoalar talabnomasi (har bir ishtirokchining familiyasi, ismi va sharifi, tug'ilgan yili, oy va kuni, shaxsni tasdiqlovchi hujjat raqami to'liq ko'rsatilgan holda, surati gerbli muxr bilan tasdiqlanadi);

ishtirokchilarning tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlari;

ishtirokchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari nusxalari. Bunda Tanlov boshlanishidan oldin ishtirokchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, Tanlov hay'ati (hakamlar) tomonidan ularning asli bilan solishtirib tekshiriladi.

14. Hujjatlar bevosita ma'sul shaxslar tomonidan yoki aloqa kanallari orqali belgilangan tartibda taqdim etiladi.

15. Mazkur Nizomning 13-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni to'liq taqdim etmagan vazirlik yoki idoranining ishtirokchilariga Tanlovda ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi.

16. Tanlovda har bir jamoadan 12 nafardan ishtirokchi, shulardan 1 nafari jamoa sardori etib saylanadi va 2 nafar murabbiy qatnashishiga ruxsat beriladi.

3-bob. Tanlov ishtirokchilarining huquq va majburiyatları

17. Tanlov ishtirokchilari quyidagilarga majbur:

tanlovnin o'tkazish to'g'risidagi Nizom talablarini bilishga va unga so'zsiz rivoja qilish;

tanlov davomida o'zini munosib tutishga va boshqalarni ham munosib hatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligini ta'minlash;

musobaqlarni o'tkazish joyida ko'rsatilgan vaqtida belgilangan kiyim turida bo'lish;

musobaqlar ishtirokchilari va hakamlar hamda hay'at a'zolariga doimo xushmuomala munosabatda bo'lish,

zarurat tug'ilgan xollarda hakamlar hamda hay'at a'zolariga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim qilish;

tanlov uchun belgilangan kun tartibi va boshqa tartib-qoidalarga qat'iy rivoja etish;

hakamlar va hay'at a'zolarining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish;

tanlov davomida o'rnatilgan kun tartibi, musobaqlar shartlari va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rivoja etishga.

18. Tanlov ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

musobaqa oldidan hakamlar va hay'at a'zolariga ruxsati bilan mustaqil ravishda badantarbiya mashqlari bilan shug'ullanish, musobaqa qurollari, maxsus vosita va jihozlar bilan yaqindan tanishish;

tanlov jarayonida hakamlar hamda hay'at a'zolariga Nizom talablaridan kelib chiqqan holda og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilish (ariza va shikoyat berishga);

tanlov davomida nohaqlik yoki shaffoflik ta'minlanmayotganligi aniqlangan hollarda hakamlar hamda hay'at a'zolariga ma'lumot berish.

19. Tanlovda ishtirok etayotgan har bir maktab jamoasiga 1 nafar katta (jamoasiga) va 3 nafar murabbiy tayinlanadi. Jamoa kattasi va murabbiylar ishtirokchilarning intizomi, sog‘ligi va ular tomonidan xavsizlik talablari hamda musobaqada belgilangan tartib-qoidalarni qat’iy bajarilishi uchun javob beradi. Tanlov jarayonida jamoa tomonidan musobaqa shartlarini to‘g‘ri bajarilishini nazorat qiladi. Hakamlar va hay‘at a‘zolari tomonidan qabul qilingan qaror va berilgan ko‘rsatmalarni o‘z jamoasi a‘zolariga zudlik bilan yetkazadi.

Jamoasiga kattasi hakamlar va hay‘at a‘zolardan o‘z jamoasi a‘zolarining natijalariga aniqlik kiritish, zarurat bo‘lgan hollarda yozma yoki og‘zaki ravishda murojaat qilish huquqiga ega.

Nizomda ko‘rsatilmagan tartibda hakamlar va hay‘at a‘zolarining qarorlariga qarshilik ko‘rsatish, ularga bo‘ysunmaslik hamda jamoa a‘zolariga qoidalarga zid ravishda yordam berish taqiqlanadi.

4-bob. Tanlovnı o‘tkazish shartları

20. Tanlov quyidagi harbiy-sport turlari bo‘yicha tashkil etiladi:

1 Harbiy-sport ko‘pkurashi kompleksi (100 metrga yugurish, turnikda tortilish, 1000 metr masofaga yugurish va yagona to‘siqlar yo‘lagidan oshib o‘tish);

2 Harbiylashtirilgan estafeta;

3 Milliy kurash;

4 O‘q otish;

2-§. Harbiy-sport ko‘pkurashi kompleksi

21. Harbiy-sport ko‘pkurashi kompleksiga 100 metrga yugurish, turnikda tortilish, 1000 metr masofaga yugurish va yagona to‘siqli yo‘laklardan oshib o‘tish sport turlarini o‘z ichiga oladi.

Musobaqada har bir jamoadan 3 nafardan ishtirokchi dala kiyimi rusumida, yuqori qo‘njli botinkada qatnashadi.

22. 100 metrga yugurish stadion yugurish yo‘lagida yoki yuzasi tekis maydonda yuqori start holatida bajariladi. 100 metrga yugurish uchun dastlabki “Startga” va “Diqqat” komandalari, so‘ngra “Olg‘a” komandasasi beriladi. “Startga” komandasasi berilganida start olish chizig‘iga kelib, kuchli oyoq start olish chizig‘i yaqiniga qo‘yiladi va ikkinchi oyoq yarim qadam ortda qoldiriladi. “Diqqat” komandasasi berilganida tana vazni oldinda turgan oyoqqa o‘tkazilib, gavda va bosh oldinga egiladi, qo‘l tirsaklari esa bukiladi. “Olg‘a” komandasasi berilganda yugurish amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich signal berilmasdan yugurishni birinchi bo‘lib boshlagan ishtirokchi, yugurishni noto‘g‘ri boshlagan deb hisoblanadi va ishtirokchiga ogohlantirish beriladi.

Yugurishni boshlash qoidalari ikkinchi marta buzgan ishtirokchi mazkur shartdan chetlashtiriladi.

Har bir ishtirokchining natijasi alohida sekundomer bilan belgilanadi. Ishtirokchilarning natijasi uchta sekundomer bilan qayt etiladi. Agar sekundomerlar o‘rtasida tafovut bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida qayt etilgan ikkita sekundomerning ko‘rsatkichlari qabul qilinadi, agar uchala ko‘rsatkichlar ham turlicha bo‘lsa, sekundomerlarning o‘rtacha vaqt olinadi.

100 metrga yugurish natijalari quyidagi jadval asosida baxolanadi:

Vaqt (soniya)	Yarim soniya									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
11	1900	1850	1800	1750	1700	1650	1600	1550	1500	1450
12	1400	1350	1300	1250	1200	1150	1100	1050	1000	950
13	900	850	800	750	700	650	600	550	500	450

14	400	375	350	325	300	275	250	225	200	175
15	150	125	100	75	50	25	0			

23. Turnikda tortilish shartini bajarishda qo‘l kaftlari turnikda oldinga qaratilgan holda ushlanib, qo‘llar paralel uzatilgan holda turiladi, tana bir oz bukilgan, oyoq to‘g‘ri tushirilgan, uchi to‘liq pastka uzatilib, tovonlar juft tutilgan holatda bajariladi. Qo‘llar bukilib, tana yuqoriga ko‘tarilganda jag‘ (iyak) turnik ustiga to‘liq chiqarilgan holat qabul qilinadi. Qo‘llar yana to‘liq uzatilib, tana bir maromda pastga tushiriladi va dastlabki holat egallanadi. Tananing osilgan holati 1-2 soniya davomida saqlanadi. Juft tutilgan oyoqlarni 45 gradusgacha bukishga ruxsat beriladi. Tortilish mashqi davomida tanani siltash, oyoqni old-orqaga tabratish, oyoqlarni chalishtirish, bir qo‘lda osilib olish amallari man etiladi.

Turnikda tortilish natijalari quyidagi jadval asosida baxolanadi:

Tortilish soni	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
40	1120	1150	1180	1210	1240	1270	1300	1330	1360	1390
30	820	850	880	910	940	970	1000	1030	1060	1090
20	520	550	580	610	640	670	700	730	760	790
10	250	275	300	325	350	375	400	430	460	490
0	0	25	50	75	100	125	150	175	200	225

24. 1000 metr masofaga yugurish stadion yo‘lagi yoki tabiiy tekis hududda, umumiy start olgan tarzda bajariladi. Start olish va finish marralari aynan bir joyda yoki alohida jihozlanadi. Yugurish amalidan yurish amaliga o‘tgan, yugurish davomida to‘xtagan yoki distansiyadan chetga chiqqan ishtirokchi mashqni bajarmagan hisoblanadi.

Yugurish ishtirokchilari har bir yugurish shartida 15 kishidan oshmasligi kerak.

Yugurish paytida ishtirokchilar bir-birlariga to‘sinqinlik qilmasliklari, oldinga yugirayotgan ishtirokchining yo‘liga chiqmasligi yoki o‘zib ketayotgan ishtirokchini turtmasligi hamda qo‘llari bilan ushlab qolmasligi kerak.

Ushbu qoidani buzganligi uchun ishtirokchi yugurish shartidan chetlashtiriladi.

Ishtirokchilarning vaqt sekundomerni to‘xtatmasdan 0.1 soniya aniqlik bilan qayd etiladi.
1000 metr masofaga yugurish natijalari quyidagi jadval asosida baxolanadi:

Vaqt (daq)	Soniya									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
2.40	1175	1168	1161	1154	1147	1140	1133	1126	1119	1112
2.50	1105	1098	1091	1084	1077	1070	1063	1056	1049	1042
3.00	1035	1028	1021	1014	1007	1000	993	986	979	972
3.10	965	958	951	944	937	930	923	916	909	902
3.20	895	888	881	874	867	860	853	846	839	832
3.30	825	818	811	804	797	790	783	776	769	762
3.40	755	748	741	734	727	720	713	706	699	692
3.50	685	678	671	664	657	650	643	636	629	622

4.00	615	608	601	594	587	580	573	566	559	552
4.10	545	538	531	524	517	510	503	496	489	482
4.20	475	468	461	454	447	440	433	426	419	412
4.30	405	398	391	384	377	370	363	356	349	342
4.40	335	328	321	314	307	300	293	286	279	272
4.50	265	258	251	244	237	230	223	216	209	202
5.00	195	188	181	174	167	160	153	146	139	132
5.10	125	118	111	104	97	90	83	76	69	62

25. Yagona to'siqlar yo'lagidan oshib o'tish mashqi quolsiz, 4-harbiy kiyim rusumida bajariladi, masofa – 400 metr bo'ladi va quyidagi tartibda mashq elementlari (amallar) bajariladi;

xandaq ichida tik turgan holatda vazni 600 gramm keladigan o'quv granatasi 20 metr uzoqlikdagi devorga (devordagi tuynukka) yoki devor oldidagi o'lcham 1*2,6 m keladigan maydonchaga granataning ushbu maydonga bevosita tushishi hisobga olinadi) uloqtiriladi. Birinchi granata nishonga tegmasa, granata uloqtirish amali nishonga tekkunga qadar davom ettiriladi, biroq granatalar soni uch donadan oshmaydi. Agar uchala granata ham nishonga yoki belgilangan joyga tegmasa (tushmasa), ishtirokchining umumiy mashqni bajarish vaqtiga jarima sifatida 10 soniya qo'shiladi.)

transheyadan sakrab chiqib, to'siqlar yo'lagi boshlanadigan marraga qadar 100 metr masofa yugurib o'tish orqali bayroqcha atrofidan aylanib o'tiladi;

eni 2.5 metr keladigan xandaq ustidan sakrab o'tiladi;

labirint yo'laklari bo'ylab yugurib, devordan oshib o'tiladi;

vertikal tushgan narvondan vayron bo'lgan ko'priknning ikkinchi (egilgan) to'sini ustiga chiqiladi;

to'sinlar bo'yab buzilgan qisimlardan sakrab o'tgan tarzda yugurib o'tiladi va so'nggi to'sin uchidan tik turgan holatda yerga sakrab tushiladi;

vayron bo'lgan zina poyaning 3 ta pog'onasi yengib o'tiladi. Bunda, zinapoya pog'onalarini orasidagi yerga ikkala oyoq bilan tegib tushish majburiy sanalib, 4-pog'onaning ostidan o'tiladi;

devordagi tuynik orqali o'tib, transheya ichiga sakrab tushiladi va yurish yo'lagi bo'ylab yurib o'tiladi;

quduq ichidan tashqariga otilib chiqiladi;

devordan sakrab oshib o'tiladi;

nishob zina bo'ylab 4-pog'onaga qadar yugurib chiqilib, vayron bo'lgan zina poya pog'onalarini bo'ylab pastga yugurib tushiladi;

eni ikki metr keladigan xandaq ustidan sakrab o'tiladi;

20 metr masofaga yugurib, bayroqchadan aylanib o'tiladi;

yo'lak bo'ylab 100 metr masofa yugurib o'tiladi.

Mashq shartiga ko'ra bir vaqtning o'zida 3 ta granata uloqtirish ta'qilanganadi.

Ishtirokchiga faqat o'z yo'lida yoki to'siq yo'lining yo'nalishi bo'ylab yugurishga ruxsat beriladi. Ushbu qoidani buzgan ishtirokchi shartdan chetlashtiriladi.

Agar to'siq oxirigacha biron bir sababga ko'ra oshib o'tilmasa ishtirokchi ushbu texnikani takrorlash uchun qaytadi.

Har bir to'siqni yengib o'tish uchun ishtirokchiga 3 ta urinishgacha imkoniyat beriladi.

Yugirish davomida ishtirokchining bosh kiyimi tushub qolsa, orqaga qaytib, bosh kiyimini olib keyin mashqni davom ettirish talab etiladi.

Harbiy kiyim dizayniga har qanday o‘zgartirishlarni kiritish, dala formasini ochish yoki qayta tayyorlash (yamoq cho‘ntaklari, yenglari, yoqasi va boshqa qismlari yo‘q bo‘lsa), qolaversa ularni yengillashtirish uchun standart dala botinkalarini boshqa oyoq kiyimi bilan o‘zgartirish ta’qilanganadi.

Kiyim rusumida ko‘rsatilgan kamchiliklar bo‘yicha ishtirokchiga ogohlantirish beriladi, uni bartarf etish uchun 10 daqiqa gacha vaqt beriladi. 2-martta qoidalarni buzgan ishtirokchi shartdan chetlatiladi va unga 0 ball beriladi.

Yagona to‘siqlar yo‘lagidan oshib otish natijalari quyagi jadval asosida baholanadi:

Vaqt (daq.)	Soniya ulushi									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1.40	1800	1796	1792	1788	1784	1780	1776	1772	1768	1764
1.41	1760	1756	1752	1748	1744	1740	1736	1732	1728	1724
1.42	1720	1716	1712	1708	1704	1700	1696	1692	1688	1684
1.43	1680	1676	1672	1668	1664	1660	1656	1652	1648	1644
1.44	1640	1636	1632	1628	1624	1620	1616	1612	1608	1604
1.45	1600	1596	1592	1588	1584	1580	1576	1572	1568	1564
1.46	1560	1556	1552	1548	1544	1540	1536	1532	1528	1524
1.47	1520	1516	1512	1508	1504	1500	1496	1492	1488	1484
1.48	1480	1476	1472	1464	1464	1460	1456	1452	1448	1444
1.49	1440	1436	1432	1428	1424	1420	1416	1412	1408	1404
1.50	1400	1396	1392	1388	1384	1380	1376	1372	1368	1364
1.51	1360	1356	1352	1348	1344	1340	1336	1332	1328	1324
1.52	1320	1316	1312	1308	1304	1300	1296	1292	1288	1284
1.53	1280	1276	1272	1268	1264	1260	1256	1252	1248	1244
1.54	1240	1236	1232	1228	1224	1220	1216	1212	1208	1204
1.55	1200	1196	1192	1188	1184	1180	1176	1172	1168	1164
1.56	1160	1156	1152	1148	1144	1140	1136	1132	1128	1124
1.57	1120	1116	1112	1108	1104	1100	1096	1092	1088	1084
1.58	1080	1076	1072	1068	1064	1060	1056	1052	1048	1044
1.59	1040	1036	1032	1028	1024	1020	1016	1012	1008	1004
2.00	1000	996	992	988	984	980	976	972	968	964
2.01	960	956	952	948	944	940	936	932	928	924
2.02	920	916	912	908	904	900	896	892	888	884
2.03	880	876	872	868	864	860	856	852	848	844

2.04	840	836	832	828	824	820	816	812	808	804
2.05	800	796	792	788	784	780	776	772	768	764
2.06	760	756	552	748	744	740	736	732	728	724
2.07	720	716	712	708	704	700	696	692	688	684
2.08	680	676	672	668	664	660	656	652	648	644
2.09	640	636	632	628	624	620	616	612	608	604
2.10	600	596	592	588	584	580	576	572	568	564
2.11	560	556	552	548	544	540	536	532	528	524
2.12	520	516	512	508	504	500	496	492	488	484
2.13	480	476	572	668	464	460	456	452	448	444
2.14	440	436	432	428	424	420	416	412	408	404
2.15	400	396	392	388	384	380	376	372	368	364
2.16	360	356	352	348	344	340	336	332	328	324
2.17	320	316	312	308	304	300	296	292	288	284
2.18	280	276	272	268	264	260	256	252	248	244
2.19	240	236	232	228	224	220	216	212	208	204
2.20	200	196	192	188	184	180	176	172	168	164
2.21	160	156	152	148	144	140	136	132	128	124
2.22	120	116	112	108	104	100	96	92	88	84
2.23	80	76	72	68	64	60	56	52	48	44
2.24	40	36	32	28	24	20	16	12	8	4
2.25	0									

26. Harbiy-sport kompleksi ko‘p kurashi g‘olibi va sovrindorlari musobaqaning to‘rtta sharti bo‘yicha to‘plangan umumiy ballar miqdori bilan aniqlanadi.

27. Jamoa xisobida o‘rinlar barcha (2 nafar) ishtirokchilar to‘plagan ballar miqdori bo‘yicha aniqlanadi. Ballar yuqori jadvalga muvofiq beriladi. G‘olib va sovrindorlarga tegishlichcha 1-, 2- va 3- o‘rinlar beriladi.

3-§. HARBIYLASHTIRILGAN ESTAFETA

28. Harbiylashtirilgan estafeta bahslarida ishtirokchilar AKM rusumli qurolni to‘liqsiz yoyish va yig‘ish, gazga qarshi niqobni kiyish va 12,00-20 o‘lchamdagisi ZIL-131 rusumli avtomobil g‘ildiragini aylantirib yugurish, har bir shart oralig‘ida 100 metrga yugurish sharti bajariladi.

Musobaqada 4 nafar ishtirokchi qatnashadi.

Musobaqa shartlari dala kiyimida, yuqori qo‘njli botinkada bajariladi.

Musobaqa futbol maydoni, yugurish yo‘lagi yoki boshqa bir tekis hududda o‘tkaziladi.

Musobaqa quyidagi tartibda o'tkaziladi:

start berilgach hakam tomonidan sekundomer bosiladi, har bir jamoa ishtirokchilarining dastlabki qurollari AKM rusumli qurolni noto'liq qismlarga yoyishadi (o'qdon yechilib qurol saqlagichdan olinadi, zatvor orqaga tortilib o'qsizlantirish uchun otish tepkisi bosiladi; stvol qopqog'i qutisi yechiladi; qaytaruvchi mexanizm yechiladi; zatvor ramasi yechiladi; zatvor zatvor ramasidan ajratiladi; gaz trubkasi yechiladi; shompol olinadi; penal qo'ndoqdan chiqariladi) va 100 metr masofaga yuguradi hamda estafeta tayoqchasini keyingi nuqtadagi jamoa a'zosiga topshiradi. Navbatdagi ishtirokchi bahslarga estafeta tayoqchasini olgandan so'ng qo'shiladi va gazga qarshi niqobni kiyishga kirishadi. Hakam gazga qarshi niqobni to'g'ri va to'liq kiyilganini tasdiqlagach ishtirokchi 100 metrga gaz niqobini kiygan xolda yuguradi, masofa bosib o'tilgach estafeta tayoqchasini keying ishtirokshiga topshiradi. Estafeta tayoqchasini olgan navbatdagi ishtirokchi 12,00-20 o'lchamdagagi ZIL-131 rusumli avtomobil g'ildiragini 100 metrga aylantirib yuguradi va belgilangan chiziqqa etib kelgach estafeta tayoqchasini keying ishtirokchiga beradi. Mazkur ishtirokchi noto'liq qismlarga yoyilgan AKM rusumli qurolini to'liq yig'adi (gaz trubkasi o'rnatiladi; zatvor zatvor ramasiga joylanadi; zatvor ramasi qurol qutisiga o'rnatiladi; qaytaruvchi mexanizm o'rnatiladi; stvol qopqog'i qutisi qo'yiladi; shompol joylashtiladi; penal qo'ndoqqa qo'yiladi; otish tepkisi bosilib, qurol saqlagichga qo'yiladi; o'qdon quronga o'rnatiladi) va 100 metr masofaga yugurib marra chizig'ini kesib o'tadi. Ishtirokchilar marraga etib kelgach hakam tomonidan sekundomer to'xtatiladi. Jamoa natijasi barcha ishtirokchilarning ko'rsatgan vaqt bilan hisoblanadi.

Musobaqani o'tkazish tartibiga ko'ra futbol maydoni yugurish yo'lagi "yoki boshqa tekis hudud"ning har bir 100 metrida estafeta shartini bajarish bo'yicha quyidagi nuqtalar jihozlanadi; birinchi nuqtada - AKM rusumli qurolini noto'liq qismlarga yoyish joyi; ikkinchi nuqtada - gazga qarshi niqobni kiyish joyi; uchinchi nuqtada - avtomobil g'ildiragini aylantirish joyi; to'rtinch nuqtada - AKM rusumli qurolini to'liq yig'ish joyi.

29. Harbiylashtirilgan estafeta bahslarida barcha shartlarni yuqori ko'rsatgichlar bilan yakunlagan jamoa a'zolari qo'lga kiritgan natijalariga ko'ra mazkur musobaqaning g'olib va sovrindorlari deb topiladi. Ularga tegishliligicha 1-, 2- va 3- o'rinalar b'eriladi.

4-§. Milliy kurash

30. Milliy kurash musobaqasi amalda qo'llanilayotgan Xalqaro milliy kurash qoidalariga asosan olimpiya tarzida o'tkaziladi.

Musobaqada xar bir jamoadan 3 nafardan ishtirokchi o'z vazn toifasida bellashadi.

Ishtirokchilar quyidagi vaznlarda bellashadi:

60 kg gacha vaznda;

65 kg gacha vaznda;

70 kg gacha vaznda.

Milliy kurash musobaqasi qatnashchilari odatga ko'ra o'z vazn toifalariga mos kelishi zarur, belgilangan vazndan ortiqchasi ruxsat berilmaydi. Ishtirokchilarning kurashish vaqt 4 daqiqadan iborat. Xar bir qatnashuvchi faqat bir vazn toifasida ishtirok etish huquqiga ega.

31. Xar bir vazn toifasida final va uchinchi o'rinni uchun o'tkazilgan bahslarda g'olib va sovrindorlar aniqlanadi.

Bahslarni eng yaxshi natijalar bilan yakunlagan jamoa a'zolari mazkur musobaqaning g'olib va sovrindorlari deb topiladi. Ularga tegishliligicha 1-, 2- va 3-o'rinalar beriladi.

Jamoa hisobida o'rinalar ishtirokchilar egallagan o'rinalar yig'indisi bo'yicha aniqlanadi

5-§. O'q otish sporti

32. O'q otish sporti bo'yicha ishtirokchilar Pnevmatik quroldan maxsus belgilangan nazorat otish mashqini bajaradi.

Musobaqada har bir jamoa o‘zлari bilan belgilangan tartibda olib kelingan Pnevmatik quroл bilan ishtirok etadi. Agar jamoalar o‘zлari bilan quroл olib kelmagan bo‘lsa, ushuл hollarda tanlovga mezbonlik qilayotgan vazirlik yoki idora tomonidan quroлlar bilan ta’milanadi.

Quroлlarni me’yoriy otish holatiga keltirishi uchun o‘q otish musobaqasi boshlanishidan bir kun oldin jamoalarga qo‘srimcha vaqt va har bir quroл uchun kamida 20 donadan o‘q beriladi. O‘qlar tanlovga mezbonlik qilayotgan vazirlik yoki idora tomonidan ta’milanadi. Boshqa jamoalarni musobaqaga o‘zлari bilan o‘q-dorilar olib kelishi qat’iyan taqiqanadi.

O‘q otish musobaqasida har bir jamoadan 2 nafardan ishtirokchi qatnashadi. Qatnashuvchilar mashqni dala kiyimida bajaradi.

O‘q otish sporti bo‘yicha musobaqa quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

o‘q otish mashqi yotgan holda bajariladi;

dastlab ishtirokchilar 3 dona o‘q bilan nazorat otishni amalga oshiradi. Keyingi navbatda ishtirokchilar 10 dona o‘q bilan asosiy otish mashqini amalga oshiradi.

Mazkur otish natijalari asosiy hisoblanadi.

Ishtirokchilar 10 metr masofadagi 4-raqamli sport nishonga o‘q otadi. Otish vakti cheklanmagan. Sinov sharti bo‘yicha 10 dona o‘q bilan bajarilgan mashq ochkolariga ko‘ra ishtirokchilar o‘rinlari aniqlanadi. Mashq faqat kunduzi bajariladi.

O‘q otish jarayonida otuvchining aybi bo‘lmagan to‘xtalishlardagi va texnik sabablarga ko‘ra otilmagan o‘qdorilar hakamning ruxsati bilan boshqasiga almashtiriladi. Otish natijalarini ko‘rish uchun (faqat nazorat otish natijalarini) musobaqa hakami va o‘q otishni bajargan ishtirokchilarga ruxsat beriladi.

33. G‘olib va sovrendorlar musobaqada ko‘rsatilgan natijasiga ko‘ra aniqlanadi. Jamoa hisobida o‘rinlar barcha (2 nafar) ishtirokchilar egallagan o‘rinlar yigindisi bo‘yicha aniqlanadi (ikki ishtirokchining egallagan o‘rinlari umumlashtirilib, eng kam mikdordagi o‘rinlar yigindisiga ko‘ra jamoalar o‘rni aniqlanadi).

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

36. Tanlov yakunida kotib tomonidan bayonnomma rasmiylashtiriladi va bayonnomani hay’at a’zolari imzolaydi, hay’at raisi tasdiqlaydi. Har bir sport turining natijalar qaydnomasi hakamlar tomonidan imzolanadi.

37. Tanlov hay’ati a’zolariga (hakamlariga) jamoalarning kattalari va ishtirokchilar tomonidan yozma yoki og‘zaki ravishda apellyatsiya berilishi mumkin. Ushbu apellyatsiya asoslangan va tanlovning mazkur Nizom shartlari doirasida bo‘lishi hamda musobaqa sharti yakunlanganidan so‘ng, bir soatgacha berilishi lozim.

38. Hay’at a’zolari (hakamlar) olingen apellyatsiyani qisqa vaqt ichida ko‘rib chiqib, zudlik bilan yoki 1 soatgacha vaqt mobaynida apellyatsiya beruvchiga javob berishi lozim. Hay’at raisi apellyatsiya bo‘yicha yakuniy qaror chiqaruvchi organ hisoblanadi.

39. Ishtirokchilarining kelib-ketishi, yo‘llarda xarakatlanish xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha barcha tashkiliy chora-tadbirlarni ko‘rish Respublikamizdagи “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari va “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyining o‘z zimmasiga yuklatiladi.

40. Qatnashuvchi o‘quvchilar o‘zлari bilan oziq-ovqat shahodatnomalari olib kelishlari lozim

41. O‘quvchilarga biriktirilgan shaxslar o‘z hisobidan ovqatlanishi belgilanadi.

**Prezient, Ijod va Ixtisoslashtirilgan maktablarining “Vatan tayanchi” otryad
a’zolari o’rtasida “Turon yo‘lbarslari” harbiy-sport
musobaqalarini o’tkazish tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

“Turon yo‘lbarslari” harbiy-sport musobaqalari (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) Prezient, Ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarida tahsil olayotgan “Vatan tayanchi” otryad a’zolari (bundan buyon matnda Prezient, Ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar deb yuritiladi) bilan tashkil etiladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Musobaqalar jamoaviy tartibda ixtisoslashtirilgan maktablar o’rtasida har yili mart-may oylari davomida o’tkaziladi.

2. Musobaqa ishtirokchilari Nizomda belgilangan talabnomaga asosida musobaqada ishtirok etadi.

3. Musobaqani tashkil etishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni harbiy-amaliy sport musobaqalariga keng jalb etish, o‘zaro madaniy-sport aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda yoshlarni sport o‘yinlariga ommaviy tarzda jalb qilish, sog‘lom turmush tarziga rioya qiladigan, dastlabki harbiy va psixologik tayyorgarlikka ega, buyuk ajdodlarimiz kabi mard, halol, jismonan baquvvat, bilimli, keng dunyoqarashli, vatanparvar, mas’uliyatli, qiyin va ekstremal vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini egallagan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

2-bob. Musobaqani tashkil etish va o’tkazish

4. Musobaqa quyidagi bosqichlarda ixtisoslashtirilgan maktablar o’rtasida jamoaviy tartibda:

I bosqich – tuman (shahar) birinchiligi bosqichi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o’rtasida – har yili 10 aprelgacha – Maktabgacha va mакtab ta’limi bo‘limi, Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiya qo‘mondonligiga biriktirilgan harbiy qismlar tomonidan;

II bosqich – viloyat (yakuniy) – hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bosqichi – har yili 15 maygacha – Maktabgacha va mакtab ta’limi boshqarmasi, Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiya qo‘mondonligiga biriktirilgan harbiy qismlar tomonidan o’tkaziladi.

5. Musobaqa belgilangan tartibda quyidagi joylarda o’tkaziladi, jumladan:

hududdagi sport majmuasida yoki biriktirilgan harbiy qism (dala-o‘quv maydoni) bazasida tuman va viloyat (yakuniy) bosqichi o’tkaziladi.

6. Musobaqada jamoaviy 1, 2 va 3-o‘rin g‘oliblari faqat ixtisoslashtirilgan maktablarning o‘quvchi-ishtirokchilari o’rtasida aniqlanadi.

7. Musobaqani tayyorlash va o’tkazishda ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari, Mudofaa vazirligi hamda Milliy gvardiyaga biriktirilgan harbiy qism jangovar tayyorgarlik ofitserlari, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, harbiy tibbiy shifokorlar ishtirok etadi.

8. Musobaqa davomida yuzaga kelgan muammolar tegishli tashkiliy qo‘mita tomonidan hal etiladi.

9. Musobaqaning hakami O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tayinlanadi.

10. Musobaqa hay’ati tarkibiga:

Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligini tegishli mutaxassislari;

Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiya tegishli mutaxassislari (kelishuv asosida) hakamlar sifatida kiritiladi.

Musobaqa hay’ati kotibi, navbatchi shifokor (avtomobil), shuningdek, musobaqani tashkillashtirish, musobaqalarni o’tkazish joyi, vaqt va ketma-ketligi belgilanadi.

11. Musobaqa hay’ati raisi:

musobaqa hay'ati tarkibining tayyorgarligi va ish faoliyati, musobaqani tashkillashtirish hamda o'tkazishga rahbarlik qiladi;

musobaqlarni o'tkazish joylari, sport vositalari va jihozlarini musobaqaga tayyorgarligini tashkillashtiradi;

musobaqa shartlarini qo'pol ravishda buzgan ishtirokchilarni musobaqa hay'ati a'zolari bilan kelishilgan holda, musobaqadan chetlatish masalasini hal etadi;

musobaqa hay'ati a'zolari (hakamlar) tomonidan musobaqalarning to'g'ri o'tkazilishini, ishtirokchilarni shaffoflik bilan baholanishini nazorat qiladi;

musobaqa hay'ati a'zolari (hakamlar) bilan har bir musobaqa boshlanishi va musobaqa yakunida yig'ilish o'tkazadi, ishtirokchilarning natijalarini ko'rib chiqadi va muhokama qiladi;

musobaqlar jarayonida noto'g'ri xatti-harakatlar, qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilsa yoki tibbiyot xodimlarining yo'qligi aniqlansa, musobaqaning ushbu shartini to'xtatadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi;

musobaqa hay'ati a'zolari (hakamlar) ishida noxolislikni, musobaqa ishtirokchilariga yon berish kabi holatlar aniqlansa, ularni boshqa a'zolar (hakamlar) bilan almashtiradi;

musobaqa hay'ati a'zolari bilan ishtirokchi jamoalar tomonidan berilgan apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqib, muhokama qiladi va ular yuzasidan shaxsan asoslangan qaror qabul qiladi hamda shikoyatni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida murojaat etuvchilarga yozma ravishda javob beradi;

musobaqa hay'ati a'zolari (hakamlar)ning noto'g'ri va asossiz qarorlarini bekor qiladi;

musobaqa yakuni natijalarini (g'olib va sovrindorlarni) buyruq bilan e'lon qiladi.

12. Musobaqa hay'ati:

musobaqa davomida musobaqlarni mazkur Nizomga muvofiq o'tkazilishi, ishtirokchilarning haqqoniy va shaffof tarzda baholanishi, erishilgan natijalarga asoslanib g'olib va sovrindorlarni aniqlaydi;

musobaqlarni o'tkazish joylari, sport (maxsus) jihozlari va vositalarining tayyorligi va sozligini ta'minlaydi;

ishtirokchilarga musobaqa shartlarini, xavfsizlik qoidalarini yetkazadi, tushuntirish ishlarini olib boradi va ishtirokchilardan musobaqa shartlari to'g'ri bajarilishini talab qiladi;

ishtirokchilar tomonidan musobaqa shartlarini qo'pol ravishda buzish holatlari aniqlasa, ularning musobaqalarda ishtirok etishi masalasini ko'rib chiqadi;

musobaqa hay'ati raisi boshchiligidagi musobaqa boshlanishida va ushbu musobaqa yakunida o'tkaziladigan yig'ilishda ishtirokchilar ko'rsatgan natijalarni ko'rib chiqadi;

musobaqlar davomidagi o'zgarishlar to'g'risida ishtirokchi va jamoa kattalariga o'z vaqtida ma'lumot beradi;

apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

13. Musobaqa hay'ati kotibi:

musobaqlarga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq barcha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi, tegishli hujjatlarni (ishtirokchilarning hujjatlari va ro'yxatlarini) tekshiradi va rasmiylashtiradi;

qur'a tashlash jarayonini tashkillashtiradi va unda ishtirok etadi;

musobaqlar jarayonida bevosita ishtirok etadi, musobaqa hay'ati tomonidan qabul qilingan qarorlarni, ishtirokchilar ko'rsatgan natijalarni umumlashtiradi va musobaqa bayonnomalarini, yakunlovchi hujjatlar hamda hisobotlarni rasmiylashtiradi.

14. Navbatchi shifokor:

har bir musobaqa boshlanishidan avval ishtirokchilarning tibbiy ma'lumotnomalarini o'rganadi va ularning sog'ligini holatiga ko'ra musobaqalarda ishtirok etishi bo'yicha xulosa beradi;

musobaqlar o'tkaziladigan joylarda ishtirokchilarning dam olishi, ovqatlanishi, yuvinish xonalarida sanitariya-gigiena qoidalariiga rioya qilinishini nazorat qiladi hamda ishtirokchilarning sog'ligini muntazam ravishda nazorat qilib boradi, zarur hollarda ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadi;

har bir holat va amalga oshirilgan ishlar to'g'risida musobaqa hay'ati raisiga ma'lumot beradi.

15. Bosh hakam musobaqlarning turlari bo'yicha tayinlanadi va hakamlar tomonidan ishtirokchilarni to'g'ri baholanishi hamda musobaqani shaffoflik bilan o'tkazilishiga javob beradi.

Bosh hakam musobaqa boshlanishidan oldin musobaqa o'tkaziladigan joylarni, ularning jihozlanganligi va tayyorligini tekshiradi, muammo yoki kamchiliklar aniqlansa ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarini ko'radi.

16. Hakamlar musobaqalarni to'g'ri va odilona baholanishiga javob beradi. Hakamlar musobaqa hay'ati raisi va bosh hakamga bo'ysunadi va ularning ko'rsatmalariga amal qiladi.

17. Hakamlar musobaqada musobaqa hay'ati raisi yoki bosh hakam tomonidan belgilab berilgan kiyim rusumida ishtirok etadi.

3-bob. Musobaqa ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari

18. Musobaqa ishtirokchilari quyidagilarga majbur:

musobaqani o'tkazish to'g'risidagi Nizom talablarini bilish va unga so'zsiz rioya qilish;
musobaqa davomida o'zini munosib tutish va boshqalarni ham nomunosib xattisharakatlarga yo'l qo'ymasligini ta'minlash;

musobaqalarni o'tkazish joyida ko'rsatilgan vaqtida belgilangan kiyim rusumida bo'lish;
musobaqalar ishtirokchilari va hakamlar hamda hay'at a'zolariga doimo xushmuomala munosabatda bo'lish;

zarurat tug'ilgan hollarda hakamlar hamda hay'at a'zolariga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilish;

musobaqa uchun belgilangan kun tartibi va boshqa tartib-qoidalarga qat'iy rioya etish;
hakamlar va hay'at a'zolarining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish;
musobaqa davomida o'rnatilgan kun tartibi, musobaqalar shartlari va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etishga.

19. Musobaqa ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

musobaqalar oldidan hakamlar va hay'at a'zolari ruxsati bilan mustaqil ravishda badantarbiya mashqlari bilan shug'ullanish, musobaqa qurollari, maxsus vosita va jihozlar bilan yaqindan tanishish;

musobaqa jarayonida hakamlar hamda hay'at a'zolariga Nizom talablaridan kelib chiqqan holda og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilish (ariza va shikoyat berish);

musobaqa davomida nohaqlik yoki shaffoflik ta'minlanmayotganligi aniqlangan hollarda hakamlar hamda hay'at a'zolariga ma'lumot berish;

musobaqalar davomida ko'rsatgan natijalari bilan tanishib borish.

20. Musobaqada ishtirok etayotgan har bir maktab jamoasiga 1 nafar katta (jamoा kattasi) va 2 nafargacha murabbiy tayinlanadi. Jamoa kattasi va murabbiylar ishtirokchilarining intizomi, sog'ligi va ular tomonidan xavfsizlik talablari hamda musobaqada belgilangan tartib-qoidalarni qat'iy bajarilishi uchun javob beradi. Musobaqa jarayonida jamoa tomonidan musobaqa shartlari to'g'ri bajarilishini nazorat qiladi. Hakamlar va hay'at a'zolari tomonidan qabul qilingan qaror va berilgan ko'rsatmalarini o'z jamoa a'zolariga zudlik bilan yetkazadi.

Jamoа kattasi hakamlar va hay'at a'zolaridan o'z jamoa a'zolarining natijalariga aniqlik kiritish, zarurat bo'lgan hollarda yozma yoki og'zaki ravishda murojaat qilish huquqiga ega.

Nizomda ko'rsatilmagan tartibda hakamlar va hay'at a'zolarining qarorlariga qarshilik ko'rsatish, ularga bo'ysunmaslik hamda jamoa a'zolariga qoidalarga zid ravishda yordam berish taqiplanadi.

21. Musobaqada mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritgan, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkaziladigan tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan ixtisoslashtirilgan maktab bitiruvchilari umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash hamda yakka tartibda suhbat o'tkazish bo'yicha tanlov kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilishi mumkin.

4-bob. Musobaqada qatnashish shartlari

22. Ishtirokchilar: o'quvchilar (har bir jamoadan 7 nafar o'g'il bolalar va 3 nafar qiz bolalar) bir xil turdag'i sport kiyimida ishtirok etadi.

Kiyim rusumida ko‘rsatilgan kamchiliklar aniqlangan ishtirokchiga ogohlantirish beriladi, uni yo‘q qilish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi, ikkinchi marta qoidalarni buzgan ishtirokchi (jamoa) shartdan chetlatiladi.

23. Musobaqada ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi shart:
shaxsini tasdiqlovchi hujjat (fuqarolik pasporti, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma);
yashash va o‘qish joyidan ma’lumotnomma (fotosurati muhrlangan holda);
qatnashuvchilarni musobaqaga saralab olinganligi va musobaqlarda ishtirok etishiga
ruxsat beruvchi tegishli buyruqlardan ko‘chirma;

ishtirokchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalari.

24. Musobaqa o‘tkazish kuniga qadar ishtirokchilar 18 yoshdan oshmagan bo‘lishlari
shart. Barcha ishtirokchilar musobaqa boshlanishidan oldin mandat komissiyasidan o‘tadi.

5-bob. Musobaqani o‘tkazish tartibi

25. Musobaqa dasturi mazmuni:

a) Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari o‘rtasida “Turon yo‘lbarslari” harbiy-sport
musobaqalarining tantanali ochilishi;

b) Musobaqa bosqichlarini tashkil etish;

v) Musobaqaning asosiy bosqichlarini baholash va g‘oliblarni aniqlash;

g) Musobaqa g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash.

26. Musobaqalarning asosiy bosqichlari shartlari:

1) “Temur tuzuklari bilimdoni”;

2) “Kamondan otish”;

3) “Qurolni to‘liq bo‘lmagan qismlarga ajratish va yig‘ish”;

4) “Sport (pnevmatik) qurolidan o‘q otish”;

5) “Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish”;

6) “Turnikda tortilish”;

7) “O‘g‘il bolalar 1000 metrga, qizlar 100 metrga yugurish”.

27. Musobaqa ishtirokchilari quyidagi qo‘sishimcha nominatsiyalar bo‘yicha taqdirlanadi:

“Eng kuchli sportchi”;

“Eng yaxshi mergan”;

“Temur tuzuklari bilimdoni”.

6-bob. Musobaqa jarayoni

28. Musobaqaning asosiy bosqichlari quyidagicha o‘tkaziladi:

1-bosqich “Temur tuzuklari bilimdoni”:

“Temur tuzuklari bilimdoni” tanlovida ishtirokchilar tomonidan kompyuterda “MY test”
dasturi orqali 15 tadan 30 tagacha bo‘lgan test savollariga javob beriladi.

Tanlovda har bir jamoadan 3 nafardan ishtirokchi qatnashadi (2 nafar o‘g‘il bola va 1 nafar
qiz bola).

Ishtirokchilarning savollarga javob berish vaqtini va baholanishi “MY test” dasturi orqali
amalga oshiriladi.

To‘g‘ri javob uchun “1” ball, noto‘g‘ri javob uchun “0” ball qo‘yiladi. Bunda yuqori ball
olgan jamoa g‘olib bo‘ladi.

2-bosqich “Kamondan otish”

Mazkur shartda har bir jamoadan 1 nafar ishtirokchi qatnashadi. Ushbu shartda 10 metr
masofaga o‘rnatilgan kamondan otish sporti maxsus nishoni o‘rnatiladi va har bir jamoa
ishtirokchisi 5 marotabadan kamondan otishni amalga oshiradi. Hakamning buyrug‘iga
(ishorasiga) asosan, shartni bajarishga kirishadi.

G‘oliblarni aniqlash kamondan otish shartida aniqlik bilan eng ko‘p ball qo‘lga kiritganligiga qarab belgilanadi. Shartni bajarish tartibi va elementlariga rioya qilish bo‘yicha talablarni hay’at tarkibi belgilaydi va 10 balli tizimda baholaydi. Mazkur shart harbiy kiyim rusumida bajariladi.

Mazkur shart bo‘yicha baholashda ishtirokchilarning shartni to‘g‘ri bajarishi inobatga olinadi. Shartni bajarishdagi xatolikning har biri uchun jarima qo‘llaniladi.

3-bosqich “Qurolni to‘liq bo‘limgan qismlarga ajratish va yig‘ish”.

Ushbu bahsda ishtirokchilar AK-74 rusumli qurolni to‘liqsiz qismlarga ajratish va yig‘ishni bajarishadi.

Har bir shart oralig‘ida 25 metrga yugurish sharti bajariladi.

Ushbu shartda 2 nafar ishtirokchi qatnashadi.

Musobaqa futbol maydoni yugurish yo‘lagi yoki boshqa bir tekis hududda o‘tkaziladi.

Shart quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

start berilgach hakam tomonidan sekundomer bosiladi, har bir jamoa ishtirokchilarining dastlabki vakillari AK-74 rusumli qurolni “Qurol orqaga” holatiga oladi va mashq uchun ajratilgan boshqa AK-74 rusumli qurolni noto‘liq qismlarga yoyishadi (o‘qdon yechilib qurol saqlagichdan olinadi, zatvor orqaga tortilib o‘qsizlantirish uchun otish tepkisi bosiladi; stvol qutisi qopqog‘i yechiladi; qaytaruvchi mexanizm yechiladi; zatvor ramasi yechiladi; zatvor zatvor ramasidan ajratiladi; gaz trubkasi yechiladi; shompol olinadi; penal qo‘ndoqdan chiqariladi) va 25 metr masofaga yuguradi hamda belgilangan joyga yetib kelgandan keyin orqasiga ilingan AK-74 qurolni yelkasidan yechadi, qurolni noto‘liq qismlarga ajratadi.

Hech qanday komandasiz dastlabki joyga yugurib boradi va keyingi ishtirokchi bilan qo‘llarini bir-biriga uradi hamda 2-ishtirokchi 25 metr masofaga yugurib borib, belgilangan joyda noto‘liq qismlarga ajratilgan AK-74 qurolini to‘liq (gaz trubkasi o‘rnataladi; zatvor zatvor ramasiga joylanadi; zatvor ramasi qurol qutisiga o‘rnataladi; qaytaruvchi mexanizm o‘rnataladi; stvol qutisi qopqog‘i qo‘yiladi; shompol joylashtiriladi; penal qo‘ndoqga joylanadi; otish tepkisi bosilib, qurol saqlagichga qo‘yiladi; o‘qdon quronga o‘rnataladi) yig‘adi.

Qurol orqa holatiga olinadi, 25 metr masofaga yuguriladi va marra chizig‘ini kesib o‘tadi. Ishtirokchilar musobaqa shartlarini to‘liq bajarib marraga yetib kelgach hakam tomonidan sekundomer to‘xtatiladi. Jamoa natijasi barcha ishtirokchilarining ko‘rsatgan vaqt bilan hisoblanadi.

Musobaqani o‘tkazish tartibiga ko‘ra futbol maydoni yugurish yo‘lagi (yoki boshqa tekis hudud)da estafeta shartini bajarish bo‘yicha quyidagi nuqta jihozlanadi: stol ustida, AK-74 rusumli qurolni noto‘liq qismlarga ajratish va to‘liq yig‘ish joyi.

AK-74 rusumli qurolni noto‘liq qismlarga ajratish yoki yig‘ishni bajarish vaqtida ketma-ketlik tartibi o‘zgartirilishiga **ruxsat beriladi**.

AK-74 rusumli qurolni noto‘liq qismlarga ajratish yoki yig‘ishni bajarishda qurol qismlari yerga tushib ketganda, yerdan olib stol ustiga **qo‘yilishi shart**.

Natijasi bo‘yicha musobaqa shartlarini to‘liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan jamoa estafeta g‘olibi hisoblanadi.

4-bosqich “Sport qurolidan o‘q otish”.

Musobaqada ishtirokchilar pnevmatik qurolidan maxsus belgilangan nazorat otish mashqini bajaradi.

Har bir jamoa musobaqaga mezbonlik qilayotgan MK “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan qurollar va o‘q-dorilar bilan ta‘minlanadi. Jamoalarga o‘zlari bilan qurol va o‘q-dori olib kelish **taqiqilanadi**.

Musobaqada har bir jamoadan 2 nafardan ishtirokchi qatnashadi (1 nafar o‘g‘il bola va 1 nafar qiz bola).

Musobaqa quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

har bir ishtirokchi mashqni navbat bilan tik turgan holda bajaradi;

dastlab ishtirokchilar 3 dona o‘q-dori bilan nazorat otishni amalga oshiradi;

keyingi navbatda ishtirokchilar 5 dona o‘q-dori bilan sinov otishni bajaradi. Sinov otish natijalari asosiy hisoblanadi.

Ishtirokchilar 10 metr masofadagi 9-raqamli sport nishonga o‘q otadi. Otish vaqt cheklanmagan. Sinov sharti bo‘yicha 5 dona o‘q-dori bilan bajarilgan mashq ballariga ko‘ra ishtirokchilar o‘rni aniqlanadi.

Mashq faqat kunduzi, jihozlangan tirda bajariladi.

Otish jarayonida otuvchining aybi bo‘lmagan to‘xtalishlardagi va texnik sabablarga ko‘ra otilmagan o‘q-dorilar hakamning ruxsati bilan boshqasiga almashtiriladi. Otish natijalarini ko‘rish uchun musobaqa hakami va o‘q otishni bajargan ishtirokchilarga ruxsat beriladi.

5-bosqich “Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish”.

Mashqda kerak bo‘ladigan tibbiy tabel vositalar: qon to‘xtatuvchi rezina jgut, qon to‘xtatuvchi turniket, tibbiy zambil, marker.

Mashqni bajarish tartibi: mashq jabrlanganga birinchi yordam ko‘rsatish amaliy ko‘nikmalarini bajarishga asoslangan. Bunda o‘ng yelka pastki uchligidan tashqi arterial qon ketishni tibbiy tabel vositalari (rezinali jgut, turniket) yordamida vaqtincha to‘xtatish talab etiladi. Tashqi arterial qon ketishni to‘xtatish uchun qo‘llanadigan tibbiy tabel vosita mashq boshlanishidan oldin jamoa kattalari ishtirokidagi qur‘a tashlash jarayonida aniqlanadi.

Qon ketishni rezina jgut yordamida to‘xtatish usuli (mashq bajarish tartibi):

rezina jgut jarohatlangan oyoq va qo‘llardagi qonayotgan jarohatdan yuqorida tanaga birikkan sohasiga qo‘yiladi;

rezina jgutni albatta kiyim ustidan yoki qo‘yiladigan sohaga mato o‘rab so‘ng ustidan qo‘yish talab etiladi;

rezina jgut qo‘yishda birinchi o‘ram tortilgan holda bo‘lib, keyingi o‘ram avvalgi o‘ramning 3/2 qismini yopishi hamda pastdan yuqoriga qarab bog‘lanishi lozim;

jgutning uchidagi teshiklar ikkinchi uchidagi plastmassali maxsus tugmaga kiritiladi;

rezina jgut qo‘yilgan vaqt marker bilan jabrlangan peshonasiga yozib qo‘yiladi.

Qon ketishni turniket yordamida to‘xtatish usuli (mashq bajarish tartibi):

Avval hosil qilingan turniket halqasidan yaralangan qo‘l yoki oyoq o‘tkaziladi;

Turniket tasmasi yaradan yuqorida o‘raladi, birinchi uchi yo‘naltiruvchi kamarbanddan o‘tkaziladi;

Turniketni jarohatlangan oyoq va qo‘llardagi qonayotgan jarohatdan yuqorida tanaga birikkan sohasiga qo‘yiladi;

Turniket tasmasi yo‘naltiruvchi kamarband orasidan mahkam tortilganiga ishonch hosil qilinadi;

Turniket yopishqog‘ini turniketning butun tanasi bo‘ylab shoxchalargacha yopishtirib qo‘yiladi;

Turniket tasmasi oxirgi uchini shoxchalar orasiga va tayoqcha atrofiga joylashtirib qo‘yiladi; “Shoxcha”lar yordamida tayoqcha mahkamlanadi;

Turniket tayoqchasi qon to‘xtaguncha buraladi;

Vaqtni qayd qiluvchi tasma yopishtirilib, ustiga turniket qo‘yilgan vaqt yoziladi.

Mashq bajarish tartibi: jamoa kattalari qaroriga ko‘ra 3 nafar ishtirokchi mashq bajarish uchun ajratiladi. Mashq 25 metr o‘lchangan chimli maydonda o‘tkaziladi. Yarador 25 metrlik nuqtada chalqancha yotgan holda maydon eniga parallel joylashtiriladi. Qur‘a tashlash marosimida aniqlangan tartibda ikkitadan jamoalar bir vaqtning o‘zida parallel mashq bajaradilar. Start belgisida ikkita ishtirokchi tibbiy zambilni bir vaqtning o‘zida ko‘tarib turadi. Turniket yoki rezina jgut amal bajaradigan ishtirokchi qo‘lida bo‘ladi. Bosh hakamning “Mashq bajarishga kirishilsin” buyrug‘iga asosan sekundomer ishga tushiriladi, 2 (ikki) nafar ishtirokchi 25 (yigirma besh) metr masofaga yarador yoniga zambil ko‘tarib yugurib borishadi. Zambilni yaradorga o‘ziga qulay tomondan parallel qo‘yib, turniket (rezina jgut) olib kelgan ishtirokchi yarador o‘ng yelkasiga yuqoridagi tartib asosida turniket yoki (rezina jgut) qo‘yadi, so‘ng ikkala ishtirokchi bir vaqtning o‘zida bir nafari yaradorni qo‘ltiq ostidan ikkinchi nafari oyoqlaridan ko‘tarib avaylab tibbiy zambilga yotqizib, yaradorni boshini finish belgisiga qaratib ko‘tarib olib kelishadi. Finish chizig‘idan o‘tganda hakam sekundomerni to‘xtatadi.

Hakamlar turniket (rezina jgut) to‘g‘ri qo‘yilganligini tekshiradilar.

Jarima ballari:

Yaradorni tibbiy zambilga joylashtirish va tashish vaqtida:

Yaradorni tibbiy zambilga teskari yotqizilsa, ya’ni olib kelinganda yarador oyoqlari finish tomonga qarab tursa **15 sekund qo‘shiladi**;

Yaradorni tibbiy zambilga tashish vaqtida ishtirokchilar yaradorni tushirib yuborsa **60 sekund qo‘shiladi**;

Yaradorni tibbiy zambilga joylashtirishda uni avaylamasdan ikkilamchi jarohatga olib keladigan keskin harakatlar kuzatilsa **30 sekund qo‘shiladi**;

Rezinali jgut:

rezina jgut qo‘yilgan qo‘ldagi bilak arteriyasida puls aniqlansa, mashq bajarilmagan deb hisoblanadi;

rezina jgutdan foydalanganda yarador peshona sohasiga markerda vaqt yozilmasa, rezina jgut o‘ng qo‘l yelka sohasining tanaga birikkan sohasidan pastroqda qo‘yilsa, oldingi va keyingi jgut o‘ramlari orasi ochilib qolsa, jgutning uchidagi teshiklar ikkinchi uchidagi plastmassali maxsus tugmaga kiritilmasa yoki bog‘lab qo‘yilsa **30 sekund qo‘shiladi**.

Qon to‘xtatuvchi turniket:

turniket qo‘yilgan qo‘ldagi bilak arteriyasida puls aniqlansa, mashq **bajarilmagan deb hisoblanadi**;

Turniketdan foydalanishda vaqt belgisi uchun maxsus joyga vaqt yozilmasa, turniket qo‘yishda birinchi o‘ram uchini yo‘naltiruvchi kamarbanddan o‘tkazilmasa, qizil rang bilan belgilangan uchini oxirigacha o‘ramasdan vaqtini qayd qiluvchi tasma yopishtirib qo‘yilsa, turniket o‘ng qo‘l yelka sohasining tanaga birikkan sohasidan pastroqda qo‘yilsa **30 sekund qo‘shiladi**.

Mashq natijasi bo‘yicha musobaqa shartlarini to‘liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan jamoa ushbu shart g‘olibi hisoblanadi.

6-bosqich. “Turnikda tortilish”.

Turnikda tortilish shartida jamoaning 7 nafar a’zosi (o‘g‘il bolalar) ishtirok etadi. Shart ishtirokchilarining turnikdagi jami tortilishi yozib boriladi hamda ularni qo‘shgan holda umumiy soni hisoblanadi.

Shart hakamlar hay’atining barcha a’zolari tomonidan o‘zaro kelishilgan holda “10” ballik tizimda baholanadi. Jamoa a’zolarining tortilishlar soni umumlashtirilib, eng ko‘p tortilgan jamoaga yuqori ball, kam tortilgan jamoaga past ball beriladi.

7-bosqich. “O‘g‘il bolalar 1000 metrga, qizlar 100 metrga yugurish”.

O‘g‘il bolalar 1000 metrga, qizlar 100 metrga yugurish shartida jamoadagi o‘g‘il bolalar 1000 metrga, qiz bolalar 100 metrga yuguradi. Belgilangan marraga eng oxirida yetib kelgan jamoa a’zosining vaqtini yozib qo‘yiladi va jamoalarga shu vaqt bo‘yicha ball beriladi.

Shart hakamlar hay’atining barcha a’zolari tomonidan kelishilgan holda “15” ballik tizimda baholanadi. Agarda jamoa a’zolaridan biri ushbu shartga ayrim sababalarga ko‘ra qatnashmasa yoki marraga yetib kelmasa umumiy baldan 2 ball olib tashlanadi.

Shartni eng qisqa vaqtida bajargan jamoa eng yuqori ball, shartni eng uzoq vaqtida bajargan jamoaga eng past ball beriladi.

7-bob. G‘olib va sovrindorlarni aniqlash

29. Musobaqada jamoaviy o‘rinlar mazkur Nizomda ko‘rsatilgan har bir bosqich bo‘yicha alohida g‘olib jamoa aniqlanadi hamda g‘olib va sovrindor jamoalarga tegishli ravishda 1-, 2- va 3-o‘rinlar beriladi.

Agar jamoa biror bir shartda ishtirok etmasa, ushbu jamoaga musobaqa yakuniga ko‘ra ko‘rsatgan natijalaridan qat’iy nazar eng so‘nggi o‘rin beriladi.

Umumjamoa hisobida 1-, 2- va 3-o‘rinlar jamoalarning har bir shart bo‘yicha egallagan o‘rinlarining eng kam soni yig‘indisi bo‘yicha aniqlanadi. Agar yakunda jamoalarning natijalari bir xil ko‘rinishni aks etsa, unda umumjamoaviy o‘rinlar jamoalar tomonidan eng ko‘p egallagan

1-, 2-, 3-o‘rirlarga qarab belgilanadi. Ushbu holatlarda ham bir xillik aks etsa, unda “Temur tuzuklari bilimdoni” shartida yuqori o‘rinni egallagan jamoaga ustunlik beriladi.

30. Musobaqa g‘oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

tuman (shahar) birinchiligi bosqichi hamda viloyat (yakuniy) – hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bosqichi g‘oliblari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining I, II va III darajali diplom, kubok, har bir jamoa a’zosi medal hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

31. Mazkur Nizomga musobaqaning tegishli bosqichiga tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

32. Davlat va nodavlat tashkilotlar musobaqada homiylik qilishlari mumkin.

33. Mazkur musobaqaning birinchi va ikkinchi bosqichlari bilan bog‘liq barcha hujjatlar (materiallar) maktabgacha va maktab ta’limi hududiy boshqarmalarida saqlanadi.

34. Musobaqa yakunida kotib tomonidan bayonnomma rasmiylashtiriladi va bayonnomani hay’at a’zolari imzolaydi, hay’at raisi tasdiqlaydi. Har bir sport turining natijalar qaydnomasi hakamlar tomonidan imzolanadi.

35. Musobaqa hay’ati a’zolariga (hakamlariga) jamoalarning kattalari va ishtirokchilar tomonidan yozma yoki og‘zaki ravishda apellyatsiya berilishi mumkin. Ushbu apellyatsiya asoslangan va musobaqaning mazkur Nizom shartlari doirasida bo‘lishi hamda musobaqa sharti yakunlangandan so‘ng, bir soatgacha berilishi lozim.

36. Musobaqada ishtirok etuvchi ixtisoslashtirilgan maktablarining “Vatan tayanchi” otryad a’zolari (har bir jamoadan 7 nafar o‘g‘il bolalar va 3 nafar qiz bolalar), har bir maktab jamoasiga 1 nafar katta (jamoा kattasi) va 2 nafargacha murabbiylardan tashqari, ya’ni agar jamoa tarkibida belgilangan tarkib sonidan ortiqcha ishtirokchilar kelganligi aniqlansa musobaqada ishtirok etishga **ruxsat etilmaydi**.

37. Hay’at a’zolari (hakamlar) olingan apellyatsiyani qisqa vaqt ichida ko‘rib chiqib, zudlik bilan yoki 1 soatgacha vaqt mobaynida apellyatsiya beruvchiga javob berishi lozim. Hay’at raisi apellyatsiya bo‘yicha yakuniy qaror chiqaruvchi organ hisoblanadi.

“Yashil chiroq” musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda — ta’lim muassasalari) o‘quvchilar o‘rtasida “Yashil chiroq” musobaqasini (keyingi o‘rinlarda — musobaqa) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Musobaqa ta’lim muassasalarida o‘quvchi yoshlarga yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish, ularni yo‘l harakatining madaniyatli ishtirokchisi sifatida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash hamda rag‘batlanirish maqsadida tashkil etiladi.

2-bob. Musobaqaning asosiy vazifalari

3. Musobaqaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

“Yashil chiroq” guruhlari faoliyatini takomillashtirish;

“Yashil chiroq” guruhlari a‘zolarining bilim va malakalarini oshirish;

bolalarga ko‘cha va yo‘llarda yurish qoidalarini keng targ‘ib qilishda eng yaxshi ish tajribalarini o‘rganish, to‘ldirish va ommalashtirish;

bolalar ongida “Yo‘l harakati qoidalari”ga qat‘i rioya qilish hissini shakllantirish.

3-bob. Musobaqani tashkil qilish tartibi

4. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan rejadval asosida amalga oshiriladi. Musobaqa davomida “Yo‘l harakati qoidalari”ni o‘rganish bo‘yicha test sinovlari, tanlov, viktorina, musobaqalar mazkur Nizomga 1-ilovadagi sxemaga muvofiq o‘tkaziladi.

5. Musobaqalar o‘qishdan tashqari vaqtarda tashkil etiladi.

6. Musobaqa ishtirokchilari dam olish kunlari alohida rejaga asosan oldindan kelishilgan (ruxsat olgan) holda, Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlariga ekskursiya uyushtirishlari, xodimlarga yaratilgan xizmat sharoitlari bilan tanishishlari mumkin.

7. Musobaqa quyidagi to‘rt bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich ta’lim muassasalarida har yili fevral-mart oylarida o‘tkaziladi. Mazkur bosqichda musobaqa sinflararo yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha o‘tkaziladi va yo‘l harakati qoidalari yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilardan “yashil chiroq” guruhlari tuziladi. Bu guruhga 11 — 14 yoshli 5 — 8-sinf o‘quvchilari qabul qilinadi;

2-bosqich (mahalliy bosqich) har yili mart-aprel oylarida tuman (shahar) doirasida o‘tkaziladi;

3-bosqich (hududiy bosqich) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri doirasida tuman (shahar) g‘oliblari ishtirokida har yili may oyida o‘tkaziladi;

4-bosqich (respublika bosqichi) har yili iyun-iyul oylarida uchinchi bosqichda 1-o‘rinni egallagan guruhlar ishtirokida o‘tkaziladi.

8. Musobaqani o‘tkazish ishlariga rahbarlik qilish va ularni adolatli o‘tkazish maqsadida ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq tarkibda “Yashil chiroq” musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rish va tashkil etish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi, hududlarda esa hududiy tashkiliy qo‘mitalar tuziladi.

Hududiy tashkiliy qo‘mitalar Xalq ta’limi vazirligi, Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati va Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo‘linmalarining vakillaridan iborat tarkibda tuziladi.

9. Musobaqa o‘tkaziladigan joy tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilanadi va har bir bosqichdan kamida 30 kun oldin ta’lim muassasalari va mas’ul tashkilotlarga ma’lum qilinadi.

Musobaqaning respublika bosqichi iyun-iyul oylarida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan joyda o‘tkaziladi.

Musobaqaning respublika bosqichi o‘tkazilishi belgilangan joyga kelib ketish uchun avtotransport ta’minoti O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga yuklanadi, guruhlarni

kuzatib borish esa hududiy Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

10. Tashkiliy qo‘mita musobaqani o‘tkazish bo‘yicha barcha tashkiliy masalalarni hal etadi, hakamlar hay’ati tarkibini tuzadi va tasdiqlaydi.

11. Musobaqani o‘tkazish joyi tashkiliy qo‘mitaning tavsiyasiga binoan tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari buyrug‘iga asosan belgilanadi.

12. Musobaqaning tantanali ochilish va yopilish tadbirlari tashkiliy qo‘mita qaroriga asosan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilgan joylarda o‘tkazilishi mumkin.

4-bob. Musobaqa ishtirokchilari

13. Musobaqada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan ta’lim muassasalari o‘quvchilaridan iborat guruhlar ishtirok etadi.

14. Musobaqa sog‘lom va nogironligi bo‘lgan bolalar o‘rtasida alohida-alohida o‘tkaziladi.

15. Ta’lim muassasalarining musobaqada ishtirok etuvchi guruhlari 6 nafar o‘quvchidan (3 nafar o‘g‘il bola va 3 nafar qiz bola) iborat tarkibda tuziladi.

16. Guruhlar faqat musobaqada qatnashayotgan ta’lim muassasasi o‘quvchilaridan iborat bo‘lishi kerak.

17. Musobaqada “Yo‘l harakati qoidalari” yuzasidan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan 11 — 14 yoshli o‘quvchilar ishtirok etadi.

18. Musobaqa ishtirokchilari hakamlar hay’atiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

shaxsini tasdiqlovchi hujjat (tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi yoki identifikatsiyalovchi ID-karta nusxasi);

ta’lim muassasasi o‘quvchisi ekanligini tasdiqlovchi ma’lumotnomma (surati bilan, muhrlangan);

sog‘lig‘i to‘g‘risidagi tibbiy ma’lumotnomma;

texnika xavfsizligi qoidalari bilan bevosita tanishganligi yuzasidan dalolatnomma.

19. Musobaqaga guruhlar qat’iy ravishda maxsus kiyim-bosh, sport kiyimlari va guvohnomalar bilan kelishlari shart (kiyim-boshi o‘zgartirilgan va guvohnomasi bo‘lmagan o‘quvchilar musobaqalarga qo‘yilmaydi).

Talab qilingan yuqoridagi hujjatlarni topshirmagan yoki hujjatlarida kamchiligi mavjud jamoalar musobaqada ishtirok eta olmaydi.

5-bob. Musobaqa tashkilotchilari

20. Quyidagilar musobaqa tashkilotchilari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi;

O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi;

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi.

21. Musobaqa tashkilotchilari:

musobaqaga amaliy rahbarlik qilish uchun uning quyi va yakuniy bosqichlarida malakali mutaxassislardan iborat vakillarining ishtirokini ta’minlaydi;

hududiy tashkiliy qo‘mitalar tomonidan joylarda musobaqalarga rahbarlik qilish uchun shtab va uning rahbarlari tasdiqlanishini nazorat qiladi.

22. Musobaqaning har bir bosqichi o‘tkazilganligi yuzasidan bayonnomma tashkiliy qo‘mitaga musobaqalar o‘tgandan keyin uch kun muddat ichida berilishi shart.

23. Guruhlar musobaqaga Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimi va maktab vakilining kuzatuvida keladilar.

6-bob. Musobaqa shartlari va baholash mezonlari

24. Musobaqa quyidagi shartlar asosida o‘tkaziladi:

Jamoalarning safda yurish tayyorgarligi;

Piyodalar vazifalari va harakatiga oid sinov;
Yosh velosipedchilar musobaqasi;
Yosh tartibga soluvchi sinovi;
Guruh sardorlari bellashuvi;
Chorraha makedini yasash bo'yicha bellashuv;
Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
Texnika ijodiyoti tanlovi;
Avtomobillar bilmadoni;
Yo'l harakati qoidalari bo'yicha imtihon;
Velosiped boshqaruvchilarning chorrahada harakatlanishi;
"Yashil chiroq" targ'ibot guruhlarining chiqishi;
"Mediaijodiyot" mahsulotlari.

25. Jamoalarning safda yurish tayyorgarligi shartida jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoa a'zolarining safda shaxdam qadam bilan belgilangan qoida bo'yicha yurishlariga, saf qo'shig'i mazmuni va ijrosiga alohida e'tibor qaratiladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

26. Piyodalar vazifalari va harakatiga oid sinov shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. Ishtirokchi hakamlar tomonidan tayyorlangan savollar to'plamidan bitta bilet tanlab olib, javob qaytaradi. Hakamlarning talabiga asosan javoblarini amaliy tarzda ko'rsatib ham beradi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

27. Esh velosipedchilar musobaqasi shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. Ishtirokchi sakkiz shaklidagi chiziqni bosmay uning oralig'ida harakatlanish, to'siqlarni aylanib o'tish, shartli ko'prikchadan yurish, maxsus ustuncha ustida turgan idishdagi suvni to'kmasdan ikkinchi ustunchaga olib borib qo'yish shartlarini bajaradi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

28. Yosh tartibga soluvchi sinovi shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. U hakamlar tomonidan berilgan savollarga ko'ra regulirovkachining harakatlarini ko'rsatib, izohlab beradi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

29. Guruh sardorlari bellashuvi shartida jamoalar sardorlari ishtirok etadi. Sardorlarga navbat bilan "Yo'l harakati qoidalari" asosida savollar beriladi. Musobaqaning ushbu turi sardorlardan biri savolga javob bera olmay qolganda to'xtatiladi. Hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan har bir savol o'qiladi va ushbu savolga jamoa sardori 10 soniya ichida to'liq javob berishi talab etiladi.

"To'liq" javob uchun "2" ball, "to'liq bo'lmagan" javob uchun "1" ball, "noto'g'ri" javob uchun "0" ball qo'yib boriladi.

30. Chorraha makedini yasash bo'yicha bellashuv shartida jamoaning ikki nafar a'zosi ishtirok etadi. Ular hakamlar tomonidan berilgan topshiriqqa asosan 15 daqiqa ichida 40x40 o'lchamdagи qog'oz yoki kartonga maket yasab berishlari kerak. Maket yasashda qalam, ruchka, flomasterda chiziqlar chizish taqiqilanadi va tayyor qilib olib kelingan detallar inobatga olinmaydi. Har bir detal "Yo'l harakati qoidalari" talablariga mos tushishi va qog'ozdan kesib olinib, yelim bilan yopishtirilishi shart. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

31. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish shartida jamoaning ikki nafar a'zosi ishtirok etadi. Ular yo'l-transport hodisasida jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha shifokorlar tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi. Javoblar amaliy tarzda ko'rsatib beriladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

32. Texnika ijodiyoti tanlovi shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. Tanlov o'quvchilar tomonidan tayyorlangan, radio signallar orqali boshqariladigan transportlar harakati yuzasidan o'tkaziladi. Ushbu transportning kuzovi qo'lda (karton yoki faneradan) yasalgan bo'lishi shart. Shartda transport vositasining to'g'riga, o'ngga, chapga, orqaga harakati namoyish etiladi va transport vositasi shartli ravishda yasalgan garajga kiritiladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

33. Avtomobillar bilimdoni shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. Ishtirokchilarning har biriga navbat bilan 10 ta "Avtomobillar rusumi, texnik tavsifi, maxsus avtomobillar turi" asosida savollar beriladi. Hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan har bir savol o'qiladi va avtomobil fotosurati ko'rsatiladi ushbu savolga jamoa a'zosi 10 soniya ichida to'liq javob berishi talab etiladi.

"To'liq" javob uchun "2" ball, "to'liq bo'limgan" javob uchun "1" ball, "noto'g'ri" javob uchun "0" ball qo'yib boriladi.

34. Yo'l harakati qoidalari bo'yicha imtihon shartida jamoaning bir nafar a'zosi ishtirok etadi. U shablon savollarga javob yozish asosida o'z bilimlarini ko'rsatadi. Imtihon topshirishga 15 daqiqa vaqt beriladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda har bir to'g'ri javob uchun "1" ballik tizimda baholanadi.

35. Velosiped boshqaruvchilarning chorrahada harakatlanishi shartida jamoaning bir nafar a'zosi ishtirok etadi. U velosipedni boshqargan holda chorrahanı svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralariga amal qilgan holda kesib o'tadi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

36. "Yashil chiroq" targ'ibot guruhlarining chiqishi shartida jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Bu chiqishda guruhlar yo'l harakati qoidalarni badiiy usulda, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarida targ'ib qiladilar. Targ'ibot guruhlarining chiqishiga 10 daqiqa vaqt beriladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

37. "Mediaijodiyot" mahsulotlari shartida respublika bosqichiga chiqqan guruhlar "Mediaijodiyot" mahsulotlarini olib kelishlari lozim:

yo'l harakatini xavfsizligini targ'ib etuvchi 1 daqiqalik ijtimoiy videorolik;

2-3 daqiqalik videoreportaj;

yo'l harakati xavfsizligini targ'ib etuvchi fleshmob;

targ'ibot plakati A-1 formatdagi vatman qog'ozda.

Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda har bir mavzuga mos va ta'sirchan mahsulot uchun "5" ballik tizimda baholanadi.

"Mediaijodiyot" mahsulotlari tayyorlash umumiy o'rtalim maktabi hamda o'rtalim maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi direktorining buyrug'i bilan direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

38. Bir xil ball to'plagan guruhlarga qo'shimcha musobaqa tashkil etiladi, ya'ni guruh a'zolarining avtomaydonchada tartibga soluvchi ishoralar bo'yicha velosipedda harakatlanishi shartida jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Bu chiqishda guruh a'zolari to'rt tarafdan tartibga soluvchi ishoralariga amal qilgan holda chorrahanı kesib o'tadilar. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

39. Nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun musobaqa quyidagi shartlar asosida o'tkaziladi:

Piyodalar harakatiga oid savollar;

Guruh sardorlari bellashuvi;

Chorraha maketini yasash bo'yicha bellashuv;

Texnika ijodiyoti tanlovi;

Avtomobillar bilimdoni;

Yo'l harakati qoidalari bo'yicha imtihon;

"Mediaijodiyot" mahsulotlari.

40. Piyodalar harakatiga oid savollar shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. Ishtirokchi piyodalarning vazifalariga oid savollarga javob qaytaradi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

41. Guruh sardorlari bellashuvi shartida jamoaning sardorlari ishtirok etadi. Sardorlarga navbat bilan "Yo'l harakati qoidalari" asosida savollar beriladi. Musobaqaning ushbu turi sardorlardan biri savolga javob bera olmay qolganda to'xtatiladi. Hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan har bir savol o'qiladi va ushbu savolga jamoa sardori 10 soniya ichida to'liq javob berishi talab etiladi.

"To'liq" javob uchun "2" ball, "to'liq bo'lmagan" javob uchun "1" ball, "noto'g'ri" javob uchun "0" ball qo'yib boriladi.

42. Chorraha maketini yasash bo'yicha bellashuv shartida jamoaning ikki nafar a'zosi ishtirok etadi. Ular hakamlar tomonidan berilgan topshiriqqa asosan 15 daqiqa ichida 40x40 o'chamdag'i qog'oz yoki kartonga maket yasab berishlari kerak. Maket yasashda qalam, ruchka, flomasterda chiziqlar chizish taqiqlanadi va tayyor qilib olib kelingan detallar inobatga olinmaydi. Har bir detal "Yo'l harakati qoidalari" talablariga mos tushishi va qog'ozdan kesib olinib, yelim bilan yopishtirilishi shart. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

43. Texnika ijodiyoti tanlovi shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. Tanlov o'quvchilar tomonidan tayyorlangan, radio signallar orqali boshqariladigan transportlar harakati yuzasidan o'tkaziladi. Ushbu transportning kuzovi qo'lda (karton yoki faneradan) yasalgan bo'lishi shart. Shartda transport vositasining to'g'riga, o'ngga, chapga, orqaga harakati namoyish etiladi va transport vositasi shartli ravishda yasalgan garajga kiritiladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda "5" ballik tizimda baholanadi.

44. Avtomobillar bilimdoni shartida jamoaning bitta a'zosi ishtirok etadi. Ishtirokchilarning har biriga navbat bilan 10 ta "Avtomobillar rusumi, texnik tavsifi, maxsus avtomobillar turi" asosida savollar beriladi. Hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan har bir savol o'qiladi va avtomobil fotosurati ko'rsatiladi, ushbu savolga jamoa a'zosi 15 soniya ichida to'liq javob berishi talab etiladi.

"To'liq" javob uchun "2" ball, "to'liq bo'lmagan" javob uchun "1" ball, "noto'g'ri" javob uchun "0" ball qo'yib boriladi.

45. Yo'l harakati qoidalari bo'yicha imtihon shartida jamoaning bir nafar a'zosi ishtirok etadi. U shablon savollariga javob yozish asosida o'z bilimlarini ko'rsatadi. Imtihon topshirishga 20 minut vaqt beriladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda har bir to'g'ri javob uchun "1" ballik tizimda baholanadi.

46. "Mediaijodiyot" mahsulotlari shartida respublika bosqichiga chiqqan guruhlar "Mediaijodiyot" mahsulotlarini olib kelishlari lozim:

yo'l harakati xavfsizligini targ'ib etuvchi fleshmob;

targ'ibot plakati A-1 formatdagi vatman qog'ozda.

Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda har bir mavzuga mos va ta'sirchan mahsulot uchun "5" ballik tizimda baholanadi.

47. Bir xil ball to'plagan guruhlarga qo'shimcha musobaqa tashkil etiladi, ya'ni guruh a'zolariga yo'l harakati qoidalari bo'yicha qo'shimcha imtihon shartida jamoaning bir nafar a'zosi ishtirok etadi. U shablon savollariga javob yozish asosida o'z bilimlarini ko'rsatadi. Imtihon topshirishga 10 minut vaqt beriladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda har bir to'g'ri javob uchun "1" ballik tizimda baholanadi.

48. Musobaqa shartlari bo'yicha ishtirokchilarini tashkiliy qo'mita tomonidan belgilangan hakamlar hay'ati a'zolari baholab boradi.

49. Guruhlarning barcha shartlar davomida tezkorligi, "Yo'l harakati qoidalari"ni mukammal bilishi, mamlakatimiz avtomobil yo'llarida harakatlanish xavfsizligini ta'minlash

yo‘nalishidagi yangiliklarni bilishi, kiyim-bosh kiyishi, javob berishdagi qat’iyati va ushu Nizomda ko‘rsatilgan talablarga rioya etishlari — baholashning asosiy mezoni hisoblanadi.

50. Musobaqadagi savollar “Yo‘l harakati qoidalari”dan kelib chiqqan holda tuziladi.

51. Savollar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va uning bo‘linmalari mutaxassislar tomonidan tuziladi hamda musobaqa kunidan bir kun avval maxsus konvertga solinib, tashkiliy qo‘mita a’zolari ishtirokida muhrlanadi.

7-bob. G‘oliblarni taqdirlash

52. Musobaqa g‘oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

1-bosqich g‘oliblari ta’lim muassasalarining I, II va III darajali diplomlari hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi. G‘oliblarni taqdirlash uchun sarf-xarajatlarga homiylar jalb etilishi mumkin.

2-bosqich g‘oliblari O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) kengashlari va ta’lim muassasalarining I, II va III darajali diplomlari hamda homiy tashkilotlar tomonidan ajratilgan esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

3-bosqich g‘oliblari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Ichki ishlar vazirligining hududiy bo‘linmalari, Yoshlar ishlari agentligi hududiy kengashlarining I, II va III darajali diplomlari va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi. Shuningdek, g‘oliblarni taqdirlash uchun sarf-xarajatlarga boshqa tashkilotlar ham homiylik qilishlari mumkin.

4-bosqich g‘oliblari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligining I, II va III darajali diplomlari, mas’ul tashkilotlarning esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

53. Musobaqaning respublika bosqichini yuqori saviyada tashkil etish, o‘tkazish va musobaqa g‘oliblarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar (ovqatlanish, yotoqxona, sovg‘alar, oromgohni bezash, madaniy va ma’rifiy tadbirlar) Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xodimlarni rag‘batlantirish va mukofotlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

54. Mazkur musobaqaning quyi bosqichlari bilan bog‘liq barcha hujjatlar (materiallar) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy bo‘linmalarida, yakuniy bosqichi bo‘yicha hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatida saqlanadi.

“Shunqorlar” harbiy-sport o‘yinlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Shunqorlar” harbiy-sport o‘yinlarini (keyingi o‘rinlarda matnda – O‘yinlar deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. O‘yinlar “**Vatanparvarlik – oliv maqsadimiz!**” shiori ostida umumta’lim maktablar va kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Markaziy kengashi raisi Kubogi uchun tashkil etiladi.
3. O‘yinlar O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti (keyingi o‘rinlarda matnda –“Vatanparvar” tashkiloti deb yuritiladi) tomonidan Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda har yili o‘tkaziladi.
4. O‘yinlarda jamoalar “Vatanparvar” tashkiloti tizimidagi “Shunqorlar” harbiy-sport o‘yinlari bayrog‘i va emblemasidan foydalangan holda, shuningdek, ushbu Nizomda belgilangan talablar asosida ishtirok etadilar.
5. O‘yinlar jamoaviy tarzda “Vatanparvar” tashkiloti Markaziy kengashi Hay’ati qarori bilan tuzilgan tashkiliy qo‘mitaning bevosa raahbarligida o‘tkaziladi.
6. O‘yinlarni tashkil etishdan asosiy maqsad:
yoshlarni o‘z xalqiga, Prezidentiga va Vataniga sadoqat hamda yuksak harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
chaqiriqqa qadar yoshlarni Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga qiziqishini oshirib borish, shuningdek, harbiy xizmat o‘tashning zarur bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularni ruhan va jismonan chiniqtirish;
yoshlar ongida “Vatanparvar” tashkiloti to‘g‘risida tasavvurini shakllantirish, ularni o‘z faoliyat doirasiga keng jalb etish;
sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish;
yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularni sport seksiyalari va to‘garaklarida shug‘ullanishga jalb etishdan iboratdir.

II. O‘yinlarni o‘tkazish va tashkil qilish tartibi

7. O‘yinlar jamoalar o‘rtasida uch bosqichda o‘tkaziladi:
Birinchi bosqich – tuman (shahar) bosqichi: Ushbu bosqich, tuman (shahar)lar kesimida jamoalar o‘rtasida har yilning aprel-may oylarida o‘tkaziladi.
Har bir tuman (shahar)dan birinchi o‘rinni egallagan jamoa hududiy bosqichda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi, ikkinchi o‘rinni egallagan jamoa zahira jamoa hisoblanadi.
Ikkinchi bosqich – hududiy bosqich: Ushbu bosqich, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar kesimida, tuman (shahar)lar bosqichida birinchi o‘rnlarni egallagan jamoalar o‘rtasida har yilning may-iyun oylarida o‘tkaziladi.
Hududiy bosqichda birinchi o‘rinni egallagan jamoa respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi, ikkinchi o‘rinni egallagan jamoa zahira jamoa hisoblanadi.
Uchinchi bosqich – respublika bosqichi: Ushbu bosqich, hududiy bosqichda (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar) birinchi o‘rnlarni egallagan jamoalar o‘rtasida har yilning iyun oylarida o‘tkaziladi.
8. O‘yinlar qo‘yidagicha tashkil etiladi:
 - a) birinchi bosqichni tashkil etish, o‘tkazish, jamoalarni shakllantirish bevosa “Vatanparvar” tashkilotining hududiy kengashlari tasarrufidagi muassasa (tashkilot)lar hamda

Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limlari, umumta'lim maktablar va kasb-hunar ta'lim muassasalarini ma'muriyatlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

O'yinlar umumta'lim maktablar va kasb-hunar ta'lim muassasalaridan tashkil topgan jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.

Mazkur bosqichda birinchi o'rinni egallagan jamoa hududiy bosqichda ishtirok etadi, ikkinchi o'rinni egallagan jamoa zaxira jamoa hisoblanadi.

b) ikkinchi bosqichni tashkil etish va o'tkazish bevosita "Vatanparvar" tashkilotining hududiy kengashlari hamda Yoshlar ishlari agentligining, tegishli vazirliklarning hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichda birinchi o'rinni egallagan jamoa respublika bosqichida ishtirok etadi, ikkinchi o'rinni egallagan jamoa zaxira jamoa hisoblanadi.

v) uchinchi bosqichni tashkil etish va o'tkazish bevosita "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi va Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

O'yinlarni tashkil etish va o'tkazishga davlat boshqaruvi organlari va jamoat tashkilotlari amaliy yordam ko'rsatish maqsadida jalb etiladi.

9. O'yinlar belgilangan tartibda quyidagi joylarda o'tkaziladi:

tuman (shahar) bosqichi – hududlardagi sport majmularida yoki harbiy qism (dala o'quv maydoni) bazasida;

hududiy bosqich (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar) – hududlardagi sport majmularida yoki harbiy qismlar (dala o'quv maydoni) bazasida;

respublika bosqichi – "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi tomonidan belgilangan joylarda.

10. O'yinlarning tuman (shahar) va hududiy bosqichlarini o'tkazish sanasi va joyi to'g'risida hududiy tashkiliy qo'mitalar kamida **10 (o'n) kun** oldin mas'ul tashkilotlarga va "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashiga ma'lum qiladi.

11. O'yinlarning tuman (shahar) bosqichi (mazmuni, o'tkazish sanasi va joyi) to'g'risida yoshlar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlari umumta'lim maktablar va kasb-hunar ta'lim muassasalarini ma'muriyatlari tomonidan keng ko'lamda olib boriladi, shuningdek, mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.

12. "Vatanparvar" tashkilotining hududiy kengashlari va Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlari o'zaro hamkorlikda bosqichlar oralig'ida o'yinlarda ishtirok etadigan jamoalarni sifatli tayyorlash, jamoa a'zolarining intellektual bilimi va jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida mashg'ulotlar o'tkazish amalga oshiriladi.

13. O'yinlarning hududiy va respublika bosqichlari davomida belgilangan tartib-qoidalar va xavfsizlik talablariga rioya etish, shuningdek, dasturda belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlash va nazoratni tashkil etish maqsadida "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi va hududiy kengashlar xodimlari tarkibidan ma'muriyat tuziladi.

14. O'yinlar davomida tibbiy xizmatning (tibbiy xodim, sanitar avtomobil) navbatchiligi tashkil etiladi.

Navbatchi shifokor:

o'yinlar ishtirokchilarning tibbiy ma'lumotnomalarini o'rganadi va ularning sog'lig'i holatiga ko'ra musobaqlarda ishtirok etishi bo'yicha xulosa beradi;

o'yinlar o'tkaziladigan joylarda ishtirokchilarning dam olishi, ovqatlanishi, yuvinish xonalarida sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etishlarini nazorat qiladi hamda ularning sog'ligini muntazam ravishda nazorat qilib boradi, zarur hollarda ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadi;

har bir holat va amalga oshirilgan ishlari to'g'risida Bosh sport xakamiga ma'lumot berib boradi.

III. Hakamlik qilish va apellyatsiya berish tartibi

15. O‘yinlarda hakamlik qilish maqsadida sport hakamlari tarkibi - bosh sport hakami, musobaqalar turlari bo‘yicha sport hakamlari tayinlanadi.

16. Sport hakamlari tarkibi:

musobaqa va shartlarni odilona, shaffoflik bilan baholaydi;

har bir jamoa va ishtirokchining musobaqa va shartlarda ko‘rsatgan natijalarini bayonnomma orqali rasmiylashtiradi;

g‘olib jamoa va ishtirokchilarni belgilaydi;

apellyatsiya shikoyatlarni ko‘rib chiqadi.

17. O‘yinlarning birinchi va ikkinchi bosqichlarini o‘tkazuvchi sport hakamlari tarkibi “Vatanparvar” tashkiloti hududiy kengashi hay’ati qarori bilan tasdiqlanadi va uning tarkibiga:

Bosh sport hakami – hududiy kengash raisining o‘rnbosari yoki ushbu sohada tajribaga ega bo‘lgan xodim;

Sport hakamlari - hududiy kengash apparati xodimlari va viloyat sportning texnik va amaliy turlari markazlari sport mutaxassislari, shuningdek, kelishuv asosida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning harbiy xizmatchilari va xodimlari kiritilishi mumkin.

18. Respublika bosqichining sport hakamlari tarkibi “Vatanparvar” tashkiloti Markaziy kengashi hay’ati qarori bilan tasdiqlanadi va uning tarkibiga:

Bosh sport hakami – Markaziy kengash raisining o‘rnbosari;

Sport hakamlari – Markaziy kengash apparati bo‘lim boshliqlari hamda Respublika sportning texnik va amaliy turlari markazining sport mutaxassislari, shuningdek, kelishuv asosida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning harbiy xizmatchilari va xodimlari kiritilishi mumkin.

19. Sport hakamlari tarkibining birinchi yig‘ilishida uning mas’ul kotibi, musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi, joylari, vaqt va ketma-ketligi belgilanadi.

20. Bosh sport hakami, sport hakamlari tomonidan natjalarning to‘g‘ri baholanishi hamda o‘yinlarning shaffoflik bilan o‘tkazilishiga mas’uldir.

Bosh sport hakami:

sport xakamlari tarkibining tayyorgarligi va faoliyatiga, o‘yinlarni tashkillashtirish hamda o‘tkazishga rahbarlik qiladi;

o‘yinlar boshlanishidan oldin musobaqa o‘tkaziladigan joylarni, ularning jihozlanganligi va tayyorligini tekshiradi, muammo yoki kamchiliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘radi;

o‘yinlar shartlarini qo‘pol ravishda buzgan ishtirokchilarni sport hakamlari tarkibi bilan kelishgan holda o‘yinlardan chetlatish masalasini hal etadi;

sport hakamlari tomonidan o‘yinlarning to‘g‘ri o‘tkazilishini, natjalarning shaffoflik bilan baholanishini nazorat qiladi;

zarur hollarda sport hakamlari bilan har bir musobaqa oldidan va o‘yin yakunida yig‘ilish o‘tkazadi, ishtirokchilar natijalarini ko‘rib chiqadi va muhokama qiladi;

o‘yinlar jarayonida noto‘g‘ri xatti-harakatlarga va qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘ysa yoki tibbiyot xodimlarining yo‘qligi aniqlansa, o‘yinning ushbu shartini to‘xtatadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

sport hakamlari ishida noxolislik, muayyan ishtirokchiga yon bosish kabi holatlar aniqlansa, ularni boshqa sport hakamlari bilan almashtiradi;

sport hakamlari bilan jamoalar tomonidan berilgan apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqadi, muhokama qiladi va ular yuzasidan shaxsan asoslangan qaror qabul qiladi hamda shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida murojaat etuvchiga javob beradi;

sport hakamlarining noto‘g‘ri va asossiz qarorlarini bekor qiladi;

o‘yinlar yakuniy natijalarini bayonnomaga asosan e’lon qiladi.

21. Sport hakamlari, bosh sport hakamiga bo‘ysunadi, uning ko‘rsatmalariga amal qiladi, belgilab berilgan kiyim rusumida o‘yinlarda ishtirok etadi.

22. Sport hakamlari:

o‘yinlar davomida musobaqalarni mazkur Nizomga muvofiq o‘tkazilishini, natjalarni haqqoniy va shaffof baholanishini ta’minlaydi va g‘oliblarni aniqlaydi;

o‘yinlarni o‘tkazish joylari, sport (mahsus) jihozlari va vositalari tayyorgarligini ta’minlaydi;

ishtirokchilarga o‘yinlar shartlari va xavfsizlik qoidalarini yetkazadi, bu borada tushuntirish ishlarini olib boradi va ulardan musobaqa shartlari to‘g‘ri bajarilishini talab qiladi;

ishtirokchilar tomonidan o‘yinlar shartlarini qo‘pol ravishda buzish holatlarini aniqlasa, ularni o‘yinlarda ishtirok etishi masalasini Bosh sport hakamiga kiritadi;

Bosh sport hakami boshchiligidagi o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda ishtirok etadi;

o‘yinlar davomidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida jamoalar raxbarlariga xabar beradi;

apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etadi.

23. Sport hakamlari tarkibining mas’ul kotibi:

o‘yinlarga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq barcha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi, tegishli hujjatlarni (ishtirokchilar hujjatlari va ro‘yxatlari) tekshiradi va rasmiylashtiradi; qur‘a tashlash jarayonini tashkillashtiradi va unda ishtirok etadi;

o‘yinlar jarayonida sport hakamlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni, ishtirokchilar ko‘rsatgan natijalarni umumlashtiradi va musobaqa bayonnomalarini, yakunlovchi hujjatlar hamda hisobotlarni rasmiylashtiradi.

24. O‘yinlar davomida jamoa rahbarlari va a’zolariga quyidagilar ta’qiqlanadi:

sport hakami ishiga aralashish;

sport hakamining qaroriga qarshilik ko‘rsatish va unga bo‘ysunmaslik;

sport hakami bilan kelishilmagan tarzda musobaqa yoki shartlarni bajarish vaqtida o‘z jamoasiga yoki ishtirokchiga mazkur Nizomda ko‘rsatilmagan qoidalarga zid ravishda yordam ko‘rsatish;

musobaqa yoki shartlarni bajarishning belgilangan joyida sport hakamining ruxsatisiz bo‘lish;

musobaqa yoki shartlarni bajarishga jamoa a’zosi bo‘lmagan shaxslarni jalg etish.

25. O‘yinlarda “Vatanparvar” tashkiloti yoki boshqa muassasa (tashkilot, federatsiya)lar tizimidagi professional sportchilarning (viloyat terma sport jamoasi a’zolarining) ishtirok etishi qat’iy taqiqlanadi. Bunday holatga yo‘l qo‘ygan jamoa a’zosi musobaqadan chetlashtiriladi.

26. Agar sport hakami tomonidan yuqorida holatlar aniqlangan taqdirda, jamoa yoki ishtirokchining musobaqada ko‘rsatgan natijalari hisobga olinmaydi, jamoa yoki ishtirokchiga eng so‘nggi o‘rin beriladi.

27. O‘yinlar davomida yuzaga kelgan apellyatsiya shikoyatlari sport hakamlari tarkibi tomonidan o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqiladi va hal etiladi.

28. O‘yinlar davomida o‘z jamoasi a’zolarining natijalariga aniqlik kiritish, shuningdek, ulardan norozi bo‘lgan hollarda apellyatsiya berish huquqi faqat jamoa rahbariga beriladi.

29. Jamoa rahbari tomonidan musobaqa sharti yakunlanib, natijalar e‘lon qilinganidan keyin **30 daqiqa** ichida yozma ravishda bosh sport hakamiga apellyatsiya berilishi mumkin. Ushbu apellyatsiya asoslangan va mazkur Nizomda o‘rnatilgan talablar doirasida bo‘lishi lozim.

30. Apellyatsiya, bosh hakam tomonidan musobaqa sport hakami ishtirokida ko‘rib chiqilib, uning natijalari to‘g‘risida bir soat mobaynida apellyatsiya beruvchiga javob berilishi lozim. Bosh sport hakami apellyatsiya bo‘yicha yakuniy qaror qabul qiluvchi shaxs hisoblanadi.

IV. O‘yin ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatları

31. O‘yinlar ishtirokchilari quyidagilarga majbur:

musobaqalar talablarini bilishga va unga so‘zsiz rioya qilishga;

o‘yinlar davomida o‘zini munosib tutishga va boshqalarni ham nomunosib xattiharakatlarga yo‘l qo‘ymasligini ta’minlashga;

o‘yinlarni o‘tkazish joyida belgilangan kiyim rusumida bo‘lishga;

o‘yinlar ishtirokchilari va sport hakamlariga xushmuomala munosabatda bo‘lishga;

zarur hollarda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishga;

o‘yinlar ma’muriyati va sport hakamlarining ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishga;

o‘yinlar davomida o‘rnatilgan kun tartibi va boshqa tartib-qoidalarga, musobaqalar shartlari va xavfsizlik qoidalalariga qat’iy rioya etishga.

32. O‘yinlar ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

o‘yinlar oldidan sport hakamlari ruxsati bilan mustaqil ravishda badantarbiya mashqlari bilan shug‘ullanish, musobaqa qurollari, maxsus vosita va jihozlar bilan yaqindan tanishish hamda tayyorgarlik ko‘rishga;

o‘yinlar jarayonida sport hakamlariga mazkur Nizom talablaridan kelib chiqqan holda murojaat qilishga;

o‘yinlar davomida nohaqlik yoki shaffoflik ta‘minlanmayotganligi aniqlangan hollarda jamoa rahbariga ma’lumot berishga;

o‘yinlar davomida ko‘rsatgan natijalari bilan tanishib borishga.

V. Jamoalarning o‘yinlarda qatnashish shartlari

33. O‘yinlarda **17 yoshdan - 22 yoshgacha** bo‘lgan, **2003-2008 yillarda** tug‘ilgan o‘g‘il-qizlar qatnashadi. Ishtirokchilarning yoshi o‘yinlar boshlanishidan oldin jamoalarni ro‘yxatdan o‘tkazishda shaxsini tasdiqlovchi hujjat (fuqarolik pasporti yoki ID kartasi) orqali aniqlanadi. Ushbu yosh doirasida bo‘lmagan jamoa a’zosi o‘yinlarga qo‘yilmaydi.

34. Jamoa tarkibi 10 nafar kishidan (8 nafar o‘g‘il bola va 2 nafar qiz bola) iborat tarkibda tuziladi, shulardan bir nafari jamoa sardori etib belgilanadi. O‘yinlarda ishtirok etish uchun barcha jamoa a’zolari sog‘lom, tibbiy ko‘rsatkichlari zid bo‘lmasligi, musobaqa shartlari bo‘yicha bilimga va sport ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

35. Har bir jamoaga rahbar tayinlanadi. Jamoa rahbari ishtirokchilarning intizomi, sog‘ligi, ular tomonidan xavfsizlik talablari va belgilangan tartib-qoidalarni qat’iy bajarilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

36. Jamoa a’zolari musobaqa shartlari bo‘yicha quyidagicha ishtirok etadi:

a) Birinchi bosqichda:

№	Musobaqa shartlari nomi	Ishtirokchilar	
		o‘g‘il bolalar	qizlar
I. Harbiy-vatanparvarlik bloki			
1.	O‘zbekiston tarixi bilimdoni viktorinasi	Jamoaviy	
2.	Saf qo‘srig‘i ko‘rik-tanlovi	Jamoaviy	
II. Harbiy-amaliy ko‘pkurash bloki			
3.	O‘quv granatasini uzoqlikka uloqtirish	2 nafar	-
4.	Harbiylashtirilgan estafeta	3 nafar	-
5.	100 metrga yugurish	1 nafar	1 nafar
6.	Turnikda tortilish	1 nafar	-
7.	Uzoq masofaga yugurish	1 nafar	1 nafar

b) Ikkinchchi va uchinchi bosqichlarda:

№	Musobaqa shartlari nomi	Ishtirokchilar	
		o‘g‘il bolalar	qizlar
I. Harbiy-vatanparvarlik bloki			
8.	O‘zbekiston tarixi bilimdoni viktorinasi	Jamoaviy	
9.	Saf qo‘srig‘i ko‘rik-tanlovi	Jamoaviy	
10.	“Biz bir jamoamiz!” ko‘rik-tanlovi	Jamoaviy	
II. Harbiy-amaliy ko‘pkurash bloki			
11.	Pnevmatik quroldan o‘q otish	1 nafar	1 nafar
12.	O‘quv granatasini uzoqlikka uloqtirish	2 nafar	-
13.	Harbiylashtirilgan estafeta	3 nafar	-
III. Sport bloki			
14.	Duatlon	1 nafar	1 nafar
15.	100 metrga yugurish	1 nafar	1 nafar
16.	Turnikda tortilish	1 nafar	-

37. Jamoa a’zosiga ikkitagacha musobaqa shartlarida qatnashishga ruxsat etiladi.

38. “Vatanparvar” tashkilotining o‘quv muassasa (tashkilot) rahbari:

- umumta'lif maktablar va kasb-hunar ta'lif muassasalari mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda o'yinlarning tuman (shahar) bosqichida ishtirok etadigan jamoalarni shakllantiradi va jamoalar rahbarlarini tayinlaydi;

- o'yinlarning hududiy bosqichini o'tkazish muddatidan kamida **7 (yetti) kun** oldin ishtirok etadigan jamoa to'g'risida hududiy tashkiliy qo'mitaga yozma buyurtma beradi.

39. "Vatanparvar" tashkilotining hududiy kengashlari raislari, o'yinlarning o'tkazish muddatidan kamida **10 (o'n) kun** oldin respublika bosqichida ishtirok etadigan jamoa to'g'risida respublika tashkiliy qo'mitasiga yozma buyurtma beradi.

40. Buyurtmada jamoa rahbarlari hamda jamoa a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi; tug'ilgan yili, kuni va oy; tug'ilganlik guvohnomasi, fuqarolik pasporti yoki ID kartasi seriyasi va raqami; sog'lig'i holati) kiritiladi. Buyurtma hududiy kengash muhri bilan tasdiqlanadi.

41. Hududiy va respublika tashkiliy qo'mitalar tomonidan ro'yxatdan o'tgan jamoalarga o'yinlarda ishtirok etishga ruxsat beriladi. Ro'yxatdan o'tgan ishtirokchining o'rniqa boshqa shaxsning o'yinlarda ishtiroki bosh sport hakami tomonidan ko'rib chiqilishi va ruxsat etilishi mumkin.

42. Quyidagi holatda jamoani ro'yxatdan o'tkazishda rad etiladi:

agarda jamoa, mazkur Nizomning 33-bandi talablariga javob bermaganda;
buyurtma tashkiliy qo'mitaga o'z muddatida berilmaganda.

43. Jamoa rahbarlari o'yinlarning respublika bosqichida jamoalarni ro'yxatdan o'tkazishda o'yinlar mas'ul kotibiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

jamoani o'yinlarda ishtirok etishiga ruxsat beruvchi hududiy kengash Hay'ati qarori va hududiy tashkiliy qo'mita bayonnomasining nusxasi;

jamoa a'zolarini tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotnomaga (sug'urta);
jamoa a'zolari shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar (pasport yoki ID karta).

Talab qilingan yuqoridagi hujjatlarni topshirmagan yoki hujjatlarida kamchiligi mavjud jamoalar o'yinlarda ishtirok etmaydi.

44. Har bir jamoa o'yinlarning hududiy va respublika bosqichlarida o'zlarining bir hil maxsus va sport kiyimlari, tegishli sport anjomlari bilan qatnashadi.

45. Sport musobaqalarida har bir jamoa a'zosi bir xil sport yoki dala harbiy kiyimlarida ishtirok etadi. Har bir sport musobaqasi shartlaridan kelib chiqib, jamoa yoki alohida ishtirokchi uchun o'yinlar bosh hakami tomonidan kiyim rusumi belgilanadi.

46. O'yinlarni tantanali ochilish va yopilish marosimlarida jamoalar "Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlari bayrog'i va emblemasi bilan, shuningdek, o'zlarining maxsus kiyimlarida qatnashadilar.

VI. Musobaqalar shartlari va baholash mezonlari

47. O'yinlarning birinchi bosqichi quyidagi bloklardan iborat:

1. "**Harbiy-vatanparvarlik bloki**". Mazkur blok ikkita shartdan iborat.

a) "**O'zbekiston tarixi bilimdoni**" viktorinasi.

Viktorina savollari "Vatanparvar" tashkiloti hududiy kengashi tomonidan tuziladi va o'yinlar o'tkazilishidan bir kun avval maxsus konvertga solinib, hududiy tashkiliy qo'mita a'zolari ishtirokida muhrlanadi. Savollarni tayyorlashga mas'ul bo'lgan shaxslar va tashkiliy qo'mita a'zolari musobaqadan oldin savollarning oshkor bo'lmasligi uchun javobgardir.

Viktorina shartlari: jamoaning barcha a'zolari ustki maxsus kiyimda ishtirok etadi. Jamoa sardori O'zbekiston tarixidan tuzilgan, har birida 5 tadan savol mavjud muhrlangan konvertlardan birini tanlaydi hamda imzo qo'yan holda hakamlarga taqdim etadi. Hakamlar tomonidan har bir savol o'qiladi va ushbu savollarga jamoa a'zolari har bir savol uchun 2 daqiqa (120 soniya) davomida, jami 10 daqiqa (600 soniya) ichida javob berishlari talab etiladi.

Sharhslash jarayonida ishtirokchining bilimini tekshirish maqsadida hakamlar tomonidan aniqlashtiruvchi savollar berilishi mumkin.

Baholash mezonlari: ushbu shart 1 balldan 10 ballgacha tizim bo‘yicha baholanadi. Har bir to‘liq javob uchun 2 ball, to‘liq bo‘lmagan javob uchun 1 ball, noto‘g‘ri javob uchun 0 ball qo‘yiladi. Jamoa belgilangan vaqtdan chiqib ketganda -1 ball jarima bilan jazolanadi.

Yuqori ball olgan jamoa g‘olib hisoblanadi. Agarda ballar teng bo‘lgan taqdirda, g‘olib foydalanilgan kam vaqt bilan aniqlanadi.

b) “Saf qo‘shig‘i” tanlovi.

Tanlov shartlari: jamoaning barcha a’zolari ustki maxsus kiyimda ishtirok etadi. Jamoa Vatan, vatanparvarlik, mardlik va jasorat mavzulariga oid bitta saf qo‘shig‘ini yurish safida xarakatlanib ijro etishi lozim. Jamoaning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomi qoidalariga amal qilib bo‘linma tarkibida yurishiga, saf qo‘shig‘ining mazmuni va ijro etish mahoratiga alohida e’tibor qaratiladi.

Baholash mezonlari: ushbu shart quyidagi ko‘rsatgichlar bo‘yicha 5 ballik tizim bo‘yicha baholanadi. Jamoa a’zolarining saf qo‘shig‘i matnini bilishi va ohang to‘g‘riliqi uchun 2 ball, jamoaning yurish safida to‘g‘ri xarakatlanib saf qo‘shig‘ini ijro etishi uchun 2 ball, saf qo‘shig‘ini jarangdor ohangda aytlishi uchun 1 ball qo‘yiladi.

Jamoaning saf yurishi bir xil bo‘lmaganda, jamoa a’zolari pala-partish harakat qilganda, saf qo‘shig‘i past ovozda aytliganda, mavzuga to‘g‘ri kelmaganda jamoa -1 jarima balli bilan jazolanadi.

Yuqori ball olgan jamoa g‘olib hisoblanadi.

2. “Harbiy-amaliy ko‘pkurash bloki”.

a) “O‘quv granatasini uzoqlikka uloqtirish” musobaqasi.

Musobaqa shartlari: har bir jamoadan 2 nafardan (o‘g‘il bola) ishtirok etadi. Musobaqa shaxsiy birinchilik tarzida o‘tkaziladi. Kiyim rusumi – sport kiyimi.

Mashq bajarish joyining uloqtirish marrasi va yo‘lagi chiziq (tasma) va 30, 40, 50, 60 metr masofa ko‘rsatgichlari bilan jihozlanadi.

Ishtirokchi mashqni F-1 o‘quv granatasini (600 gramm) eni 10 metr bo‘lgan yo‘lak (koridor) ichiga uloqtirish orqali bajaradi.

Musobaqa o‘tkazish tartibi:

sport hakami tomonidan ishtirokchilarga mashqni bajarish sharti va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi;

ishtirokchilar mashqni navbat bilan bajaradi;

ishtirokchiga 3 marotaba uloqtirish imkonи beriladi;

ishtirokchi sport hakamining “Ruxsat” buyrug‘idan keyin mashqni bajarishga kirishadi. Granata uloqtirgandan keyin ishtirokchi tana muvozanatini saqlab qolishi va granata yo‘lak (koridor) ichiga tushishi kerak;

agar granata tasodifan qo‘ldan chiqib ketsa, ishtirokchi marra chizig‘ini bossa yoki tana muvozanatini yo‘qotib undan o‘tib ketsa, granata yo‘lak (koridor) chiziqlarining tashqi tomoniga tushsa, aynan shu natija hisobga olinmaydi va takroriy uloqtirishga ruxsat berilmaydi;

ishtirokchi yoki jamoaning boshqa a’zosi tomonidan xavfsizlik qoidalari talablari buzilganda uloqtirish natijasi hisobga olinmaydi;

ishtirokchining faqat eng yaxshi uloqtirish natijasi qayd etiladi.

Baholash mezonlari: ishtirokchining eng yaxshi uloqtirgan natijasi qayd etiladi. Bir xil natija ko‘rsatgan ishtirokchilarga bir martadan granatini uloqtirish imkoniyati beriladi va uloqtirish natijasi hisobga olinadi.

b) “Harbiylashtirilgan estafeta” musobaqasi.

Estafeta shartlari: Jamoaning 3 nafar (o‘g‘il bola) a’zolari ishtirok etadi. Kiyim rusumi – dala harbiy kiyimida, baland qo‘njli botinka.

Estafeta uchun stadion yugurish yo‘lagi (yoki boshqa tekis hudud)ning har 100 metrga estafeta shartlarini bajarish bo‘yicha nuqtalar jihozlanadi. Sport hakami tomonidan estafetadan oldin ishtirokchilarga mashqlarni bajarish shartlari va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi. Sport hakamlari har bir jamoaning natijalarini qayd etib boradi.

Estafetani o‘tkazish tartibi:

birinchi nuqta – AK-74 qurolini noto‘liq qismlarga ajratish:

jamoaning bиринчи истироқчиси “Start” chизиг‘идаги стол олдидаги 1 метр масофада гаракатга тайор holda turadi, стол устидаги AK-74 qуорли zatвори yuqoriga qaratilган holda joylashtiriladi;

hakam томонидан “Olg‘a” buyrug‘и berilgach, sekundomer bosiladi va истироқчи AK-74 qуорлини noto‘liq qismlarga o‘rnatilgan tartibda yoyib, 100 метр масофага yuguradi va belgilangan chiziqni kesib o‘tgach, estafeta tayoqchasini keyingi nuqtada joylashgan ikkinchi истироқчига topshiradi.

ikkinchi nuqta – gazga qarshi niqobni kiyish:

истироқчи belgilangan chiziqdan keyin harakatga tayor holda turadi;

истироқчи estafeta tayoqchasini olgandan so‘ng yonidagi gazga qarshi niqobni o‘rnatilgan tartibda kiyadi;

sport hakamlari истироқчи томонидан gazga qarshi niqobni to‘g‘ri va to‘liq kiyilganini tasdiqlagach, “Olg‘a” buyrug‘ini beradi;

истироқчи gaz niqobini kiygan holda 100 metrga yuguradi va belgilangan chiziqni kesib o‘tgach, estafeta tayoqchasini uchinchi истироқчига topshiradi.

uchinchi nuqta - AK-74 qуорлини to‘liq yig‘ish:

истироқчи belgilangan chiziqdan keyin stol олдидаги 1 метр масофада гаракатга tayor holda turadi, стол устидаги noto‘liq yoyilgan AK-74 qуорли yotadi;

истироқчи estafeta tayoqchasini olgandan so‘ng noto‘liq qismlarga yoyilgan AK-74 qуорлини to‘liq yig‘adi va 100 метр масофага yugurib “Finish” chизиг‘ini kesib o‘tadi.

Baholash mezonlari: Ishtirokchilar estafeta shartlarini to‘liq bajarib, finish chизиг‘и kesib o‘tilgach sport hakami томонидан sekundomer to‘xtatiladi va natija qayd etiladi. Natijasi bo‘yicha estafeta shartlarini to‘liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan jamoa estafeta g‘olibi hisoblanadi.

Ishtirokchilar томонидан xar bir qo‘pol xatolar uchun hamda xavfsizlik qoidalari buzilganda yakuniy natijaga -5 soniya jarima vaqt qo‘shiladi.

v) 100 metrga yugurish musobaqasi.

Musobaqa shartlari: har bir jamoadan 2 nafar (1 nafar o‘g‘il bola va 1 nafar qiz bola) истироқчи qatnashadi. Yugurish joyi start va finish chiziqlar bilan jihozlanadi. Kiyim rusumi – sport kiyimi.

Musobaqa o‘tkazish tartibi:

sport hakami томонидан истироқchilarga mashqni bajarish sharti va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi;

mashq stadionning yugurish yo‘lagi yoki qattiq qoplamaga ega tekis maydonda pastki start holatidan bajariladi;

sport hakami томонидан yugurish uchun dastlabki “Startga”, “Diqqat” hamda “Olg‘a” buyruqlari beriladi va sekundomer bosiladi;

“Olg‘a” buyrug‘и bilan истироқchilar mashqni bajarishga kirishadilar va “Finish” chизиг‘ini kesib o‘tganlaridan so‘ng sekundomer to‘xtatilib natijalar qayd etiladi.

Baholash mezonlari: истироқchilarning natjalari startdan finishgacha bo‘lgan masofani bosib o‘tgan vaqtidan kelib chiqib aniqlanadi va eng kam vaqt ko‘rsatgan истироқчи g‘olib, deb topiladi.

g) Turnikda tortilish musobaqasi.

Musobaqa shartlari: har bir jamoadan 1 nafar (o‘g‘il bola) истироқчи qatnashadi. Kiyim rusumi – sport kiyimi. Mashqni bajarishga 4 daqiqa vaqt beriladi.

Mashqni bajarish tartibi: mashqni bajarishda истироқчи qo‘l kaftlari turnikda oldinga qaratilgan holda ushlanib, qo‘llar parallel uzatilgan holda tutiladi, tana bir oz bukilgan, oyoq to‘g‘ri tushirilgan, uchi to‘liq pastga uzatilib, tovonlar juft tutilgan holatdan bajariladi. Qo‘llar bukilib, tana yuqoriga ko‘tariladi, bunda jag‘ (iyak) turnik ustiga to‘liq chiqarilgan holat qabul qilinadi. Qo‘llar yana to‘liq uzatiladi, tana bir maromda pastga tushirilib, dastlabki holatga qaytiladi. Tananing osilgan holati 3 soniyadan ko‘p bo‘lmagan vaqt davomida saqlanadi. Juft tutilgan oyoqlarni 45° gacha bukishga ruxsat beriladi. Tanani siltash, oyoqni old-orqaga tebratish, oyoqlarni chalishtirish, bir qo‘lda osilib olish amallari taqiplanadi.

Baholash mezonlari: turnikda eng ko‘p va mashqni to‘g‘ri bajargan истироқчи g‘olib deb topiladi.

d) Uzoq masofaga yugurish musobaqasi.

Musobaqa shartlari: har bir jamoaning 2 nafar a'zosi (1 nafar o'g'il bola va 1 nafar qiz bola) ishtirok etadi. O'g'il bolalar – 1500 metrga va qiz bolalar 1000 metr uzoq masofaga yugurish mashqini bajaradi. Musobaqa joyi start va finish chiziqlar bilan bir joyda jihozlanadi. Kiyim rusumi – sport kiyimi.

Musobaqani o'tkazish tartibi:

mashq stadionning yugurish yo'lakchalari yoki qattiq qoplamali tekis joylarda, umumiy yoki alohida start berilgan holda o'tkaziladi;

yugurishlar yuqori startdan boshlanadi. Yugurishda bir vaqtda tegishli ravishda raqamlangan 12 – 15 kishi qatnashishi mumkin;

hakamlar tomonidan yugurish ishtirokchilari bo'yicha nazorat o'rnatiladi;

natijalarni aniq hisoblash uchun har bir ishtirokchiga ko'krak raqami beriladi;

sport hakami tomonidan yugurish uchun dastlabki "Startga", "Diqqat" hamda "Olg'a" buyruqlari beriladi va sekundomer bosiladi;

"Olg'a" buyrug'i bilan ishtirokchilar mashqni bajarishga kirishadilar va "Finish" chizig'ini kesib o'tganlaridan so'ng, sekundomer to'xtatilib, natijalari qayd etiladi;

ishtirokchilar amaliy yugurish davomida bir-biriga halaqtি bermasligi lozim.

Baholash mezonlari: Natijasi bo'yicha shartlarni to'liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Ishtirokchilar tomonidan har bir qo'pol xatolar uchun hamda xavfsizlik qoidalari buzilganida, yakuniy natijaga -5 soniya jarima vaqt qo'shiladi.

Yugurish vaqtida belgilangan masofani kesib o'tgan va boshqa shaxslar tomonidan jismoniy yordam ko'rsatilgan ishtirokchilarning natijalari hisobga olinmaydi.

Yugurish hududidan chiqib ketgan yoki yugurishdan yurish holatiga o'tgan ishtirokchi mashqni bajarmagan hisoblanadi.

48. O'yinlarning hududiy va respublika bosqichlari quyidagi bloklardan iborat:

1. "Harbiy-vatanparvarlik bloki".

Mazkur blok uchta shartdan iborat bo'ladi.

a) "O'zbekiston tarixi bilimdoni" viktorinasi.

Viktorina savollari "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi tomonidan tuziladi va o'yinlar o'tkazilishidan bir kun avval maxsus konvertga solinib, respublika tashkiliy qo'mita a'zolari ishtirokida muhrlanadi. Savollarni tayyorlashga mas'ul bo'lgan shaxslar va tashkiliy qo'mita a'zolari musobaqadan oldin savollarning oshkor bo'lmasligi uchun javobgardir.

Viktorina shartlari: jamoaning barcha a'zolari ustki maxsus kiyimda ishtirok etadi. Jamoa sardori O'zbekiston tarixidan tuzilgan, har birida 5 tadan savol mavjud muhrlangan konvertlardan birini tanlaydi hamda imzo qo'ygan holda hakamlarga taqdim etadi. Hakamlar tomonidan har bir savol o'qiladi va ushbu savollarga jamoa a'zolari har bir savol uchun 2 daqiqa (120 soniya) davomida, jami 10 daqiqa (600 soniya) ichida javob berishlari talab etiladi.

Baholash mezonlari: ushbu shart 1 balldan 10 ballgacha tizim bo'yicha baholanadi. Har bir to'liq javob uchun 2 ball, to'liq bo'lmagan javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball qo'yiladi. Jamoa belgilangan vaqtidan chiqib ketganda -1 ball jarima bilan jazolanadi.

Yuqori ball olgan jamoa g'olib hisoblanadi. Agarda ballar teng bo'lgan taqdirda, g'olib foydalanilgan kam vaqt bilan aniqlanadi.

b) "Biz bir jamoamiz!" ko'rik-tanlovi. Jamoa maxsus kiyimining saf ko'rigi va jamoa ramzları tanlovi (vimpeli va fotoalbomi) o'tkaziladi.

Saf ko'rigi shartlari: ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Jamoa saf maydonida, ustki maxsus kiyimda to'liq saf tortadi.

Jamoaning ustki kiyimi (shu jumladan, bosh kiyimi) maxsus tiktirilgan, barcha jamoa a'zolari uchun bir turda bo'lishi talab etiladi. Qurolli Kuchlar harbiy kiyimlari va boshqa tashkilotlarning maxsus kiyimlarida (*kamar, bosh va oyoq kiyimlaridan tashqari*) ishtirok etish taqiqlanadi.

Baholash mezonlari: saf ko'rigi 5 ballik tizim bo'yicha baholanadi. Jamoaning ustki maxsus kiyimida kamchiliklar aniqlansa (ustki maxsus kiyimi boshqa musobaqlar uchun tiktirilgan, harbiy kiyim elementlaridan foydalanilgan bo'lsa) jamoa -1 jarima ball bilan jazolanadi. Yuqori ball olgan jamoa g'olib, deb hisoblanadi.

Ramzlar tanlovi shartlari: jamoa o‘yinlarning hududiy va respublika bosqichida o‘z vimpeli hamda fotoalbomi bilan ishtirok etishi lozim. Jamoa ramzlarini tayyorlanishida davlat ramzlaridan (davlat bayrog‘i, davlat gerbi) foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu shartda jamoa sardori ishtirok etadi va o‘z jamoasining vimpeli va fotoalbomini og‘zaki taqdimotini 3 daqiqa ichida o‘tkazadi.

Jamoa vimpeli 40x30 sm hajmda bo‘lib “Shunqorlar” harbiy-sport o‘yinlari ramzini va mazmunan harbiy-vatanparvarlik g‘oyasini aks etgan bo‘lishi lozim.

Fotoalbomda jamoaning birinchi bosqichda ishtirokini aks ettiruvchi harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari tasvirlangan fotosuratlar va ularning qisqacha sharhi berilgan bo‘lishi lozim. Fotoalbom badiiy bezagiga, mazmuniga va vatanparvarlik g‘oyalariga mosligiga qarab baholanadi.

Baholash mezonlari: ramzlar tanlovi 10 ballik tizim bo‘yicha baholanadi. Agarda jamoa ramzlarini talablarga javob bermasa, hakamga taqdim etilmasa jamoa -1 ball jarima bilan jazolanadi. Yuqori ball olgan jamoa g‘olib, deb hisoblanadi.

v) “Saf qo‘shig‘i” tanlovi.

Tanlov shartlari: jamoa Vatan, vatanparvarlik, mardlik va jasorat mavzulariga oid bitta saf qo‘shig‘ini yurish safida xarakatlanib ijro etishi lozim. Jamoaning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomi qoidalariga amal qilib bo‘linma tarkibida yurishiga, saf qo‘shig‘ining mazmuni va ijro etish mahoratiga alohida e’tibor qaratiladi.

Baholash mezonlari: ushbu tanlov quyidagi ko‘rsatgichlar bo‘yicha 5 ballik tizim bo‘yicha baholanadi:

- barcha jamoa a‘zolarining saf qo‘shig‘i matnini bilishlari va ohangi to‘g‘riligi – 2 ball;
- jamoaning yurish safida to‘g‘ri xarakatlanib saf qo‘shig‘ini ijro etishi – 2 ball;
- saf qo‘shig‘ini jarangdor ohangda aytilishi – 1 ball.

Jamoaning saf yurishi bir xil bo‘lmaganda, jamoa a‘zolari pala-partish harakat qilganda, saf qo‘shig‘i past ovozda aytulganda, mavzuga to‘g‘ri kelmaganda jamoa -1 jarima ball bilan jazolanadi.

Yuqori ball olgan jamoa g‘olib hisoblanadi.

2.“Harbiy-amaliy ko‘pkurash bloki”

a) “Pnevmatik quroldan o‘q otish” musobaqasi.

Musobaqa shartlari: har bir jamoadan 2 nafardan (1 nafar o‘g‘il bola va 1 nafar qiz bola) ishtirok etadi. Musobaqa shaxsiy birinchilik tarzida o‘tkaziladi. Kiyim rusumi – sport kiyimi.

Otish masofasi – 10 metr va sport nishoni №9 belgilanadi, mashq tik turgan holda bajariladi, ajratiladigan o‘q miqdori 8 ta (3 ta nazorat va 5 ta natijaviy otish), mashq bajarishning umumiy vaqt – 15 daqiqa.

Musobaqani o‘tkazish tartibi:

sport hakami tomonidan ishtirokchilarga mashqni bajarish sharti va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi;

har bir ishtirokchi otish mashqini navbat bilan “IJ” rusumli 4,5 mm. pnevmatik miltiqdan, maxsus belgilangan va jihozlangan tirda bajaradi;

dastlab ishtirokchi 3 dona o‘q bilan nazorat otishni amalga oshiradi;

keyingi navbatda ishtirokchi 5 dona o‘q bilan natijaviy otishni amalga oshiradi. Natijaviy otish hisobga olinadi;

otish jarayonida ishtirokchining aybi bo‘lmagan to‘xtalishlardagi va texnik sabablarga ko‘ra otilmagan o‘qlar musobaqa sport hakamining ruxsati bilan boshqasiga almashtirilishi mumkin;

otishni bajargan ishtirokchiga otish natijasini ko‘rishga ruxsat beriladi.

Baholash mezonlari: shaxsiy birinchilikda 5 dona o‘q bilan eng ko‘p ball jamg‘argan ishtirokchi g‘olib, deb topiladi. Bir xil ball to‘planganda otish sifati (10, 9, 8 ballar soni) hisobga olinadi.

b) “O‘quv granatasini uzoqlikka uloqtirish” musobaqasi.

Musobaqa shartlari: har bir jamoadan 2 nafardan (o‘g‘il bola) ishtirok etadi. Musobaqa shaxsiy birinchilik tarzida o‘tkaziladi. Kiyim rusumi – sport kiyimi.

Mashq bajarish joyining uloqtirish marrasi va yo‘lagi chiziq (tasma) va 30, 40, 50, 60 metr masofa ko‘rsatgichlari bilan jihozlanadi.

Ishtirokchi mashqni F-1 o‘quv granatasini (600 gramm) eni 10 metr bo‘lgan yo‘lak (koridor) ichiga uloqtirish orqali bajaradi.

Musobaqa o‘tkazish tartibi:

sport hakami tomonidan ishtirokchilarga mashqni bajarish sharti va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi;

ishtirokchilar mashqni navbat bilan bajaradi;

ishtirokchiga 3 marotaba uloqtirish imkonii beriladi;

ishtirokchi sport hakamining “Ruxsat” buyrug‘idan keyin mashqni bajarishga kirishadi. Granata uloqtirgandan keyin ishtirokchi tana muvozanatini saqlab qolishi va granata yo‘lak (koridor) ichiga tushishi kerak;

agar granata tasodifan qo‘ldan chiqib ketsa, ishtirokchi marra chizig‘ini bossa yoki tana muvozanatini yo‘qotib undan o‘tib ketsa, granata yo‘lak chiziqlarining tashqi tomoniga tushsa, aynan shu natija hisobga olinmaydi va takroriy uloqtirishga ruxsat berilmaydi;

ishtirokchi yoki jamoaning boshqa a’zosi tomonidan xavfsizlik qoidalari talablari buzilganda uloqtirish natijasi hisobga olinmaydi;

ishtirokchining faqat eng yaxshi uloqtirish natijasi qayd etiladi.

Baholash mezonlari: ishtirokchining eng yaxshi uloqtirgan natijasi qayd etiladi. Bir xil natija ko‘rsatgan ishtirokchilarga bir martadan granatini uloqtirish imkoniyati beriladi va uloqtirish natijasi hisobga olinadi.

v) “Harbiylashtirilgan estafeta” musobaqasi.

Estafeta shartlari: Jamoaning 3 nafar (o‘g‘il bola) a’zolari ishtirok etadi. Kiyim rusumi – dala harbiy kiyimida, baland qo‘njli botinka.

Estafeta uchun stadion yugurish yo‘lagi (yoki boshqa tekis hudud)ning har 100 metrga estafeta shartlarini bajarish bo‘yicha nuqtalar jihozlanadi. Sport hakami tomonidan estafetadan oldin ishtirokchilarga mashqlarni bajarish shartlari va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi. Sport hakamlari har bir jamoaning natijalarini qayd etib boradi.

Estafetani o‘tkazish tartibi:

birinchi nuqta – AK-74 qurolini noto‘liq qismlarga ajratish:

jamoaning birinchi ishtirokchisi “Start” chizig‘idagi stol oldida 1 metr masofada harakatga tayyor holda turadi, stol ustida AK-74 quroli zatvori yuqoriga qaratilgan holda joylashtiriladi;

hakam tomonidan “Olg‘a” buyrug‘i berilgach, sekundomer bosiladi va ishtirokchi AK-74 qurolini noto‘liq qismlarga o‘rnatilgan tartibda yoyib, 100 metr masofaga yuguradi va belgilangan chiziqni kesib o‘tgach, estafeta tayoqchasini keyingi nuqtada joylashgan ikkinchi ishtirokchiga topshiradi.

ikkinchi nuqta – gazga qarshi niqobni kiyish:

ishtirokchi belgilangan chiziqdan keyin harakatga tayyor holda turadi;

ishtirokchi estafeta tayoqchasini olgandan so‘ng yonidagi gazga qarshi niqobni o‘rnatilgan tartibda kiyadi;

sport hakamlari ishtirokchi tomonidan gazga qarshi niqobni to‘g‘ri va to‘liq kiyilganini tasdiqlagach, “Olg‘a” buyrug‘ini beradi;

ishtirokchi gaz niqobini kiygan holda 100 metrga yuguradi va belgilangan chiziqni kesib o‘tgach, estafeta tayoqchasini uchinchi ishtirokchiga topshiradi.

uchinchi nuqta - AK-74 qurolini to‘liq yig‘ish:

ishtirokchi belgilangan chiziqdan keyin stol oldida 1 metr masofada harakatga tayyor holda turadi, stol ustida noto‘liq yoyilgan AK-74 quroli yotadi;

ishtirokchi estafeta tayoqchasini olgandan so‘ng noto‘liq qismlarga yoyilgan AK-74 qurolini to‘liq yig‘adi va 100 metr masofaga yugurib “Finish” chizig‘ini kesib o‘tadi.

Baholash mezonlari: Ishtirokchilar estafeta shartlarini to‘liq bajarib, finish chizig‘i kesib o‘tilgach sport hakami tomonidan sekundomer to‘xtatiladi va natija qayd etiladi. Natijasi bo‘yicha estafeta shartlarini to‘liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan jamoa estafeta g‘olibi hisoblanadi.

Ishtirokchilar tomonidan xar bir qo‘pol xatolar uchun hamda xavfsizlik qoidalari buzilganda yakuniyat natijaga -5 soniya jarima vaqt qo‘shiladi.

3. “Sport bloki”

a) Duatlon bo‘yicha musobaqa.

Musobaqa shartlari: Ushbu musobaqada jamoaning 2 nafar a’zosi (1 nafar o‘g‘il bola va 1 nafar qiz bola) ishtirok etadi. Kiyim rusumi – sport kiyimi. Musobaqaning har bir ishtirokchisi o‘z velosipedida qatnashish huquqiga ega. Musobaqa joyi start va finish chiziqlar bilan jihozlanadi.

Mashqni bajarish masofalari:

- o‘g‘il bolalar yugurgan holda 1000 metr, velosipedda 3000 metrni va yana yugurgan holda 1000 metr masofada mashqni bajarishadi;

- qiz bolalar yugurgan holda 500 metr, velosipedda 1000 metrni va yana yugurgan holda 500 metr masofada mashqni bajarishadi.

Musobaqani o‘tkazish tartibi:

musobaqa o‘g‘il bolalar va qiz bolalar o‘rtasida alohida start orqali o‘tkaziladi;

sport hakami tomonidan ishtirokchilarga mashqlarni bajarish sharti va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi;

natijalarni aniq hisoblash uchun har bir ishtirokchiga ko‘krak raqami beriladi;

umumiylar start ikki bosqichda o‘tkazilib, unda 7-10 ta ishtirokchi qatnashishi mumkin;

sport hakami tomonidan yugurish uchun dastlabki “Startga”, “Diqqat” hamda “Olg‘a” buyruqlari beriladi va sekundomer bosiladi;

“Olg‘a” buyrug‘i bilan ishtirokchilar mashqni bajarishga kirishadilar va “Finish” chizig‘ini kesib o‘tganlaridan so‘ng, sekundomer to‘xtatilib, natijalari qayd etiladi;

ishtirokchilar amaliy yugurish davomida bir-biriga halaqtin bermasligi lozim. Yugurish vaqtida belgilangan masofani kesib o‘tgan va boshqa shaxslar tomonidan jismoniy yordam ko‘rsatilgan ishtirokchilarning natijalari hisobga olinmaydi.

Baholash mezonlari: Natijasi bo‘yicha shartlarni to‘liq bajargan holda eng kam vaqt sarflagan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Ishtirokchilar tomonidan har bir qo‘pol xatolar uchun hamda xavfsizlik qoidalari buzilganida, yakuniy natijaga -5 soniya jarima vaqt qo‘shiladi.

b) 100 metrga yugurish musobaqası.

Musobaqa shartlari: har bir jamoadan 2 nafar (1 nafar o‘g‘il bola va 1 nafar qiz bola) ishtirokchi qatnashadi. Yugurish joyi start va finish chiziqlar bilan jihozlanadi. Kiyim rusumi – sport kiyimi.

Musobaqa o‘tkazish tartibi:

sport hakami tomonidan ishtirokchilarga mashqni bajarish sharti va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi;

mashq stadionning yugurish yo‘lagi yoki qattiq qoplama ega tekis maydonda pastki start holatidan bajariladi;

sport hakami tomonidan yugurish uchun dastlabki “Startga”, “Diqqat” hamda “Olg‘a” buyruqlari beriladi va sekundomer bosiladi;

“Olg‘a” buyrug‘i bilan ishtirokchilar mashqni bajarishga kirishadilar va “Finish” chizig‘ini kesib o‘tganlaridan so‘ng sekundomer to‘xtatilib natijalar qayd etiladi.

Baholash mezonlari: ishtirokchilarning natijalari startdan finishgacha bo‘lgan masofani bositib o‘tgan vaqtidan kelib chiqib aniqlanadi va eng kam vaqt ko‘rsatgan ishtirokchi g‘olib, deb topiladi.

v) Turnikda tortilish musobaqasi.

Musobaqa shartlari: har bir jamoadan 1 nafar (o‘g‘il bola) ishtirokchi qatnashadi. Kiyim rusumi – sport kiyimi. Mashqni bajarishga 4 daqiqa vaqt beriladi.

Mashqni bajarish tartibi: mashqni bajarishda ishtirokchi qo‘1 kaftlari turnikda oldinga qaratilgan holda ushlanib, qo‘llar parallel uzatilgan holda tutiladi, tana bir oz bukilgan, oyoq to‘g‘ri tushirilgan, uchi to‘liq pastga uzatilib, tovonlar juft tutilgan holatdan bajariladi. Qo‘llar bukilib, tana yuqoriga ko‘tariladi, bunda jag‘ (iyak) turnik ustiga to‘liq chiqarilgan holat qabul qilinadi. Qo‘llar yana to‘liq uzatiladi, tana bir maromda pastga tushirilib, dastlabki holatga qaytiladi. Tananing osilgan holati 3 soniyadan ko‘p bo‘lmagan vaqt davomida saqlanadi. Juft tutilgan

oyoqlarni 45⁰ gacha bukishga ruxsat beriladi. Tanani siltash, oyoqni old-orqaga tebratish, oyoqlarni chalishirish, bir qo‘lda osilib olish amallari taqiqlanadi.

Baholash mezonlari: turnikda eng ko‘p va mashqni to‘g‘ri bajargan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

VII. O‘yinlar g‘olib jamoalarini aniqlash tartibi

49. O‘yinlarda I, II, III o‘rinlarni egallagan g‘olib jamoalar hamda shaxsiy birinchilik sovrindorlari sport hakamlari tarkibi tomonidan aniqlanadi va yakuniy bayonnomma bilan tasdiqlanadi.

50. O‘yinlarning “Harbiy-vatanparvarlik bloki” bo‘yicha g‘oliblar, jamoalarning har bir shart bo‘yicha egallangan o‘rinlarning eng kam soni yig‘indisi bo‘yicha aniqlanadi.

51. Umumjamoa hisobida I, II, III o‘rinlar g‘oliblari, jamoalarning har bir musobaqa bo‘yicha egallagan o‘rinlarining, ilovada qayd etilgan jadval bo‘yicha hisoblangan eng kam soni yig‘indisi bo‘yicha aniqlanadi.

52. Agar yakunda jamoalarning natijalari bir xil bo‘lganda, unda umumjamoaviy o‘rinlar, jamoalar tomonidan eng ko‘p egallagan I, II, III o‘rinlarga qarab belgilanadi. Ushbu holatlarda ham bir xil natija ko‘rsatilsa, unda harbiylashtirilgan estafetada g‘olib bo‘lgan jamoaga ustunlik beriladi.

53. Agar jamoa birorta shartda ishtirok etmasa, ushbu jamoaga musobaqa yakuniga ko‘ra ko‘rsatgan natijalaridan qat’iy nazar eng so‘nggi o‘rin beriladi.

54. O‘yinlar yakunida mas’ul kotib tomonidan bayonnomma rasmiylashtirilib, barcha sport hakamlari tomonidan imzolanadi va bosh sport hakami tomonidan tasdiqlanadi. Har bir musobaqaning natijalar qaydnomasi sport hakamlari tomonidan imzolanadi.

VIII. O‘yinlarda intizom va ichki tartib-qoidalari hamda xavfsizlik talablariga rioya etish

55. O‘yinlar ishtirokchilari transportda harakatlanganda, musobaqalar o‘tkaziladigan hududda o‘rnatilgan kun tartibiga hamda musobaqa shartini bajarish vaqtida xavfsizlik qoidalari qat’iy rioya etishlari shart.

56. Ishtirokchilar tomonidan mazkur Nizomda belgilangan shartlarda ko‘rsatilmagan xatti-harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi. Xavfsizlik qoidalari va o‘rnatilgan kun tartibiga rioya qilmagan jamoalar o‘yinlardan chetlashtiriladi.

57. O‘yinlar davomida o‘rnatilgan kun tartibi va intizomni buzgan jamoalarga jarima ballari hisoblanishi mumkin.

58. O‘yinlarni xavfsizlik qoidalari asosida o‘tkazish uchun mas’uliyat tashkiliy qo‘mitaga yuklatiladi.

59. Jamoa a’zolarining xavfsizlik qoidalari qoidalariga rioya etishlari hamda musobaqa shartlarini bajarishiga tayyorlarligi uchun javobgarlik jamoa rahbariga yuklatiladi.

IX. O‘yinlarning moddiy-texnik va moliyaviy ta’minoti

60. O‘yinlarni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar Markaziy kengash, hududiy kengashlar va ular tasarrufidagi muassasa (tashkilot)lar, shuningdek, Yoshlar ishlari agentligining mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Davlat va jamoat tashkilotlari hamda jismoniy shaxslar ushbu o‘yinlarga, shuningdek, alohida jamoalarga homiylik qilishlari mumkin.

61. O‘yinlarning tuman (shahar) bosqichini o‘tkazish hamda g‘olib jamoalarni hududiy bosqichda ishtirok etishlari bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlar (jamoani tayyorlash, transport va boshqa) “Vatanparvar” tashkilotining tegishli o‘quv muassasa (tashkilot)lari, mahalliy hokimiyat organlari (kelishuv asosida), Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limlari mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan tartibda moliyalashtiriladi.

62. O‘yinlarning hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar) bosqichini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlar (yotoqxona, ovqatlantirish, transport,

g‘oliblarni taqdirlash va boshqa) “Vatanparvar” tashkiloti hududiy kengashlari, Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan tartibda moliyalashtiriladi.

63. O‘yinlarning Respublika bosqichini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlar (yotoqxona, ovqatlantirish, g‘oliblarni taqdirlash va boshqalar) “Vatanparvar” tashkiloti Markaziy kengashi, Yoshlar ishlari agentligining mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan tartibda moliyalashtiriladi.

64. Hududiy kengashlar tomonidan o‘yinlarning Respublika final bosqichiga yuboriladigan g‘olib jamoani tayyorlash va transport bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlar o‘z mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan tartibda moliyalashtiriladi.

X. Yakuniy qoidalar

65. Mazkur Nizomga Tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

66. Mazkur o‘yinlar bilan bog‘liq barcha hujjatlar “Vatanparvar” tashkiloti Markaziy kengashi apparatida o‘rnatilgan tartibda saqlanadi.